

Bir qo'lda Qur'onu bittasida jom,

Ba'zida halolmiz, ba'zida harom. Firuza gumbazli osmon tagida Na chin musulmonmiz, na kofir tamom[1]. Umar Xayyom
Ibtido

Bismillahir rohmanir rohiym.

Jumla olamni, bu hadsiz koinotni o'z qudrati va mehri ila bino etib, unda insonni mukarram qilgan Rahimu Rahmonga, bandasiga Aql atalmish mo'jizani berib, fikrlatib qo'ygan, qalb otlig' sirli hilqatni ato qilib, uni Ishq va Haqiqat nasiymilari ila muattar etgan karamli Zotga beaded hamdu sanolar bo'lsin.

Ummatiga shifoatlar tilagan, zaminga boqiy saodatning ilk mujdalarini yetkazgan sarvari olam, Sayyidul Koinot Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamga salotu salomlar bo'lsin. Va ul Zotning ahli bayti va sahobalariga ham salotu salomlar bo'lsin. Ammo ba'd, bu miskin bir tarixi muborakni bayon etmoqni niyat qildiki, Oллоh rozi va madadkor bo'lg'ay.

* * *

U yo'l izlaguvchi edi. Kunu tun, tushu xush yo'l izlardi. Bu hatto bir kecha suratan ayon bo'ldi: u sarosar kezardi, joni halqumida, ko'ngli tug'yonda, butun vujudi lov-lov yonardi. Bu yo'l boshida g'ala-g'ovur ila turgan odamlarning qoshiga yetdi. Jigar-bag'ri xun, qovrilib yetdi.

-Bu yo'l qay ma'voga olib boradi?-deya so'radi yonib.

Odamlar parvo qilmadilar.

-Ey, odamlar, bu yo'l qayga boradi axir?!

Yana hamma jim. Ba'zilari ajab jilmayib, yelka qisdilar.

U yana chopa ketdi. Tovonidan, bag'ridan o't chiqa chopdi. Alhol tag'in bir yo'l boshidagi odamlar qoshiga yetdi.

-Bu yo'l qay go'shaga eltadi?-dedi ularga butun vujudidan ter quyilib.

Odamlar jim turaverdilar.

-Ey, odamlar, ayting axir, bu yo'l qay ma'voga olib boradi?!

Javob yo'q.

Yana chopa ketdi.

Yana yo'l.

Yana savol.

Yana javob yo'q.

Bu hol qaytarilaverdi.

Axiyri holdan toyib, yiqilar paytida ko'zlari oldidagi xira parda yo'qolib, soqoli-yu kiyim-boshi oppoq nuroniy zot paydo bo'ldi. Uning yuzidagi haliym va yoqimli tabassumni ta'riflamoqqa til ojiz edi. U yana "Yo'l!.." dedi ovozi bazo'r chiqib.

-Yo'l?!..

-Axir har bir yo'lning avvali ko'ngilda-ku. Yo'lning boshini ko'nglingdan izla!

Endi uning vujudiga unga notanish halovat ina boshladi va shuurini ajib bir oydinlik qamramoqqa tushdi. Ko'nglidagi boyagina olamni zeru zabar etmoqqa qodirdek tuyulgan to'fonlar tin olib, endi to'lg'oqli savollarga doya bo'ldilar.

-Men... men... Tavrotni o'qidim, Injilni o'qidim... Qur'onni mutolaa etdim, yo Hazrat. Biroq yo'l?!..

-Umringni sarhisob et, bolam. Dunyoda ikki mingdan ziyod ilohiy atalmish kitoblar bor. Keragini o'qi va avvalo ko'nglingda ixlosni bino et. So'ng bu olamdagi vazifangni anglab yet-da, o'sha vazifani ado ayla. Murodingning qolganlari o'zi keladi. Yo'l ham, najot ham ixlos hamda vazifada.

-Endi esa yo'llarimni, yo'limni anglyotgandekman. Yurtimga qaytib, ulkan cherkovni buzaman-da, uning o'rnida muhtasham masjid barpo etaman.

-Yo'lni xato tanlama, bo'tam, haddingni bil. Ul cherkovning ham o'z sohiblari, ul dinning ham o'z avliyolari bor. Ularning ruhini chirqiratma. Masjidni boshqa yerga qur.

Savollar nihoyasiz edi. Nuroniy zot bo'lsa javobdan charchamasdi. Ovozida ozgina bo'lsin malol yoxud zarda sezilmasdi.

-Boshimizda turgan koinot cheksiz-chegarasiz. Uning oxir haddini O'zidan o'zga kimsa bilmaydi. Shul kabi bu cheksizlik qa'rida behisob yo'llar, yulduzu sayyoralar bor. Ammo ularning barchalarining adog'i Mehvari Muazzamda tutashgusidir. Bu nimarsalarni biron-bir din ta'rifida turib anglab bo'lmaydi. Ularning har biri va Mehvari Muazzam oralig'dagi sirli ma'voni izlamoq hamda ilg'amoq zarur. Haqiqat ana o'sha yerda.

O'zi tuzgan bu borliqda O'zi bor va Iblis bor. Ya'ni Ezgulik hamda Yovuzlik mavjud va ularning oralig'i mavjud.

Bani bashar bu olamda qo'nim topgandan buyon ne-ne mukarram zotlar yashab o'tmadilar. Ularning har birlari bir sayyora, bir yulduz bo'la oladilar. Dinlari turfa, millatlari turfa, lekin maslagu murodlari bir- ezgulik edi. Ularning qalblarida O'zi yashardi. Illo bu zotlarga ham biron bir din yoxud milliy tamoyillar tarafida turib haq bahoni bermoq dushvor va ularni anglamoq mushkul. Shunday ekan, Haqiqat barqaror bo'lgan oraliqni-sirli ma'voni izla!..

Uning shuuri oydin-oydin edi. Nuroniy zot so'zlagani sari vujudi huzurbaxsh jimirlab, o'zga bir olamga singib borayotgandek bo'lardi. U ro'baro'sidagi kishining so'zdan to'xtamog'ini sira-sira istamasdi.

Nuroniy zot esa mudom so'zlar, hikoya qilardi. Uning ovozi o'zga bir olamdan, sirli bir ma'vodan eshitalayotgandek tuyulardi...

Birinchi Qism

Birinchi bob

Hijriy 455 (melodiy 1076) yilning bahori. Isfahonda tong otmoqda. Qadim shaharning muhtasham devorlari osha, ularning ortida qorayib ko'ringan haybatli tog'larning viqorli yelkaları uzra tongning ilk mujdalari seziladi. Osmonning sharqiy burjidagi hov anovi ulkan cho'qqining keti ko'zning oqi yanglig' oqarib bormoqda. Go'yo tun to'nining bir peshi ximarilib, qo'ynidagi oppoq tongning yelkasi ko'rinib kelayotgandek.

Bu azim shaharga olamga hukmronlik da'vosini qilgan Iskandar Zulqarnayn asos solgan bo'lib, uni vodiy shahar desa ham bo'ladi. Chunki shahar qal'asining uch tomoni qir-adirlaru ularga tutashib ketgan baland tog'lar bilan o'ralgan, atrofi esa keng yaylovlardan iborat edi. Faqatgina janubiy-sharq tomonigina ochiq, ya'ni tekislik bo'lib, cho'lu sahrolar bilan ulanib ketgandi. Shahar qal'asining asosiy darvozasi ham ayni shu tarafda edi.

Qal'a devorlari ancha baland va mustahkam edi. Ularning osti chuqur handaqlar bilan ixotalangan, ustida esa qorovul va soqchilar

yurishi hamda atrofni kuzatishi uchun maxsus yo'laklar, tuynuklar qilingan, yov bos-qini payti kamonchilarning yoy otishlariga mo'ljallangan supachali kungurador sangandozlar (o'q otish uchun qoldiriladigan tuynuk) ham qurilgandi. Bularning barchasi, xususan qal'a devori ham tunda, ayniqsa, mahobatli va hatto vahimali ko'rinar, dunyoning katta bir qismini egallab turgan Suljuqiylar dorussaltanatining butun ulug'ligi hamda salobatini namoyish etayotgandek tuyulardi.

Isfahon arablar hukmronligi davrida ancha obod bo'ldi. Shaharning bosh maydonida (xalq tili bilan aytsak, shohmaydonida) qad rostlab turgan anovi jom'e masjidi, Nizomiya madrasasi binosi, asosiy bozor va hatto sulton saroyi ham arablar zamonida qurilgan. Masjidu madrasaning hozir qorayib ko'rinayotgan aslida moviy gumbazlari ko'plab shuhratlab hukmdorlarning ko'zlarini qamashtirganligi ham rost. Isfahon shuhratiga shuhrat qo'shmish jom'e masjidi minorasining balandligi yetmish arshin bo'lib, ancha uzozlardan ko'rinib turadi...

Odatda Umar Xayyom bomdod namozini o'z hujrasida o'qirdi. Ammo bugun muhim bir yumushni rejalab, ertaroq uyg'ondi. Tahorat olgach, sunnat nomozini o'qidi-da, jundan to'qilgan xirqasimon odmi chakmonini kiyib, tashqariga chiqdi. Maqsadi namoz farzini jom'e masjidida o'qish edi. Tong osmonining oqish-ko'kimitir rangi olamga xiyol oydinlik baxsh etayotgan bo'lsa-da, hali atrof nimqorong'ulik og'ushida edi. Shahar tashqarisining shimol tomonidan oqib o'tguvchi daryoning muzdek bahoriy suvini xo'plagan shabada kishining badanini junjiktirar darajada sovuq. Havoning tozaligidan nafas olganda kishining tomog'i, burni achishib ketgudek bo'lardi. Shoir chakmoniga yaxshiroq burkanib, bir-ikki tomoq qirib qo'yarkan, biroz enkaygan ko'yi masjid tomon odimladi. Shu payt muazzinning minora ustidan eshitilgan butun olamlar Egasini sharaflovchi jarangdor ovozi butun atrofni tutdi:

-Olluhu Akbar! Olluhu Akbar!..

Namoz nihoyalangach, masjiddan avvalroq chiqqan Umar Xayyom o'zini bir chetga olib, ulug' vazir Nizom ul-Mulk janoblarining chiqishini kuta boshladi... Olam mudom osuda, havo musaffo, illo bu go'zal va fayzli xilqatlar kishi umriga barokot berayotganday tuyuladi. Tabiatdagi bu tiniqlik odamlar shuuriga ham ko'chgan va ular shuurlaridagi tiniqligi tonggi ibodatning ilohiy ta'siri hamda subhidam tarovatidan o'zlarini o'zgacha, balki yengilroq his etadilar. Namozdan turgan va masjidding naqshinkor hashamatli eshiklaridan chiqayotgan ahli taqovning yo'talishlari va hatto tomoq qirishlari ham bomdodiy sokinlik qo'ynida misoli temirchi bolg'asining tovushiday quloqqa yoqimsiz eshitiladi. Odamlarning labidan uchgan ojiz shipshishlar yohud bir og'iz so'z ham chor atrofga aks sadoday sochiladi... Mana, nihoyat maqsurada (mehrob yonidagi arkoni davlat namoz o'qiydigan joy) bo'lgani uchun kechroq chiqqan vaziri a'zam ham ko'rindi. U xonaki va odmi bo'lsa-da, ozoda hamda ohorli libosda bo'lib, ko'rinishdan bu libosini faqatgina namoz uchun kiyishini sezish mumkin edi. Aslida ham shavkatli Saljuqlar davlatining tayanchlaridan biri bo'lmish, shuhrati butun Sharqqa yoyilgan bu inson judayam sarishta va poklikni suyguvchi edi. Uning egniga tushgan anchayin uringan mato yoxud libos ham ohorli ko'rinar, moy surtilganday yaltirab turguvchi yuzi, doimo qirtishlangan ixcham mosh-guruch soqol-mo'ylovi, na kichigu na katta bo'lmagan, biroq o'ziga o'ta yarashgan oppoq sallasi shu qadar fayzli ediki, kishining zavqini keltirardi. Zotan uning qaddi-qomati ham o'rtadan quyiroq bo'lib, pakanalikka xiyol moyil edi. Vaziri a'zamning ham shoirga ko'zi tushdi-da, uning masjid eshigida peshvoz turishi bejiz emasligini sezib hamda u bilan ko'rishmoq niyatida o'sha tarafga mayl qildi.

-Assalomu alaykum, ey, miskinlar xaloskori, fozillar g'amxo'ri ulug' vazir janoblari!-Shoir aslan bundayin jimjimador so'zlardan iborat hamdu sanolarni yoqtirmasdi. Ehtimol shuning uchunmi har safar shu kabi so'zlarni aytganda ko'nglida ajib bir holat paydo bo'lar va bu bilan o'zini o'zi masxaralayotganday tuyulardi-da, ichida g'ashlik tug'ilardi. Uning bu fe'lini, balki kayfiyatini Nizom ul Mulk ham to'la bo'lmasa-da, bir qadar bilardi. Qolaversa, bundayin maqto'vlar shodasini Xayyom ham har kimga-da, hamisha-da aytavermas, ayni damda esa bu hamdlar vaziri a'zam uchun quruq xushomadgina emas, balki unga berilgan to'g'ri baho edi. U haqiqatan ham miskinlar xaloskori, olimu fozillar posboni edi. Shu vajhdan ham shoir ul zotni benihoya hurmatlardi.

Ular qo'shqo'llab ko'rishdilar. Vaziri a'zam shoirning tavoze'iga mag'rur tavoze'ila javob berdi. Ikkovlon yonma-yon vaziri a'zamning qasri tomon yo'ldildilar. Darvoqe, ul zotning qasri sulton saroyiga tutash bo'lib, ixcham bog' va tosh yotqizilgan tekis yo'lakchalardan iborat edi. Qalamga oshno fozillar ahliidan bo'lgan ulug' vazir odatda subhi sodiqdan to nonushta mahaligacha mazkur bog'da sayr etib, xayol surguvchi, rejalar tuzguvchi edi. Xayyom uning bu oshiyonida bir necha bor bo'lgan va hatto tonggi sayrlarini ham ko'rgandi. Yodida, u bilan ilk uchrashuvlari ham mana shu qasrda kechgan edi...

Ikki yil oldin, o'shanda ham ayni ko'klam mahali edi. Hzining Buxorodagi hayotidan, balki Movarounnahr hukmdori Shams ul Mulk munosabatidan qoniqmay qolgan Umar Xayyom o'z valine'mati qozikalon Abu Tohirga ro'baro' bo'ldi. Qozikalon bu ko'hna va jafokash dunyoda ancha yashab qo'ygan, shul bois odamning ichidagini yuz-ko'zidan bila o'ymoqlik qurbiga ega inson edi. U yosh shoirning ahvoli ruhiyasiga qalb ko'zini tutarkan, inchnun zohiridagi ijod zahmatini, o'zidan qoniqmaslik, halovatsizlik sifatlarini ham payqadi. O'shanda ziyrak qozikalon ham undagi bedorlik ortida yashiringan bo'ronlarni, to'fonlarni to'laligicha ilg'ay olmagandi. Vujudida kechayotgan bu g'alayonlarni hatto uning o'zi ham butun boricha hali tushunmas, idrok etolmasdi.

-Endi ne manzilni ixtiyor etmoq istarsen?-deya so'radi Abu Tohir Umarga sinovchan tikilarkan. Shoirning o'z muddaosi, ko'zlagan maqsadi bor edi. Movarounnahr hoqonining unga bo'lgan munosabati anchayin sovuqligi shunda ham aks etardiki, unga tayin etilgan maosh nafaqat qadr-qimmatini, balki tirikchiligini me'yoriga solmoqqa-da izn bermasdi. Ammo Xayyom qozikalonga buni arz etmaydi, bu borada avvalo uning o'zi so'z aytmog'ini kutadi. Uning fe'li shunday-birovg'a hasrat qilish, yukinish, o'tinib yordam so'rash mag'rur yuragini jarohatlaydi. Qolaversa, Abu Tohir ham uning bu fe'lini yaxshi biladi va qadrlaydi.

-Sizning maslahatingizni kutmoqdamen.-dedi Xayyom tavoze'ila.

-Buxoroni tark etmoqchi ekanligingni sezib turibmen. -Qozikalon mudom mulohazakor bir ohangda so'zlardi. -Mening fikrimcha, hozir sening joying Isfahonda. Chunki Saljuqiylar sultoni Jaloliddin Malikshoh va uning ulug' vaziri Nizom ul-Mulk janoblari o'z dorussaltanatlari ko'plab olimu fozillarni ja'm etmoqdalar. Illo Sulton hazratlari xo'p ilmparast va Islomparast ermish. Agar istasang, do'stim Nizom ul-Mulk janoblariga noma bitib berurmen. Inshoolloh, ul zot seni benasib etmagay.

Xayyom uchun bu ayni muddo edi, ayni shu narsa u ko'zlagan maqsadning ibtidosini tashkil etardi. Chunki shoir Isfahondagi ulkan kutubxonaning shuhratini eshitgan va o'shal bebaho xazinaga tezroq yetishmoq orzusida edi. Shuningdek, ko'hna Isfahonda o'zining g'oyibona ustozlari, Shayx ur-ra'is Abu Ali ibn Sino ham yashab, ijod etganligidan boxabar ediki, illo uning bitiklarini zo'r bir tashnalik ila mutolaa qilardi. Uning ba'zi muxtasar asarlarini yoddan bilar, "Al-Qonun"ini esa yonidan qo'ymasdi. Ayni damda Shayx ur-ra'isday ulug' olimning yangi asarlari bilan tanishmoq ishtiyoqidan shodlanmoqda edi. Zero uni Buxoroi sharifga yetaklab kelgan asosiy sabablardan biri ham jannatmakon Ibn Sino dohosining zavqu sururi bo'lgandi.

-Marhamatingizdan minnatdormen, muhtaram qozikalon hazratlari! -Shoir xiyol bosh egib, ta'zim qildi.

Shunday qilib, Umar Xayyom qozikalonning ulug' vazirga bitilgan nomasiga erishgach, Buxorodan Isfahon sari yo'l tutgan karvonga qo'shildi. U karvonda uch tuyaga ega bo'lib, biriga o'zi mingan, qolgan ikkitasiga esa kitob va bitiklari ortilgan edi. Karvondagi boshqa tuya va otlarga Movarounnahr hukmdori Shams ul Mulkning chor atrofni bosib kelayotgan Saljuqiylar sultoni Malikshohga yo'llagan sovg'a-salomlari yuklangandi. Shams ul-Mulk shu yo'l ila jon saqlamoqqa urinardi... Bahorning o'rtalarida dorussaltanatga yetib kelgach, bir-ikki kun yuviniib-taranib, hordiq oldi va ulug' vazirning qabuliga oshiqdi. Hshanda ham Nizom ul Mulk shoirmi o'z qasrida qabul qilgan edi. Yoshi ellikdan oshgan xush chehrali ulug' vazir Umar Xayyom haqida avvaldan eshitgan, uning hech bir bitikka qiyoslab bo'lmaydigan ruboiylaridan ham boxabar edi. Shuning uchun ham ko'p ilmlar borasida bahs etmoqqa qodir bo'lgan donishmand vazir yosh shoirmi iliqlik ila kutib oldi. Uning istiqboliga peshvoz chiqib, quchoqlashib ko'rishdi. Xayyom bundayin muomalani kutmaganligi bois biroz esankiradi va ehtimol ulug' vazirning salobati ham bosdi.

Vazirning taklifi bilan naqshinkor xontaxta yoniga yuzma-yuz o'tirdilar. Olloh taolodan yaxshilik tilab, yuzlarga fотиha tortilgach, shoir Abu Tohirning maktubini tavoze ila ulug' vazirga uzatdi.

Umar Xayyom shuhrati uzoq-uzoqlarga ketgan Nizom ul Mullday inson bilan bu yanglig' yuzma-yuz o'ltirib hamsuhbat bo'lmoq har kimga ham nasib etavermasligini yaxshi tushunar va shul vajhdan-da imkon qadar ul muborak zotning e'tiborini qozonmoq istagida odob saqlardi. Vazir to maktubni o'qib bo'lgunicha boshini quyi solib, jim o'ltirdi. Vanihoyat ulug' vazir ochiq chehra ila yana shoirga yuzlandi.

-Qalay, safar toliqtirmadimi? Olloh taoloning panohida eson-omon yetib keldingizmi? (vaziri a'zam uchrashuvlarining dastlabki vaqtlarida shoirmi "siz"lab gapirardi.) Birodarim Qozikalon Abu Tohir janoblari ham omonda yuribdilarmi?-deya bir muddat hol-ahvol so'ramoq ila band bo'ldi.

-Shukr.-dedi Xayyom ilkini (qo'lini) ko'ksiga qo'yib, -ul zoti bobarokot Olloh taoloning panohida sog'-omon yashab yuribdilard. Mazlumlar panohi, olimu fozillar homiysi bo'lmish siz vaziri a'zam janobi oliylariga ko'pdan-ko'p duoi salom yo'lladilar.

-Ul zotdan Olloh rozi bo'lg'ay. Filhaqiqat, Abu Tohir janoblari o'z nomasida bitganlaridek, ulug' sultonimiz Malikshoh janobi oliylarining farmonlari hamda istaklariga binoan Islom olamining bilimdon olimu fozillarini, otashzabon shoirlarini dorussaltanatga ja'm etmoqdamiz. Inshoolloh, Isfahon jumlai jahonning bosh kentiga aylangay. -Ulug' vazir bir muddat sukutga toldi-da, so'ng yana so'zida davom etdi. -ma'lumingiz bo'lg'aykim, dorussaltanatda rasadxona bunyod etilmish. Lekin uning ulug'vorligi sultonimizning shonu shavkatlariga monand va arzirli emasdur. Rasadxona qurilishini nihoyalamoq, ayniqsa, uning yuqori qismini takomilga yetkazmoq ilmi handasa va ilmi nujumdin boxabar bo'lgan siz kabi olimga lozimdur.

-Qulluq, hazratim!-dedi ilki mudom ko'ksida bo'lgan shoir xokisorlik ila.-Banda ham ulug' sultonimizning shonu shavkatlari soyasinda ilm ila mashg'ul bo'lmoq orzusida yonmoqdamen. Illo Isfahon rasadxonasi-yu kutubxonasi haqida ko'p bor eshitganmen. Olloh taologa hamdlar bo'lg'aykim, ul mo'tabar dargohlar ostonasini ko'zga surtmoq baxtiga musharraf etayotir.

-Borokollo, ayo shoir! -Ulug' vazir shoirga mehr va samimiyat ila boqib dedi,- Qayerga qo'ndingiz?

-Karvonsaroydamen, janobi oliylari.

-Bu kech ham o'sha yerda tunamoqqa sabr etursiz. Ertaga huzuri muborakdin so'ngra rasadxonaga ko'chib o'tgaysiz. Ulug' Sultonimizga shu bugunoq siz haqingizda yetkazurmen.

Shu bilan suhbatlari nihoyalaniib, Xayyom karvonsaroyga qaytdi. Ertasi kuni Nizom ul Mulkning chorlovi ila Sulton huzuriga kirdi va saljuqiylar saltanatining yosh hukmdori nazaridan o'tdi. Sulton ham unga oliy mulozamat ko'rsatdi, shoirming tashrifidan ilhomlanibmi, o'zi orzulagan yumushlar xususida-da muxtasar so'zlab o'tdi. Qabul nihoyasida shoirming rejaları borasida ham qiziqdi. Hsha ilk uchrashuvdayoq Umar Xayyom yosh Sultonning bilimiga, o'zini tuta bilish salohiyatiga qoyil qolgandi. Zero yaqindagina taxtga o'ltirgan o'n yetti yoshli Malikshoh o'zini xuddi kattalarday va hatto ancha-muncha yillarni yashab qo'ygan donishmadlarday tutar, kelishgan qaddi-basti ham unga yanada salobat baxsh etardi. Shoir asli ko'chmanchi turk-o'g'izlardan bo'lmish Sultondan bundayin qobiliyat va yuksak madaniyatni kutmagandi. O'sha uchrashuvdan so'ng uning qalbida tug'ilgan Sultonga bo'lgan hurmati vaqt o'tgani sayin tobora mustahkamlanib, sobitlashib bordi...

Ular ulug' vazirning bog'idagi tosh yotqizilgan tekis yo'lak bo'ylab borardilar. Vaziri a'zam erta bahorning etni junjiktirguday salqin havosini go'yo pisand qilmayotganday o'zini mag'rur va viqorli tutar, u kishidan biroz tikroq bo'lgan, yuz suyaklari bo'rtib chiqqan, qisqa qora soqoli o'ziga yarashgan basavlat shoir esa boshini xiyol eggancha qadam tashlaydi.

Vanihoyat ulug' vazir tilga kirdi:

-Shoirlar shoirini saharbardonda bizning huzurimizga ne yumush boshlab keldi?

-Avvalo uzrimni qabul etgaysiz, janobi oliylari.-Shoir subhiy bir tiniq va o'ktam ovozdā so'zlardi. -Rasadxonamiz tabboxiga (oshpaziga) bir-ikki bor qutlug' nazaringiz tushgan bo'lsa kerak.

-Xo'sh-xo'sh?...-deya vaziri a'zam diqqatini jamlab, shoirga qaradi.

-O'sha odamning yolg'iz qizi mana bir necha kundirki g'oyib bo'lgan. Nazarimda, Sabbohnig tarrorlari o'g'irlab ketishgan shekilli... Xayyomning maqsadiga tushunolmayotgan vazir mudom unga tikilib turardi.

Buni payqagan shoir darrov gapiga oydinlik kiritishga o'tdi:

-Agar boshqa bir tashvish tug'ilmaganda sizning qimmatli vaqtingizni olishga jazm etmagan bo'lur erdik.

-Tortinmay so'zlayver.-deya dalda berdi vazir.

-Eng yaxshi sangtaroshimiz bo'lmish yigit o'sha qizga ko'ngil qo'ygan ekan. Hozir u juda bezovta. Qizni izlab ketib qoladimi degan hadikdamen..

-Agar yo'qolganiga shuncha kun bo'lgan bo'lsa, o'g'irlashgani aniq. -Vazir biroz xayolga tolgach, dedi,-Biroq senga yordam bermoqqa ojizmen. Boisi ulug' Sultonimiz tez kunlarda ulkan yurish rejasini tuzganlar. Illo bir ojizani deb bu rejaga dahl etolmaymen.

Umar Xayyom shu bilan suhbatga yakun yasalganini tushundi. Ulug' vazirning bu oshkora tushuntirishidan so'ngra biron narsa deyish odobsizlik sanalishi aniq edi. U Nizom ul-Mulk bilan xayrlashib, rasadxona sari qaytarkan, Mahmudni o'ylandi. Bechora yigit shu bir hafta ichida xarob bir ahvolga tushdi qoldi. Na bir tuzukroq ovqat yeydi, na bir ishida unum bo'ladi. Shoir yigitga dil-dildan achinarkan, uni ilk bor uchratgan paytini esladi...

Ikkinchi bob

Buxorodan Isfahon sari borayotgan karvonning yo'lga chiqqaniga ikki haftadan oshgandi. Bir maromda yo'rg'alab borguvchi karvon Buxoro saltanatidan chiqib, allaqachon azim Jayhundan kechib, Xuroson bag'ridagi qumloq dashtlar oralab o'tar, mudom

davom etayotgan cho'lu dashtlar nigohlarni toliqtirar darajada adog'siz ko'rinardi. Bu adog'sizlik shundayin tamsilga munosib keladiki-go'yo ulkan ajdahoning qiya ochilgan og'zi asta-sekin baralla ochilayotgandek va mana-mana borliqni yutib yuboradigandek tuyulardi. Odamzotning ibtidosi kabi qadim va shuningdek, asrorga yo'g'rilgan hamda faylasufning o'yi misol cho'zilgandan-cho'zilgan cho'llar ham bahorda jonlana boshlaydi. Qibla yoqdan muntazam esib turguvchi, hali peshini yig'ishtirib ulgurmagani qishning qaqshagan tunlarida bisyor yaxlagan va buning ustiga tap-taqir cho'lda o'zini qayerga qo'yishni bilmay gir-gir aylanib, sho'xlangan shamol tanlarga muz kabi uriladi. Ammo ilk ko'klamning bu sovuq shamolida ham yoqimli bir bo'y borki, u dimoqlarni huzurbaxsh siypalaydi. Ehtimol shamoldagi bu xushbo'ylik cho'lining u yer-bu yerida nish urayotgan sahroyi giyohlar va yoxud endi-endi jonlana boshlagan cho'li malikning bahoriy nafasidir. Balki sarkash shamollar bu yoqimli islarni tog'u toshlardagi ertaroq uyg'ongan gulu chechaklar yoxud obod kentlarning gulzoru bo'stonlaridan olib qochib kelgandirlar. Ne bo'lganda ham odamzot nazdida yovuzlik, balo-yu ofat timsoliga aylanib qolgan bu cho'llar ayni damda hayotga tashna bir mavjudotni eslatardi. Balki bu yoz jazirasiga asos solib, borki jonzotu nabobotni o'z otash qozonida qovurgan bobo Quyoshning zaminga ajib iliqlik bilan boqayotganligidandir.

Dashtning bag'ridan o'tib, hov uzoqlarda qum barxanlar yelkasiga opichgan ilonizi yo'lning tusi cho'lining boshqa yerlaridagi rangdan xiyol o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Bu yo'ldan asta-asta yo'rtayotgan karvon yuqoridan qaragan ko'zga o'z o'ljasini poylab sudralayotgan ulkan ilondek ko'rinadi. Karvon asosan yuzlab tuyalardan iborat, lekin tuyoqlari yo'g'on bir necha o'nlab otlar ham borki, ularda qurollangan sarbozlar -karvon soqchilari boradilar. Tuyalar aksari qo'sh o'rkachli bo'lib, o'rkachlari orasidan ikki yonboshiga osilgan zil-zambil yuklar ularning odimlariga monand lo'killaydi. Ot va tuyalarning goho-goho pishqirishi, sarbozlarning bir-birlariga baland ovozdagi gapirishlari, kimlarningdir xirgoyilari, qurol-yarog'larning shaqir-shuqurlari karvon qo'ng'iroqlarining umidbaxsh tovushlariga qo'shilib, karvonga xos ko'xna umum bir sasni vujudga keltiradi. Qo'ng'iroq ovozi yopingan bu sas uzoq-uzoqlardan ham eshitaladi va karvon kelayotganidan olis-olislariga ishonchli xabar beradi. Xayyomning ikki tuyasi va bir (o'zi mingan ot bilan ikkita) oti karvonning boshrog'ida-karvonboshining tuyalariga baqamti joylashgandi. Buxoro qozikalonining nomidan karvonga qo'shilgan shoirni karvonboshi o'ziga yaqinroq joylashtirishni lozim topdi. Har holda Buxoro qozikalonidan Isfahondagi vaziri a'zam dargohiga borayotgan bu zot sag'ir odam bo'lmasa kerak, degan andishaga bordi. Qolaversa, hordiq paytlari tilla-yu kumush va molu matohdan boshqa gapni bilmaydigan karvonning asosini tashkil etgan savdogarlardan ko'ra kitob ko'rgan, aytishlaricha, zaminu samo ilmini bilguvchi olim zot bilan suhbat qurmoqni afzal bildi. Har tugul uzundan-uzoq safarni zerikmayroq qaritmoqni umid qildi. Shul bois, yotish-turishi-yu yemoq-ichmog'i ham Xayyom bilan birga bo'lib qoldi. Karvonboshining xizmatkorlari xojasining istagiga binoan Xayyomga ham xizmat qila boshladilar. Ayniqsa, olov yoqib, ovqat pishirish, tuya va otlarga yem-xashak berish, nihoyat karvonboshining issiq-sovug'idan xabardor bo'lib turishda sidqidil zahmat chekayotgan savlatli yigit shoirning e'tiborini tortdi. U juda gavdali edi. Jag' suyaklari keng, turtib chiqqan, bo'z choponi yashirgan yelkalari ulug'vor, bilaklari yo'g'on edi. Bundan bir-ikki kun burun bo'lib o'tgan voqea bu yigitning nihoyatda baquvvat ekanligini ham namoyish etdi. Hshanda kech kirib, karvon istirohat uchun to'xtadi. Bunday paytda taomilga binoan tuyalar cho'ktirilib, ularning ustidagi yuklar ham tushirib qo'yilar va jonivorlar shu tariqa dam oldiriladi. Xayyomning zil-zambil kitoblari ortilgan tuyalari ham cho'ktirildi va u yuklarni tushirish niyatida harakat qilayotgan bir paytda haligi yigit paydo bo'ldi. Ikki-uch odam bazo'r ko'targuvchi yukni dast ko'tardi-da, yerga qo'ydi. Uning bu ishidan hayratlanganday bo'lgan tuyalar ham pishqirib yuborganday tuyuldi. Ana o'shanda Xayyom bu yigitga e'tibor berdi va mavridi bilan uni savolga tutdi.

Bu yigit asli Keshning turkiy urug'laridan bo'lib, ismi Mahmud ekan. Buxoroda ilm olmasa-da, kasb-hunar o'rganibdi. Nihoyat Buxoro mulkidan fayzu barokat ko'tarilayotganini sezib, ham ahli hunarmand qudratli Saljuqiylarning bosh kenti Isfahon sari intilayotganini eshitib, o'sha yoqqa bormoqni ixtiyor etibdi. Buxoroda hunarmandlarning tirikchiligi tang bir ahvolga kelgan, boisi hech qanday qurilish-bunyodkorlik ishlari olib borilmasdi. Ehtimol bu ko'hna zamin hukmdorlari shundoqqina yonboshlarida dunyoni larzaga solib turgan saljuqlar xavfidan hadiksirab, yoyinki jonlari ko'zlariga ko'rinib, bundayin ezgu ishlarga xafsalari kelmayotgandir. Nima bo'lganda ham qadim Buxorodan qo'r-qut ko'tarilib ulgurgan va bu shaharda hunarmandlarning kamayib borayotganida ham ko'rinardi.

Isfahon esa buyuk saljuqiylar saltanatining dorulsaltanati, ulug' Sulton Malikshoh orzusiga ko'ra jumlai olam poytaxtiga aylangulik shahar. U yerda ko'pdan-ko'p binolar, masjid, madrasalar barpo etilmoqda. Demak, u yoqlarda mehnatkash har qanday qo'l quruq qolmasligi, tishga botgulik yemish topmog'i tayin. Buxoroda sangtashlikni o'rganib, ustasining duosini olgan yigit ana shunday o'y-xayollar bilan mablag'i yo'qligi sababli karvon egasiga xizmatga yollanib, Isfahon sari borardi.

Xayyom o'z baxtini izlagan bu zahmatkash yigitga boqarkan, dunyoning ajab savdolarini o'ylay ketdi. Rizqining bilaklari kuchi ila topib, bir navi kun ko'rayotgan, o'zi omi ersa-da, shoirning nazdida, go'zal qalbning sohibi bo'lmish bu yigit ham Mahmud va dunyoni zir titratib, ne-ne tillo boshlarni chopib, qancha-qancha javohir kitoblarni yoqqan sulton Faznaviy ham Mahmud. Ul johil podshoh behisob odamlarning rizqini qiyib, ularning umrlariga zomin bo'lib yashadi, go'yo ko'k toqiga ustun bo'lguday tutdi o'zini. Yaratganning adolatini qarangi, o'shal sohibi qudrat ham tuproqqa qorishdi. Bu Mahmud esa oddiy bir kambag'al, rizqidan ortig'ini da'vo qilmaguvchi oqko'ngil hunarmand. Kun kelib u ham barcha qatori tuproqning bag'riga qaytadi. Va'da qilingan hisob-kitob esa barcha uchun barobar. Shoirning boshida yangi satrlar g'imirlay boshladi:

Kulol do'koniga kirdim bir safar,
Dastgohda ishlardi usta ko'zagar,
Gado qo'lidanu shohning boshidan
Ko'zaning bo'yini-yu dastasin yasar.

Vo darig'! Olam oqib borar odamni oqizib. Agar shu osmon yoxud tun va kun bo'lmasa, umr ham xuddi mana shu cho'lu dashtlar yanglig' cheksiz-chegarasiz tuyuladi. Balki Ollohning hikmati ham shundadirki- u odamga o'z umrini o'zi hisob-kitob qilishligini amr etgandir. Mana umr, uni xohla kunga yoz, xohla tunga...

Xayyom atrofga o'ychan boqarkan, umri mana shunday safarlarda, odamlarning hikoyalari qaraganda sarson-sargardonlikda o'tgan g'oyibona ustoz Abu Ali ibn Sinoni esladi. U bu ulug' olimni o'zgacha bir mehr, o'zgacha bir ehtirom ila yod etardi. Chunki Xayyom dong'i yetti iqlimga ketgan ana o'sha olimning kitoblari ta'sirida ulg'aygandi, voyaga yetgandi. Hatto uning ba'zi asarlarini yoddan bilar, quvvai hofizasining kuchliligidan qaysi bob qaysi sahifada joylashganigacha aytib bera olardi. Ayniqsa, tabobatga

oid asarlarining mutolaasiga o'smirlik yillarining katta bir qismini sarflagandiki, dardlarni davolashda tuzukkina mohirligi ham bor edi. Giyohlar va jonivorlarning a'zolaridan doru tayyorlab, dard quvmoq, jarohatlarni shifolamoq san'atiga ega edi. Bu xislatlarga g'oyibona peshini tutmish ustoz Ibn Sinoning kitoblari orqali erishgandi. Lekin u o'zining bu hunarini ko'pda oshkor qilavermas, zaruriy holat paydo bo'lsagina qo'llardi. Xayyom, shuningdek, Ibn Sinoning falsafiy qarashlarini o'ziga yaqin olardi...

Bu karvon odatdagidan ancha katta edi. Boisi buyuk saljuqlarning hujumidan titragan Buxoro hoqoni Shamsul Mulkning joni ko'ziga ko'rinib qolgandi. U maxsus karvon yollab yuzlab tuyalarga oltin javohir, qorako'lu shoyilar to'la sandiqlarni yuklab, o'z elchilari bilan Malikshoh huzuriga yo'llagandi. Ajabmaski shu bilan bir necha yil jon saqlab olsa.

Shoir miyasida aylangan haligi satrlar ta'sirida ko'ksini to'ldirib bir nafas oldi-da, keskin qaytarib chiqardi. Ko'zlarini xiyol qisib, atrofga nazar soldi. Shom yaqinlashmoqda edi. Karvonboshi mana-mana buyruq berib karvonni to'xtatadi, so'ng namozni jamoa bo'lib o'qiydilar. Aftidan shu yerda tunab ham qolishsa kerak, boisi oyoqqa tura boshlagan shamol kuchayib ketishi va tunda yurishni mushkullashtirmog'i mumkin.

Muazzin azonni aytib, karvondagilar shom namozini o'qimoqqa yig'ilganlarida, soqchilar boshlig'i tungi qo'riqlash joylarini belgilay boshladi. Xizmatkorlar esa o'z xo'jayinlarining yuklariga yaqin joylarga olov yoqishib, kechki ovqatni hozirlamoqqa tushdilar...

Namozni tugatgach, har kim o'z olovi atrofida tanavvul qildilar. Taomdan keyin karvonboshi soqchilar boshlig'ini alohida chorlab, topshiriqlar berdi. Qorovullar xushyor turishligini, imkon qadar olovlarni o'chirmaslikni tayinladi. Chunki mish-mishlarga qaraganda, bu yerlarda sher to'dalari izg'ib qolganmish va karvonlarga hujum qilayotganmish. Karvonboshi hali biron marta hech yo'q bironta sherni ko'rmagan bo'lsa-da, ehtiyot bo'lishlikni lozim topdi. Haytovur o'sha uzun quloq gaplar haqiqat bo'lsa, g'afat balosidan Ollohning o'zi asrasin. Uning ustiga bu maxsus karvon. Unda Buxoro hukmdorining jon rishtasi, to'g'rirog'i, raddi balosi, Malikshoh Saljuqiyning esa ko'rinmas nazari bor. Bu nazar ayni kunlarda dunyoning to'rt burjini ko'rmoqqa qodir.

Karvonboshi ana shularni ham e'tiborga olib xizmatga zo'r bermoqda edi. Umrining asosiy qismi mana shu sahroyi yo'llarda kechgan karvonboshi uchun har bir nimarsaning, har bir hodisotning zarradin kabiri qadar hisob-kitob etmoq odat edi. Ehtimol shuning uchundirki, savdogarlar va umuman safarni ixtiyor etganlar orasida uning obro'si baland edi... U o'z vazifalarini bajarib bo'lgach, ertaroq uyqaga yotdi.

Xayyom mudom boyagi o'y-xayollar ta'sirida bo'lganligi uchunmi, olov qoshida ancha o'tirdi. Idish-ayog'u dasturxonni yig'ishtirib qaytgan Mahmud ham olovni kovlash va kuchaytirish bahonasida unga hamroh bo'ldi. Andishada biroz o'tirgach, jur'at qilib shoirni savolga tutdi:

-Hazratim vaziri a'zamning qanotiga borayotgan emishlar?-dedi iloji boricha ovozi ko'tarmaslikka urinib.

Xayyom olovga tikilib o'tirardi va Mahmudning so'rovidan keyin ham holatini o'zgartirmadi. Olovga termularkan, ehtimol ro'parasidagi sodda yigitning samimiyatga yo'g'rilgan ovozi ta'siridanmi, balki boshqa sababdanmi, butun vujudi jimirlab, go'yo ichidan nimadir chiqayotganday, o'zini ikkiga ajralayotganday his qildi.

-Men senga hazrat bo'ldimmi? -dedi beozor ta'na ila va shu gapi ortidan haligi holatidan mosuvo bo'ldi.

Mahmud beodoblik qilib qo'ydim shekilli deya o'ylab, bezovtalandi, o'zining avbosh (bebosh) komi (istagi)dan taassuf qildi. Biroq hali uning xafsalasi pir bo'lib ulgurmay, o'z hazilining noxush oqibatini bartaraf etishga shoshilgan Xayyomning taskinlovchi ovozi eshitildi:

-Hg'izlarda o'zidan yoshi ulug'larni ne deb e'zoz etadilar?

Mahmud shoirning olov shu'lasida yaltiragan ko'zlariga maqsadi ne ekan, degandek hadiksirab boqarkan, xiyol cho'zib dedi:

-Og'oyi derlar.

-Unda meni shunday atay qol.

Soddadil o'g'iz yigiti Xayyomning murodini dabdurustdan angalayolmay tek qotdi, so'ng ko'zlari chaqnab, baquvvat yirik tishlarini ko'rsatib, jilmayarkan, o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, bosh egdi.

Xayyom ham bosh silkib, uning haligi savoliga qaytdi:

-Filhaqiqat, vaziri a'zam Nizom ul-Mulk janoblarining dargohlariga bormoqdamen.

-Meni ham o'z xizmatigizga olsangiz, har ne yumush bo'lsa bo'yin tovlamasdim.

Shoir "inshoolloh" deb qo'ydi-da, hordiq olmoqqa shaylandi. Karvonboshining o'ng yonboshidagi bistar (to'shak) ustiga cho'zilib, jundan to'qilgan yopinchig'iga burkandi...

Olamni buzguday faryoddan cho'chib uyg'onib ketdi. Ko'zlarini ochdi-yu yonboshida to'lg'onayotgan karvonboshini ko'rdi. U chap qo'lini bag'riga bosganicha "Ilon! Ilon!" deya dodlardi. Xayyom irg'ib o'rmidan turdi-da, bir siltanib karvonboshiga yetdi va uning so'l bilagidan tutarkan, olov boshida nima qilishini bilmay garangsib turgan Mahmudga hayqirdi:

-Yorug' keltir!..

Mahmud olov ichidagi eng baralla yonayotgan saksovl shoxini sug'urib olib, bir irg'ib Xayyom ustiga keldi-da, karvonboshining bilagiga yorug' tutdi. Uning bilagidagi qon sizgan jarohatni ko'rgan shoir tabobatdan boxabarligi bois sarosimaga tushmadi, nihoyatda tezlikda karvonboshining belbog'ini yechib, tirsagining yuqorisidan qisib bog'ladi. So'ng hamon talvasaga tushayotgan karvonboshining bilagini ikki qo'llab mahkam tutib, jarohatiga lab bosdi. Uni qattiq-qattiq so'rib, yonboshiga tuflayverdi. Oxirgi ko'rishlarida karvonboshi kuchliroq ingradi. Xayyom o'z nazdidagi jarohatdagi zaharni so'rib tashlagach, bir-ikki tomoq qirib, ketma-ket tufladi-da, Mahmudning qo'lidagi miltirab yonayotgan saksovl shoxini shitob tortib oldi va unga buyurdi:

-Bos!..

Mahmud uning gapini tushungan bo'lsa-da xo'jayinini bosishga haddi sig'madimi yoki qayerini bosishni o'yladimi, tek turib qoldi.

-Yelkasidan bos deymani!.. -deya do'q urdi Xayyom betoqatlanib.

Mahmud xo'jayinining ko'kragiga o'ng tizzasini qo'yib, ikki qo'li ila ikki oyog'ini bosdi. Xayyom esa karvonboshining o'ng qo'lini tizzasi ostiga olib, chap ilki ila jarohatli qo'lini mahkam yerga tirab, qip-qizil cho'g'ni ilon chaqqan joyga bosdi. Karvonboshining tanasi jizillab kuydi, atrofga qo'lansa hid taraldi. U og'riq dahshatida bir-ikki kuchanib siltandi, oh urdi, biroq zabardast Mahmudning changalidan xalos bo'lolmadi. Ana o'sha zo'riqishlar asnosida xushidan ayrilib, jimib qoldi.

Xayyom xurjunidan turli giyoh va jonivorlarning a'zolaridan tayyorlangan malhamni olib, xushsiz karvonboshining jarohatiga surdi-da, bog'lab qo'ydi. So'ng joyiga yaxshilab yotqizarkan, uning yuzidagi terlarni artib, ustini yopdi va Mahmudga dedi:

-Ertalabgacha istimalaydi. Ora-sira ichirgali xapdor tayyorlab berurmen. Inshoolloh, tuzalib ketgay?!

Xayyom shundagina atrofga e'tibor qildi-ularni karvonboshining faryodidan uyg'onib ketgan odamlar o'rab turishardi.

-Bu bahoriy ayozda ilon inidan chiqmasligi joiz erdi. Fikrimcha, oxirgi tunagan karvonсарoyimizda yuklarning ichiga kirib olgan

bo'lsami.-deb qo'ydi shoir o'ziga o'zi gapirayotganday va Mahmudga qayrildi. -Ertalab jamiki yuklarni bir bor ko'zdan kechirmoq lozim. Ul mori gazanda uzoqqa ketmagan chiqar.

Uchinchi bob

Mahmudning g'oyib bo'lganidan xabar topgach, Xayyom uning ortga qaytmasligiga, rasadxona esa bir mohir sangtaroshdan judo bo'lganligiga ishonadi. Chunki u Mahmudning fe'lini juda yaxshi bilardi. U qaysar va jasur edi, do'stu yor uchun jonu tanidan kechmoqqa qodir edi. Suyuklisi go'zal Rayhona uchun esa o'shal jonu tandan ortig'ini ham baxshida qilmog'i mumkin edi. Uning fe'li shunday edi, fe'li esa Oллоhdan. Mag'rib Mashriqqa og'ib, Jayhun Sayhunga quyilishi mumkindir, vale Odam alayhissalom farzandlarining fe'li evrilibdi desalar, shoir aslo ishonmag'ay. Demakki, Mahmud sangtarosh ham o'z yorining hech qursa izini, joizki, o'lik yoxud tirigini ko'rmaguncha qo'ymas. Xayyom undan butkul umidini uzdi. Shul bois panjshanba subhida bosh bozorga bormoqni, rasadxona uchun asbob-anjom va turfa xil bo'yoqlar xarid qilmoqni ixtiyor etdi. Bahonada yo'liqsa, qurilish uchun bir-ikki xizmatgar hamda bilgichroq sangtarosh yollamoq ham niyati bor edi.

Ertalab Xayyom, yosh munajjim Abul Muzaffar al Isfazariy, rasadxona korfarmosi (ishboshisi) otda va ikki chuhra (xizmatkor, g'ulom) arobada bozor sari yo'l oldilar.

Isfahonda bir necha bozorlar mavjud edi-katta-kichik, hatto ba'zilari ma'lum biron nimarsa nomi bilan ham atalguvchi edi. Eng katta bozor esa shaharning rasadxonaga qarama- qarshi tomonida joylashgandi. Unga yetmoq uchun masjidu madrasa, Sulton saroyi va shohmaydonni yonlab o'tmoq joiz edi. Shahristonning ko'chalariga tekis qilib tosh yotqizilgan, ikki yonida esa ajib bir did va reja ila ikki qavatli do'konlar bino etilgandi. Ularning pastki qavatli savdo-sotiq uchun bo'lsa, yuqori qismi mol saqlamoq, ba'zilarga hatto yotib-turmoq hayot kechirmoq uchun xizmat qilardi. Do'konlar oldidan kichikroq ariq o'tgan bo'lib, uning ikki chetiga sarv va sapidor (terak)lar oralatib o'tqazilgan, ularning ostiga esa turli gullar ekilgandi. Shahar ahli koriz (er osti quvur) lardan oqib kirguvchi ana o'sha ariqlardan suv ichardi. Isfahon tarix sahifalarida bejiz "Yashil shahar", "Gul shahar" deya nom qoldirmagandi. Ayni damda daraxtlar barg chiqarmagan. Yalang'och, gullar ham hali g'unchalamagan bo'lsa-da, shaharning bir oy o'tgandan keyingi husnu jamolini tasavvurga keltirish qiyin emasdi.

Darhaqiqat, shahri azim Isfahon buyuk saltanatning dorulsaltanati o'laroq bisyor orasta, pokiza va muhtasham edi. Shuningdek, shaharda bahoriy bir uyg'onish kezmoqda ediki, goho-goho ko'klamga xos yumushlar ila band bo'lgan kishilar ham ko'zga tashlanardi. Boz ustiga undagi sahari osudalik qulog'u ko'ngillarga xush yoqsa, bir maromda "taq-tuq" qilayotgan ot tuyoqlari bo'lmasa-da, arobaning g'iytillashi va g'ildiraklarining tosh yo'lda aylanishidan chiqqan ovoz kishiga xiyol noxush tuyulardi. Bu ayniqsa, ayni damda ko'ngli sabuhiy na-siymlar yanglig' musaffo va jazbali bo'lgan Xayyomga o'zgacha ta'sir etar, yanaki bu mutaassirlik ortidan "balki bozorga bormaganim durustmidi", deya nadomat ham qilib qo'yardi. U o'z mavqei va xizmat burchiga binoan bozorga bormasa ham, xarid xususida korfarmoga amr etsa ham bo'lardi. Vale o'zi xo'p va ko'p mehr baxsh etgan rasadxonaga sangtarosh yoki oddiy bo'yoqchi qiyofasida qandayin odam kelishidan tashvishga tushardik. Shoir bu andisha ila avvalo o'z ko'nglini ehtiyot qilsa, shu kabi, rasadxona ahli orasida ftina-yu noahillik paydo bo'lmog'idan ham saqlanardi. Bundan tashqari, u savdo-sotiqni, to'g'rirog'i, bozorni mutlaqo xush ko'rmas, unga kirdi nafasi bo'g'ilib, ko'ksida og'ir bir tosh bino bo'lgandek tuyulaverardi. Bozor ahliga boqib, biron so'z demoqqa mayli ham, xohishi ham qolmasdi. Bu mol bozoridagi oldi-sotti avjiga mingan bir paytda ahli bozorga qarata she'r aytmoq bilan barobar edi. Illo shu fe'li ila ham uning bozorga bormoqdan tiyilmaganligi muddaosining chandon muhimligidan dalolat edi.

Bozor qoshida ot-ulovlarni qoldirish uchun maxsus manzil mavjud edi. Ular ham aroba va otlarni o'sha yerda omonat qildilar. Bozorning bosh darvozasidan so'l tarafga yurilsa, meva-cheva, sabzavot va kapon rastalariga o'tilardi. To'g'riga borilsa, bazzozlik do'konlari bo'lib, turfa rangdagi matolar yoyib tashlangandi. Filhaqiqat, Isfahon o'zining shoyi va paxtadan tayyorlangan gazlamalari bilan mashhur edi. Bu borada poytaxt hunarmandlari ancha nomdor edilar. Shuningdek, matolarga gul bosish san'ati ham bu yerda o'zgacha darajotga yetgan ediki, Isfahon gazlamalari guli hamda bo'yoqlarining tiniqligi va turfaligi bilan ajralib turardi. Dorulsaltanatda bo'yoq tayyorlash, teri oshlash, kitobotchilik hunarlari ham bisyor rivoj topgan edi. Hsha bozzozlik rastalarining adog'ida bo'yoq tayyorlovchilar, ko'nchilar va kitobdor ustolarning do'konlari qatorasiga qurilgandi. Bozorning bu qismlari ham juda gavjum edi.

Hng tomonda esa eshiksozlik, beshiksozlik, kulolchilik, temirchilik, naddoflik (ip yigirish) kabi rastalar joylashgandi. Bu qism xiyla shovqin-suron, yanada aniqrog'i, taqir-tuqirdan iborat tovushlarga makon edi. Mazkur rastalarning oxiridagi maydonda ish izlagan hunarmandlar, mardikorlar va hatto darveshu gadoylar joy olishardi. Bu yerda ham baqir-chaqir yetarli edi.

Shoir hamrohlarini o'ng tarafga boshladi. Niyati-eng avvalo usta bir sangtaroshni yollamoq edi. Rastalar yonlab borarkanlar, yosh Isfazariy shoirning yuzida iztirobmi, ma'sum ko'nglidan oqqan ozormi aks etganini ko'rib, uni biroz andarmon etgisi keldi.

Yaqinginda Isfahon Nizomiyasini xatm qilib, ustozlari tavsiyasiga binoan rasadxonaga, Xayyom huzuriga kelgan bu olim yigit ilmi nujum hamda ilmi riyozatda bilgich edi. Shu bois tez orada Xayyomning hurmatiga, e'tiboriga musharraf bo'ldi. Shu bilan birga, Isfazariyning biroz shumligi, sho'xligi ham mavjud bo'lib, vaqti-vaqti bilan kishini mutoyibaga chorlamoq oyini (odati) bor edi. Xuddi shu fe'li goho shoirga xush kelar va aksariyat hollarda uning beozor sho'xlilari g'ashnok qalbini tarabnok (xursand) etardi.

-Ustoz,-dedi Isfazariy ovozigga sho'xlik bag'ishlab,-Olloh taboraka taologa hunarmandlar yovuqroqmi yoxud olimlar?

Xayyomning tundlashgan yuzida tabassumga moyillik paydo bo'ldi. Isfazariyga ko'z qirini tashlarkan,

-Ko'ngil yovuqroq. Illo banda o'z egasini qalbida kashf etmay turib, unga yaqinlasholmaydi.-dedi shunchaki so'zlayotganday. Bir muddat jim borgach, qo'shib qo'ydi:

Olloh bu dunyoi bozorga boqib, bandalarining nafs junbushidan yoqa tutgan chiqar. Bir-ikkisining orasinda biz shunchalikmiz, barchasidin ogoh zot ne ko'yda ekan?

Isfazariy mamnun jilmaydi- mana, endi haqiqiy ustoziga o'xshadi, uning mutoyibali so'ziga mos so'z aytdi.

Xayyom hali yosh, yanaki boshkentga kelganiga endigina ikki yil bo'lgandi. Shul bois uni hali ko'pchilik tanib ulgurmagan, xalq orasida unchalar shuhrat topmagandi. Hozir ular rastalar yoqalab borar ekanlar, ora-sira berilgan salomlarga alik olardilar. Shoirni tanigan kishilar esa yonidagilarga ma'noli qarab qo'yishar yoki unga tavoze ila salom bergach, "sizni tanib qoldim", deganday bosh qimirlatishardi. Yoshroq, ilmpesharoqlari esa bir-birlariga "Xayyom hazratlari, Xayyom hazratlari", deya shivirlashardi. Lekin bu kabi siylov-so'rashuvlar sezilmas darajada siyrak bo'lib o'tardi.

Rastalar adog'idagi maydonga chiqdilar. Bu yer yanada g'ala-g'ovurga to'la edi. Ayniqsa, maydonning so'l yonidagi janda kiygan darveshlarning ovozi boshqa tovushlarni bosib ketadi...

O'ng tomonda, maydonning chetida o'tirgancha nimalarnidir ming'irlayotgan odam Xayyomning e'tiborini tortdi. U bir paytlar kulrang bo'lgan, lekin hozir o'ngib ketganidan tusini ham anglab bo'lmas holatda kirlagan choponi ustidan eski belbog' bog'lab, unga mul (may) uchun ayoq (idish, xumcha) ilib olgandi. Boshida quloh, sochi, mosh-guruch soqoli o'siq, kirlagan edi. Bo'y-basti pakanaga monand, yuzi dumaloq, ko'zlari suzilib boqadi.

Shoir unga yovuq keldi. Bozor shovqinidan uning ming'irlashini ajratmoqqa urinib, diqqatini jamladi. Nafaqat olatasir bozorni, balki butun olamni unutgan bu odam she'r o'qirdi. Bir payt u Xayyomning nigohini sezdimi yoxud boshqa vajhdanmi, shahd boshini ko'tardi-da, darvishlar tomonga qarab she'r o'qiy ketdi. Uning ovozi biroz xirqirab chiqar, biroq devona bir kayfiyatga yo'g'rilgani bois yoqimli eshitilardi:

Mug'ona bodadin mast bo'lsam bordur,
Oshiqu rind, budparast bo'lsam bordur.
Har kim meni har xil gumon qiladi,
Qandayligim faqat menga oshkordur.

Darvishlarning ba'zi g'ofilroqlari, unga ola qarash qilib, "astag'furilloh!" deya na'ra tortdilar.

Xayyom g'alati bo'lib ketdi. Avvallari bo'lganidek butun vujudi titrab, ichidan bir narsa sidirilib chiqayotgandek tuyuldi. Shundayin bir jazba ila yoqasin chok, jismini pora etib, faryod urmoq istadi. U go'yo ikkiga ayrilmoqda edi. Biroq ro'baro'sidagi odamning ko'zlariga yo'liqqan birinchi bo'lagi uni faryoddan to'xtatdi. Hqilgan ruboiy Xayyomniki edi.

-Kimsiz?-so'rdi u ovozi titrab.

-Bir mulparastmen?-dedi haligi odam yelkalarini silkitib. Uning oqshaygan yelkalariga boqib hammolligini fahmlagan shoir yana so'roqqa tutdi:

-Qayerdانسiz?

-Ollohdin!..

Bu javobni eshitgan Xayyom har doim berilguvchi savolning ikkinchi qismini tiliga chiqarmoqdan tiyildi. Chunki hammolning javobi qandoq bo'lishini anglab yetdi. Shuning uchun ismini so'rab qo'ya qoldi.

-Yusuf derlar meni.-dedi u hirqiroq ovoz ila.

-Rasadxonaga chorlasam borurmisiz?

Yusuf shoirga qattiqroq tikildi.

-Vo-oh!-deb yubordi u oh urib, -Xayyom hazratlarining diydorig'a musharraf bo'ldimmu, yo, Olloh!.. Axir endigina sizning o'tlig' satrlaringizni o'qimagan edimmi! - Tavoze ila kelib, mehnatdan qadoqlangan, egri-bugri barmoqli qo'llarini shoirga uzatdi.

-Assalomu alaykum, yo, zoti sharif!..

Shoir ham qo'sh qo'llab ko'rishdi.

-Bir umr oshiyoningiz gardin aritsam shodmen.-deya bosh egdi Yusuf ehtiros ila.

Shoir uning so'zlaridan va ayniqsa, ulardagi ehtirosdan mutaassir bo'ldi.

Ular Yusufni ergashtirib so'l yoqqa yurdilar. Darvishlar yonidan o'tib, ayiq o'ynatayotgan odamga ro'baro' keldilar.

Ayiq o'ynatuvchi juda basavlat bo'lib, qalin soqol-mo'ylovi malla tusli, ko'zlari moviy edi. U musulmoncha kiyinib olgan bo'lsa-da, aft-angori musulimga o'xshamasdi. Biroq belida zunnori (musulmon bo'lmaganlar bog'lab yuruvchi chilvir) yo'q, demak, muslim. U chap ilkida ayiq bog'langan zanjirni tutib, o'ng ilki ila turli harakatlar qilar va ayiqqa shunga monand har xil buyruqlar berib, uni idora etardi. Aslida qo'ng'ir tusli bo'lgan ayiq ayni damda kir-chirligidan to'q kulrang holga kelgan, junlari gadoning juldur choponi yanglig' ko'rinaridi. U ozib-to'zib ketgan, biroq aslida bahaybat bo'lganidan yirik ustixonlari turtib chiqqan va shul boismi, vajohatli tuyulardi. Lekin egasining buyruqlarini ikki oyoqlab turgancha itoatkorona bajarishidan birovga ozor yetkazmasligini anglash mumkin edi. U maymoqligi yetmaganday yana ajabtovur qiliqlar qilib, atrofdagi tomoshabinlarning zavqini keltirib, kulgusini qistatardi.

Xayyom ham zavq ila unga tikilib qoldi. Uning zavqini anglagan Yusuf o'zgalarga eshittirmaslikka urinib, asta so'z qotdi:

-U olis shimol yurtidan bo'lur, nomini o'rus derlar. Isfahonda yaqinda paydo bo'lmish. Ilkidin kelmay-durg'on yumush yo'q ko'rinaridur.

Surishtirgach, bildilarki, uning oti asli Mixail ekan, Islom dinini qabul qilgach, Mikoil deb o'zgartiribdi. Turkiy va forsiyda zahmatsiz so'zlashmoqqa qodir, Yusuf aytmoqchi, ko'p hunarlar sohibi, jumladan, sangtaroshlik, naqqoshlik borasida ham ustoligi bor ekan. Shoir uni ham ishga yolladi...

To'rtinchi bob

Rasadxona hovlisi xiyla keng edi. Sahniga tosh yotqizilib, ixotalangan aylanalar ichiga mevali daraxtlar va gullar ekilgan. Ikki yondagi ikki qavatli g'ishtin binolar turli hajmdagi oshyonalardan (xonalardan) iborat, barcha oshyonalarning eshiklari rasadxona hovlisiga qaragan. Hngdagi binoning ikkinchi qavatidagi bir necha xonalardan iborat eng katta oshyonaga Umar Xayyom joylashgan bo'lib, unda sohib devon (bosh vazir) shoirga in'om etgan bir kanizak ham istiqomat qiladi. Xayyomning ikki yonida hamda so'ldagi binoning ikkinchi qavatidagi kichikroq oshyonalarda esa munajjimlar-Abul Muzaffar al Isfazariy, Maymun ibn Najib al Vositiy va boshqa olimu tolibi ilmlar qo'nim topmishlar. Pastdagi hujralarda bo'lsa, rasadxonaning korfarmo boshliq xizmatchilari, qurilishda mehnat qilayotgan hunarmandlar, chuhra va boshqalar yashaydilar. Htinxona, qozonu o'choq va omborxonaga ham o'sha yerda joylashgan.

har ikki tarafdagi bu binolar ro'paradagi bosh binoga ulanib ketgan. Rasadxonaning asosiy binosi ham ikki qavatli bo'lib, tog' toshlaridan bunyod etilmoqda edi. Uning birinchi qavati bitkazilib, ish ikkinchi qavatda davom etardi. Bu bino Xayyomning tarxi asosida bunyod etilar, uning ikkinchi qavatida ulkan bir xosxona barpo etmoqqa kirishilgandi. Bu xosxonadagi ishlar nihoyasiga yetgach, unda Xayyomning rejasiga asosan ilmga xizmat qiluvchi mo'jizalar tiklanishi mo'ljallanmoqda edi. Rasadxona binosining har ikki qavatidagi boshqa xonalarda buyuk saljuqiylar saltanatiga dunyoning ko'plab mamlakatlaridan olib kelingan, taklif etilgan olimlar ilm ila mashg'ul bo'lishib, kuzatishlar olib borishar, hisob-kitoblar o'tkazishar, turfa tarxlar chizishib, koinot sarhadlariga yetmoqqa intilishardi. Bu ishlarning bari shaxsan Sulton Jaloliddin Malikshoh ibn Ali Arslon Saljuqiy va vaziri a'zam Abu Ali hasan ibn Ali at Tusiy-Nizom ul Mulk homiyiligida, Abul Fath Umar ibn Ibrohim Xayyom-Nishopuriy boshchiligida olib borilardi.

Shuning uchun ham jamiki yumushlar pishiq-puxta, tartib-qoida bilan bajarilar va hamisha rasadxona uzra yorqin bir nur suzib yurganday, ehtimolki, bu nur undagi kishilarning qalblariga tutashday tuyulardi. Rasadxonadagi olimlar, ilmi tolib va xizmatchilar, ayniqsa, unda olib borilayotgan yumushlar aslo moddiy taqchilikka yo'liqmasdilar. Ayonki, bu rasadxona buyuk Saljuqlar saltanatining, xususan, Sulton Malikshohning faxru iftixoriga aylanmoqda edi.

Yusuf va Mikoil o'ng tomondagi binoning birinchi qavatida-Mahmud yashagan hujraga joylashdilar. Ayiq esa Xayyomning ijozatiga binoan o'tinxonadan makon topdi.

Xayyom shom namozini o'qigach, taomlandi. Taomdan so'ngra esa kanizagi keltirgan iliq suvda qo'lini yuvib, og'zini chayqadi. Ayni paytda u ajib bir ishtiyoq ila anchadan buyon yozayotgani riyozatga, xususan, jabrga oid asarini davom ettirmoqqa o'zida rag'bat seza boshlagandi. Hychan qiyofada xontaxta yoniga o'tirib, davotni ochdi va ilkiga xomani (qamishdan tayyorlangan ruchka, qalam) oldi. Biroq xomani qog'ozga tekkizar-tekkizmas xayoli chalg'idi, haligina ko'nglida jo'sh urgan ilhom baxsh ehtiros endi uni olis xotiralar girdobiga tortdi. Ona shahri Nishopur bag'rida o'tgan bolaligi, ilmga havo yanglig' tashna bo'lgan damlari yodiga tushdi. Hshanda o'n yoshdamidi... Foyibona ustoz bo'lmish Ibn Sinoning kitoblaridan bosh ko'tarmasdi, na kun, na tunning farqiga borardi. Ilmi hisobga oid asarlarini go'yo go'zal bir doston misol o'qir, ayniqsa, bu ilm bilan endi-endi shug'ullana boshlaganligidan sehrli raqamlar o'yini uni hayratga solardi. Raqamlarning mo'jizakor bu o'yinlarini Ibn Sino ajib sodda, shuningdek, maftunkor bir yo'sinda tasvirlab bergandiki, birozgina kirishib qolgan odamni asir etardi qo'yardi.

Dunyoda faqatgina mo'zizalar kutib, unga hayrat ila boquvchi bolakay Umar uchun Shayxurraisning "Al hisob" asari ulug' bir olamga olib kirguvchi qutlug' bob (eshik) vazifasini o'tagan bo'lsa ajabmas... Xayyom asarning raqamlar xossalari haqidagi birinchi faslini esladi. Hamon ilkida turgan xoma bilan o'zga niyatda ochgan qog'ozga beixtiyor raqamlarni yoza boshladi. Mana, uni ilk bolalik chog'laridanoq asir etgan oddiygina raqamlar: 1, 2, 3, 4, 5... Raqamlarning bu turishini Ibn Sino "raqamlarning tabiiy qatori" deb belgilagandi. Ha, Xayyom biladi-sonlar bashariyat kashf etgan eng buyuk mo'zizadir. Balki olamning asosini ham shu o'ntagina raqam tashkil etar. Ularning kuch-qudrati nechog'li ekanligi faqatgina Ollohga va ularning sehru jodusini anglagan zotlargagina ayon. "har bir son yonidagi kichigi bilan kattasi yig'indisining yarmiga teng hamda o'zidan shunday teng uzoqlikdagi sonlar yig'indisining yarmiga teng". Bu Ibn Sinoning Xayyom uchun yod bo'lib ketgan so'zlari edi. Masalan, "5"ni tanlasak, Xayyom shu xayol bilan qog'ozga "5" sonini yozdi. Uning yonidagi kichigi- "4", kattasi -"6", ya'ni, $5=(4+6):2$. Huddi shuningdek, 5 dan 3 va 7, 2 va 8 ham teng uzoqlikda joylashgan, ya'ni $5=(3+7):2$... Bu esa dunyodagi hamma narsa hisob-kitobli, yanaki Buyuk Zotning hisob-kitobiga taalluqli ekanligini ko'rsatmaydimi? Raqamlar ham xuddi so'z kabi sehriga ega.

Xayyomning lablari xiyol qayrilib, yuzida mamnunlik aks etdi. Yana "Al hisob"dagi so'zlarni eslay boshladi. "har bir sonning ikki barobar uzoqlikda joylashgani o'sha sonning o'ziga teng bo'ladi". U zavq bilan tez-tez yoza boshladi: masalan, 3 ning 2 barobari 6 bo'lib, bu son 3 dan hisoblaganimizda uchinchi o'rindadir. Ya'ni $3 \cdot 2 = 6$ --- 3 --- 4, 5, 6...

Ibn Sino bu kitobini yozishda yunon olimi Uqlidus (Yevklid)ning "Ustuksot" asaridan foydalangan. Darvesh, Uqlidus yodiga tushdi. Bu olimning falsafiy qarashlari Xayyomni hamisha o'yga toldiradi. Uning isbot talab qilmaydigan "qoida"lariga (postulatlariga) mudom isbotu dalil qidiradi...

Tashqaridan kelgan g'alati ovoz shoirning xayolini bo'ldi. Uning ne sas ekanligini bilmoq ilinjida kanizakni chorladi:

-Parmuda!

-Labbay, hazratim. -Uning qarshisida nazokat ila bosh egdi kanizak.

-Ne tovush keladir hovlidan?

Parmuda o'ziga yarashgan tabassum ila jilmaydi:

-Siz keltirgan odamning haligi ulkan mahluqi na'ra tortadur, hazratim.-dedi u bosh egib.

Xayyom kanizakning so'zlaridan zavqlanib, unga g'alati qarash qildi. Shu payt ko'nglida allanuchuk sog'inch paydo bo'ldi-da, sim-sim oqayotganday teyuldi. Kipriklarining osti achishdi, o'rtandi va ichidan nimadir sidirilib chiqayotganga o'xshadi. U "yo Olloh!" deya o'rniidan turdi. Kanizakning yonidan o'tarkan, dedi:

-Boqaychi, ul mahluq ne deyur!

Parmuda yana jilmaydi.

-Sen esa meni kutgil!-deya uni uyalishga majbur etgulik qarash qildi va tashqariga chiqib ketdi.

Aslida Xayyom cho'ri tutmasdi, erandan xizmatkor saqlasa saqlardiki, kanizakni ixtiyor etmasdi. Parmudani esa yaqinda vaziri a'zam in'om etdi. Shoirning uylanmaganligi, yolg'iz istiqomat qilishi va baquvvat vujudini shunday ish tutmoqqa undadi.

Xayyomga bir she'riy ayol lozimligini payqadi, lekin bu mulohazasini unga aytmasdi-yu kanizakni izmiga topshirdi.

Xayyom tashqariga chiqib, oshyonasining eshigi ro'parasidagi naqishnkor panjara yoniga keldi. Ko'ksini to'latib nafas olarkan, cho'zib chiqarish asnosida to'lin oy ziyosida oqish ko'ringan ko'kka tikildi. Uzukning tillo ko'ziday yaltirab, ko'ngilga samoviy yengillik bag'ishlaguvchi sochqin yulduzlarga intiq termuldi. U butun umr ana o'sha samoga intilib, uni o'rganishga urinib yashadi. Bu hadsiz kengliklar siru sinoatga to'la ekanligini bilganligi uchun ham unga talpindi. Undagi mo'jizakor borliq qalbini doimo rom etib keladi...

Quyidan nayning kishi bag'rini o'rtaguvchi xazin nolasi eshitildi. Bu nola haybatli, ulug'vor va shuningdek, asrorli tunga shu qadar qorishib borardiki, quloq yoxud qalb na uni eshitardi, na tunni his qilardi. Balki tun va kuy ajib sirililikka yo'g'rilgan dil bilan uyg'unlashib borardi. Samoviy xayollar xurujidan sarmast bo'lgan shoirning butun jismu joni jimirlab, qa'ridan nimadir sidirilib chiqqa boshladi. Bu uning vujudida yashayotgan ikkinchi Xayyom edi. U tashqariga chiqdi-da, kipriklarining osti achishib, qarog'i olovlandi. Keng, suyakdor ko'ksini uzun barmoqlari bilan libosi ustidan go'yo timdalaganday siladi. Yuzi iztirobli tirishib, sog'inchli bir intilish bilan so'lga yurdi...

U hovliga tushib, nay ovozigaga intilgani sari kuy unga yovuq (yaqin) kelaverardi. Jon olg'uvchi musiqor Yusuf va Mikoil joylashgan hujradan eshitalardi. Shoir pastak eshik qoshida bir muddat turib qoldi, chunki u eshik ochilishi bilan nay ovozi tanishini his etar va shu bois uning to'xtashini istamasdi. Kuy avjiga kelib, nay eng yuqori pardada ingraganda ixtiyorsiz shiddat bilan eshikni turtib yubordi. Eshik taraqlab ochildi, zanjiri shaqirladi. Kuy uzildi. Cho'chib tushgan hamxonalar baqraygancha bir lahza qotdilar. So'ng birinchi bo'lib o'ziga kelgan Mikoil irg'ib o'rniidan turdi, qo'lida nay tutgan Yusuf sarmast bir alpozda unga ergashdi. Shoshib salom berdilar. Shoir alik olgulik holatda emasdi. Uning ko'zlari olovday yonar va o'choqda xonani ham isitib, ham yoritib yonayotgan olov bu ko'zlarga nisbatda anchayin ojizday tuyulardi. Yuzi qizarib, bo'g'riqib ketgan, qosh, ko'z ham haligi olovga qo'shilib yonardi go'yo.

-To'xtamangiz!-dedi shoir iltijoli titroq ovozda ilki ila Yusufga ishora qilib.

Uning ahvolini Mikoil anglamagan bo'lsa-da, Yusuf darhol fahmladi va shoirni to'rga- ixcham xontaxta yonidagi bo'yraga o'tqazib,

nayni labiga bosdi. Yor labiga qovushgan oshiq oh urdi go'yo. Shoir ko'zlarini yumib, kuyga monand tebrana boshladi. Hozir u hech narsani ko'rmasdi. O'choqdagi olovdan qoraygan bu tor hujra, undagi g'aribona ashyolar, haligina bozor changiga qorishib, tirikchilik ilinjida har ko'yga tushgan mana bu odamlar uning uchun farqsiz. U bularning bari bilan birga edi. U dunyoda yolg'iz edi. Bag'rida o'zi ham anglamagan ulug' bir kom to'lg'onardi...

Mikoiil qoraygan sopol piyolaga ayoqdan achimsiq hidli, arpadan tayyorlangan arzon bo'zani quyib, Xayyomga uzatdi. Shoir ko'zlari yumuq bo'lsa-da, buni payqadi, piyolani olib, bir zarbda sipqordi. Yuzi bujmayib, o'z tebranishi ila musiqaga jadalroq jo'r bo'ldi. U kuydan, yashashdan, bo'zadan, mana bu davradan va umuman dunyodan maxmur (mast) edi.

Rosa o'rtanib ingrangan kuy nihoyat tindi. Uning ortidan Yusufning xirqiroq, lekin yoqimli ovozi eshitildi. U she'r o'qirdi:

Mehrobgga sajdadan nima ham foyda,
Dilda Buxoro-yu Taroz jononi.
Namozni yoqtirmas mening xudoyim,
Unga maqbul tushar ishq g'alayoni...

- "Odami shuaro"! (Abu Abdullo Rudakiyning laqabi. Uni birinchi shoir ma'nosida Odam alayhissalomga nisbat berishib, shunday atashgan)-dedi Xayyom past ovozda va o'zi ham o'rtanib Radukiyning baytidan o'qidi:

To'lin oydek nigor birlan aqiq may, cholg'u bo'lsa, voh,
Farishta ham tushar ko'kdan, tushar joy bo'lsa hamki choh.
Nechuk uzgum nazar undan, zarar topsa imonim gar,
Mozorimdan chiqar hattoki nargis, qovjirab giyoh.
Uning ishq lazzati jannatda ham aslo topilmas shahd,
Kechar o'z holidan kimki agar bir bor bo'lur ogoh.
Ko'zingda kupp-kunduz gar xari bo'lsa ko'rolmaysen,
Ko'rursen qop-qora tun o'zga ko'zi ichra cho'p nogoh.

So'ng Yusufga yuzlanib, dedi:

-Kimsiz? Bu fano dahrida ne sho'rishlar yog'ilmish boshingizga?!

Yusuf yutoqib ko'ksini silarkan, yana boyagidek xazin, biroq yoqimli ovozda she'r o'qishga tushdi:

-Men ul rindmenki, nomimdir qalandar,
Na xonumon, na uy ko'rdim, na langar.
Ko'chang kezdim, chiqib qolsang mabodo
Fido etmoqqa boshimni muqarrar.
(Bobo Tohirning ruboiysi)

U she'rni tugatib, biroz tin oldi-da, o'z kechmishini muxtasar hikoya qilib berdi.

Yusuf asli Buxorolik edi. Otasi mohir xattot bo'lish bilan birga usta kitobatchi, ya'ni kitob muqovalovchi ham edi. U kishi juda ilmparvar va shuning orqasidan fozil zotlarni qadrlar, ularni dunyoning ustunlari deb bilardi. Hzi Islomiy ilmlarni puxta bilguvchi mullo zot ersa-da, kishilar bilan bo'lguvchi muomalotda irq, din tanlamasdi, barcha "Ollohning quli" degan aqidaga tayangan holda qaraguvchi edi. Shul sababli ham yolg'iz o'g'li bo'lmish Yusufni boshidanoq ilm shikoriga soldi. Yusuf avvaliga o'z mahallasidagi domullodan xarf o'rganib, ibtidoiy bilimlarni olgan bo'lsa, keyinroq Buxorodagi katta madrasada tahsilni davom etdirdi. U juda ilmga chanqoq edi. Falsafa, fikh kabi ilmlardan tashqari, she'riyat hamda musiqiyga ham o'ch edi. Mana shu ixlosu intilishlari o'laroq ulug' orzular iskanjasida yashardi. Biroq uning baxtiyor va osuda damlari qisqa ekan. Illo o'sha yillari Buxoroni Mahmud Faznaviy lashkarlari ishg'ol etdi. Ular shaharni vayron qildilar, Buxoroning ulkan kutubxonasidagi durdona kitoblarni, ya'niki diniy bo'lmagan risolalarni olovga otdilar, o'zga dinga mansub odamlarni qatl om etdilar. Qadim Buxoroda qad rostlagan kalisa-yu kunishlar (nosaro va otashparastlarning ibodatxonalar) buzib tashlandi. Faznalik Mahmud o'zini islomparast qilib ko'rsatgani bilan o'ta zolim edi va shu ahvoli bilan kitoblarda bashorat qilingan lashkarboshi bo'lishga, butun musulmon dunyosiga hukmdorlik qilishga da'vogar edi.

Hsha qqirg'in bo'layotgan kunlari Yusufning otasi bir yahudoning jonini saqlab qolish uchun yashiradi. Biroq bu gap chaquv tufayli bosqinchilarning yuzboshilaridan birining qulog'iga yetib boradi. Alhol Yusufning otasini ham yahudoga qo'shib qo'lga oladilar. Hsha yerning o'zida yahudoni o'tda kuydiradilar, Yusufning otasini esa dorga tortadilar. Yosh yigitcha bo'lmish Yusuf bu dahshatlarning borini o'z ko'zi bilan ko'rib turadi va o'sha kundan boshlab mullabachchalikni tashlaydi, namozni tarki odat qiladi. Kichkinagina sallasini boshidan olib, uloqtiradi va qalandarga o'xshamagan qalandarga aylanadi. Mayga oshno tutinib, faqirlikda dunyo kezadi. Faqirlik, tanholik va sayohat ko'ngil ko'zini ravshanlashtirib, devonavash hamda dilbar bir zotga mengzaydi. Keza-keza nihoyat Isfahonda qo'nim topadi.

Xayyom sarxush bir alfozda uning hikoyasini tinglarkan, ayni damda mana shu devona insonga juda-juda o'xshagisi kelib ketdi. Uning kabi jamiki nimarsalardan yuz burmoqni, faqatgina ilm va she'r ishqida yashamoqni istaguvchi bir ishtiyoq bag'rida jo'sh urdi. Yusufga havas ila boqarkan, dedi:

-Siz bizning nozik fe'lli, ya'nikum o'zingiz lutf qilganingizdek, rindiy bir mahramimiz bo'lg'aysiz. Va rizoligingiz ila bugundan e'tiboran Rindoniy tahllusi sizningdir.

Yusuf sarxush ko'zlarini suzib, jilmaydi va shoirga minnatdorona ta'zim qildi.

Yusufning yodnomalarini eshitgandayoq Xayyomning qalbida ham shirin va shuningdek, ezg'in xotiralar bosh ko'tara boshlagandi. U ham ona shahri Nishopurni, ota-onasi va olis bolaligini eslamogga tushgandi. Shoir Mikoilning umr hikoyasini uzuq-yuluq eshitdi. Ya'ni u olis Hrusiya zaminidan teri savdosi ilinjida mashriq sari yo'l olganini va savdosi yuorishmay, vatandoshi bo'lmish

ayiq bilan shu tomonlarda qolib ketganligini elas-elas ilg'adi. Uning hkioyasi asnosida shoir Nishopurda-bundan o'n olti yil narida, ota xonadonida ro'y bergan voqeotlar og'ushiga singib ketdi...

Beshinchi bob

1

Buyuk olim Aburayhon Beruniy sulton Mahmudning Faznadagi zindonda umrining intihosini kutib yotgan kunlarda, ya'ni hijriy 441 (melodiy 1048) yilning ko'klami adog'ida, javzo eshik qoqib turgan bir kezda, samoning jamiki xos yulduzlari, sayyorolari zaminga xayrixoh yonguvchi kunda, qadim Nishopurda bir go'dak dunyoga keldi. Uning otasi Ibrohim chodirdo'z (Xayyom chodir tikuvchi degan ma'noni beradi) oddiy hunarmand bo'lsa-da, ilmi kishilarga ixlosi baland va qalban Islom nuridan bahramand inson edi. Shul sababli o'g'lining ismini xalifai roshidinlarning biri bo'lmish hazrati Umar nomi bilan Abul Fath Umar deb atadi. Chodirdo'z Ibrohim o'g'li Umar tug'ilganida bir muncha kambag'al edi. Kasbi kori bo'lsa-da, ilki kaltalik qilib, hali biron mustaqil ish boshlamagan, birovlariga yollanib topgan puliga bazo'r ro'zg'or tebratardi. Oxir oqibat qashshoqlik uning joniga tegdi va Olloh yarlaqab daromad topish ilinjida Sulton Mahmud lashkariga sarbozlikka yollandi. Baxtiga Sulton o'sha yili hind mamlakatiga yurish qilishga tadorik ko'rayotgan edi. Omadi kulib Ibrohim ham ana shu fathda ishtirok etdi, Mahmud Faznaviy ko'shiniga qo'shilib, hind mulkini taroj qildi. Hsha yili Sulton olam-jahon o'ljalar-oltinu kumush, duru javohirlar ila ortga qaytdi. Tabiiyki, qo'shinidagi sarbozlar ham uning ijozati tufayli ancha-muncha boylikka sazovor bo'ldilar. Ular orasida Nishopurlik Ibrohim chodirdo'z ham bor edi. U ana o'sha boylik bilan ona shahriga qaytdi va chog'rog' bog'i bo'lgan ko'p xonali uy sotib oldi. Havlining bir yoniga katta ustaxona qurib, bir necha ayolu erkakni yolladi va chodirdo'zlikni yo'lga qo'ydi.

Umarning shirin bolaligi ana o'sha bog'da, goho esa xotin-xalajning gap-so'zlariga to'lgan ustaxonada o'tdi. Mehribon ota-onasining haroratli quchog'i uning uchun naqadar aziz bo'lganligini keyinroq anglab yetadi. Hozir esa dardu tashvishi kitob, fikru yodi ilm olmoq ila band.

Hshanda ham qish intiholab, ko'klamning iliq kunlari boshlangan kunlar edi. Hn yoshli Umar butun qish ichi Qur'on mutolaasi ila mashg'ul bo'ldi. Ollohning kitobini xatm qilib, bir yuz o'n to'rtta muborak surani yod oldi va qiroatni o'rgandi. Qish oxirida bir necha kun mobaynida ustozining huzurida bo'lib, ulug' Kitobni boshidan oxirigacha qiroat bilan yod o'qib, ul zotning tahsiniga sazovor bo'ldi. Zero ustozni uni alohida bir mehr ila sevar, quvvai hofizasining tiniq hamda kuchli ekanligidan iftixor etardi. Shunday qilib, Abul Fath Umar o'n yoshida hofizi Qur'on murattab qoriga aylandi.

U ustozining tabarruk fatvosini olib qaytgan kechasi tush ko'rdi. Bu unga butun umr hamroh bo'lguvchi, samoviy o'y-xayollarga solib inson qurbining benihoyaligini anglatuvchi sirli, ehtimolki ishoratli tush edi. Tushida go'zal bir manzarali ma'voda sayr etib yurgan emish. Tuyqus qalbida yugurmoq istagi junbushga kelibdi-yu jon jahdi ila chopa ketibdi. Chopgani sari qadamlari tobora kattalashaveribdi, kattalashaveribdi, nihoyat oyoqlari yerdan uzilibdi-da, osmoni falakka ko'tarilibdi. Ilkini misoli qanoat yanglig' ikki tomonga yoyib, parvoz etarkan, zamindan uzoqlashib, yulduzlarga yaqinlashaveribdi. Mana endi yulduzlar shundoq yonboshida nur socha boshlaganida samo toqida betimsol ziyoga chulg'angan siymo paydo bo'libdi-da, unga ma'noli bir nigoh tashlab, yana tezlikda g'oyib bo'libdi. U esa endi pastlay-pastlay nihoyat zaminga kelib qo'nibdi. Ko'kka parvoz etganidagi betakror tuyg'u, yurakni ko'krak qafasini yormoqqa qodir qilguvchi ehtiros shu-shu bag'rida makon tutdi.

Umar shirin entikish bilan uyg'ondi. Bomdod namozini o'qigach, ota-onasiga qo'shilib, nonushta qildi. Har kungidek Qur'on yoxud boshqa biron kitob mutolaasi ila mashg'ul bo'lmadi. Boisi Ummul Kitobni xatm etgach, ilmu kitobga oid her ne mashg'ulotdan "ozod" olgandi. Endi ma'lum muddat emin-erkin bo'lmog'i, barcha bolalardek turli o'yinlarni o'ynamog'i mumkin edi.

Hsha kuni choshgohdan so'ng yomg'ir yog'a boshladi. Bog'ning hali yaproq yozib ulgurmagan yalang'och daraxtlari oralab kezingan Umar, ko'klam yomg'irini har nechuk xushlamasin o'zini panaga olmoqqa majbur bo'ldi. U butun qish bo'yi xonanishin o'ltirib, mutolaa zahmatini totganligi uchunmi, bir muncha nosog'lom ko'rinardi. Yuzi rangpar, bu rangparlikda ojiz bir oydinlik mujassamdek. Oyoq-qo'llari uzun, noziklashgandek tuyuladi, ko'zlari ichiga botgan, biroq tubidagi qoracho'g'lari mardona chaqnaydi. Ayni damda qadam tashlarkan, oyoqlari yerdan uzilib, parvozga intilayotganga o'xshaydi...

g'ochib, yana uyga kirmoqni ko'ngli istamadi-da, ildam qadamlar ila ustaxonaga o'zini urdi.

Ustaxonaning eshigi ikkita edi-biri ko'cha tomonda bo'lsa, ikkinchisi hovliga qaragandi. Har ikki eshik ham katta, ikki tavaqali edi. Umar hovli tomondagi bir tavaqasi qiya ochiq eshikdan kirib bordi. Kirdi-yu taqqa to'xtadi. Bu yerga avvallari ham ko'p bora kirganiga qaramay, undagi manzarani, odamlarni huddi ilk bora ko'rib turganday ko'zlarini katta-katta ochib, serrayib qoldi. Ustaxonada asosan ayollar ishlashardi. Yuk ortish, yuk tushirish kabi og'ir yumushlarni otasi yollagan bir-ikki erkaklar bajarsalar-da, chodir tikmoqlikning butun zahmati avvalo ayollarga tushardi. Hozir esa bironta erkak ko'rinmas, ularning otasi bilan birga shahar tashqarisidagi yerlarini ekishga tayyorlash uchun ketganligidan Umar boxabar edi. Ustaxonadagi yumushlarga onasi korfarmolik qilmoqda edi.

Olloh taollo ayol zotiga jumla ne'matlaridan eng avvalo zabonni ato etganligi ma'lum. Ayni damda keng so'rilarning to'rt tomoniga o'tirib olgan ayollar ham chodir tikmoq hamda so'zlamoq ila band edilar. Umarning kirib kelganligini birovi payqadi, birovi payqamadi.

-Voy, mullo Umar ham bor ekanlar-ku! -deya shodon so'z qotdi uni birinchi bo'lib ko'rgan yoshgina juvon.

hammalarining nigohlari bolakayga qadaldi. Rostdan ham ular Umarni qish bo'yi ko'rmagandilar. Shuning uchun barchalari ishlarini qo'yib, necha bor eshitib, guvohi bo'lganlari favqulodda iste'dod sohibi deb atalmish yigitcha bilan ko'rishmoqqa tutindilar.

Shu payt ko'cha tomondagi eshikdan ajib bir na'ra eshitildi. Ehtimol bu ovozni na'ra deya atamoqlik xatodir, zero u darvishlarning jahriy zikrlarini yodga soluvchi bag'rning tub-tubidan otilib chiqayotgan haroratli o'rtanish edi. Hamma o'sha yoqqa qaradi. Eshikdan qaddi xiyol bukilgan bir pirazan (kampir) kirib kelardi. Uning ust-boshi juldur va shunga monand ravishda kir-chir edi. Butkul oqargan, biroq kirligidan kulrang tusga kirgan sochlari parishon to'zg'igan, ne fursatlardan buyon taralmagani bois qo'yning po'stagiga qiyos qilgulik ahvolga kelgandi. Boshida ko'xna kuloq, o'ng ilkida egri-bugri aso, so'lida esa muxtasar ko'za-may uchun ayoq. Qo'llari ozg'in, qop-qora, barmoqlari uzun-uzun, ustixonlari baralla namoyon turadilar. Yuzi ham qop-qora, to'g'rirog'i, ko'kimtir qora, unga ko'zi tushgan odamning bir seskanib qo'ymog'i tayin. Faqatgina ko'zlari, nigohi... Uning ana o'sha ko'zlari va boyagi xazin, shuningdek, mardona na'rasi, o'rtanishi chor atrofini yoritib yuborayotgandek tuyuladi. U o'z sasiga monand tebranib, pahlaviy tilida bayt o'qimoqda, balki kuylamoqda:

Diling zulmga hech to'ymaydi, yo rab,
Ko'zingga yosh kelmas holimga qarab.

g'izig'i-seni men jondan do'st tutsam,

Yuz ming yovdan battar sen ajal talab.

Ayollar "Bibi Mastona! Bibi Mastona!" deya chug'urab qo'ydilar.

Pirazan-Bibi mastonaning ovozi sehridan Umarning vujudi jimirlab ketdi.

-Avliyo xotin-da bu Bibi mastona!-dedi kimdir ayollar ichidan.

Ayollar Bibi Mastonani oldinlari ham bir necha marotaba ko'rishgan, ammo Umar unga ilk bor yo'liqib turgandi.

Ikki nigoh to'qnashdi. Ikkala nigohda ham hayrat zohir edi. Inkori tan pirazan ro'parasidagi bolakayning harirday vujudi hamda nigohidagi ma'nodan hayratlanayotgan ersa, azimush sha'n kitob xatmidan ham zohiran va ham botinan poklangan o'smir Bibi Mastonaning shiddati hamda ko'zlaridagi nurdan hayratga tushmoqda edi.

Pirazan uni o'zi tomon imladi. Umar beixtiyor unga yaqinlashdi. Nigohlar esa mudom bir-birlariga qadalgandi. Bibi Mastona aso tutgan o'ng ilki ila bolaning bo'ynidan quchib, bag'riga oldi. Umarning yuzi uning ko'ksiga ko'mildi. Bu bag'r shu qadar otashli ediki, Umar yuzini olovga tekkizib olganday his qildi o'zini va nafasi bo'g'ilib, yuz-ko'zlari kuyayotgandek tuyuldi. Ammo kampir uning bo'ynidan qisgancha turaverdi. Umar butunlay bo'g'ilib qoldi, jon xalpida nozik qo'llari ila olov bag'ridan xalos bo'lmoqqa urindi. Urinishlari bekor ketdi. Nihoyat ojiz bir siltanish ortidan jim qoldi. Huddi shu payt Bibi Mastona uni bag'ridan ozod etdi. Bolaning ko'zlari qinidan chiqquday turar, bo'g'izidagi so'nggi havoni yutishga urinib siltanar, yuzi qip-qizarib ketgandi. Pirazan shaqirlab kulib yubordi.

-Vo-oh!.. Kuyib qoldingmi, bo'tam?!- dedi do'rildoq ovoz ila va so'l ilkidagi ayoqni bolaning og'ziga tutdi. Tirsagi bilan uning boshini xiyol ko'tardi-da, ochiq og'ziga may quyib yubordi.

Bolaning ko'zlari battar olayib ketdi. Siltanib-siltanib, yutoqib-yutoqib bir necha qultum may yutdi. Pirazan uni qo'yib yuborgach, bir-ikki qadam gandarakladi-da, huzurli bir xo'rsinibmi, oh uribmi, yerga quladi.

Bo'lib o'tgan voqeni hayratu qo'rquv ila kuzatib turgan ayollar shundagina o'zlariga keldilar va uv tortib, Umar sari intildilar.

Barcha u bilan andarmon qolganligi bois Bibi Mastonaning qachon, qanday g'oyib bo'lganini biron sezmay qoldi.

Umar ko'zini ochib, boshi uzra aftodahol o'ltirgan padari-yu validasiga ko'zi tushdi. Ha, shunday bo'ldi, biroq ularning qiyofasi ko'z o'ngida bir bora yilt etdi-yu g'oyib bo'ldilar. So'ng uning nigohi oppoq nurga to'ldi va boshi ul nurga qo'shilib gir-gir aylanaverdi. U tomog'iga qadalib turgan nimarsani yutmoqqa sa'y qildi va shuning uchun yuzi tirishib ketdi. "Bolam!" degan yig'i aralash sas keldi uzoqdan-bu validasining nolasi edi. Kimdir boshini siladi-bu kaftning og'ir va kattaligidan otasiniki ekanligini payqadi.

-Qo'rqma, onasi, issig'i tushibdi.-dedi tanish ovoz, bu otasining ovozi ekanligini keyinroq fahmladi.

Demak, istimalabdi-da. U asta-sekin o'ziga kela boshladi. Ko'zi ravshanlashib borarkan, xonani xira yoritayotgan moychiroqni ilg'ab, allaqachon kech kirib ulgurganini angladi.

U hamma narsani to'la idrok eta boshlagach, shuurida nechukdir evrilish ro'y berganligini tushunganday bo'lardi. Bu evrilish shundan iborat edikim, har nimarsaning cheti, chegarasi aniq-tiniq ko'rinar, oq ila qora, nur ila savod (zulmat) yaqqol namoyon bo'layotgandek tuyulardi. Hatto mehribon ota-onasining xavotirli nigohlaridagi benazir mehr ham balqib, bo'rtib ko'rinar.

-Tuzukmisan, bolam?-deya so'radi otasi mudom uning yuz-ko'zlarini silarkan.

-Menga ne bo'ldi, ota?-dedi Umar savolga savol ila, ko'zlarini pipiririb.

-Ollohga shukr!-deb qo'ydi onasi yig'lamsirab.

-Ko'klamda ob-havo ilg'ab oladi-da, o'g'lim.-dedi otasi jilmayishga urinib.

Bibi Mastona hozir Umarning yodida yo'q edi va ne bo'lganini rostdan ham anglab yetmayotgandi. Biroq padaru validasi ham ul g'alat pirazanni na eslamadilar, na qarq'amadilar. Ehtimolki uni yod etib, bolani taqi qo'rqitib qo'yishlari mumkinligi xayolida shunday qilayotgan bo'lsalar ham ajab emas.

Onasi piyolada giyohlardan tayyorlangan doru keltirdi. Otasi uning boshini yostiqtan uzib, doruni ichirdi. Biroq endi bola o'zini kuchsiz, holsiz sezmasdi, tabora quvvatga kirayotganini his qilmoqda edi.

-Onajon, g'amnok bo'lmangiz!-dedi Umar shodon tovushda, dadillik ila bir qo'zg'olish olib. -Sihatim soz. Faqat yegu (taom) istaydurmen, onajon.

Onasi xursandligidan qalqib ketdi. Ko'zlari yoshga to'lib, jilmayarkan, shoshib qoldi:

-Yegu? Voy, yegu degan tillaringga jonim sadog'a, bolam! hozir... -U o'rnidan turib, tashqariga chiqib ketdi. Hech qancha muddat o'tmay bir kosa suyuq taom va mis patnisda bir juft non olib kirdi. Xontaxta ustiga dasturxon yozib, yegularni qo'yayotganda, Umar otasining ko'magida o'rnidan turib o'tirdi. Uning o'z qo'liga qarab qo'yganini sezgan otasi, muddaosini anglab, onasiga ishora qildi. Biroq Umar validasining urintirmoqlikdan istihola qilib, o'rnidan qo'pmoqqa sa'y etganida otasi yelkasidan tutdi:

-Xijolat tortma, o'g'lim! Andak quvvatga kirguncha qo'zg'almaganing ma'qul.-dedi muloyimlik ila.

Umar otasining istagiga rizolik bildirgan kabi itoatkorona tin oldi.

Onasi keltirgan chilobchin va obdastada yuz, qo'lini yuvib, og'zini chayqadi. So'ngra shoshilmay yengil taomlandi va padarining so'ziga binoan yana bolishga yonboshladi.

Ibrohim chodirdo'z o'g'lining keng peshonasini silarkan, haybatu hayrat balqigan ko'zlariga termulardi.

-Tuzukmisan ishqilib, bolam? Ko'nglingda biron mushkullik bo'lsa aytaqol, o'g'lim!-dedi u bolasining bezovta nigohidan tashvish chekib.

Umar otasiga chuqur bir xayoldan chalgiyotgandek tikildi.

-Sog'ligim yaxshi. Aslo qayg'urmangiz, otajon.-U tokchada miltirayotgan moychiroqqa o'grildi.-Faqat boshim bo'm-bo'shdek.

Olloh taoloning buyuk ijodi bo'lmish bu olam, bu koinotga boqib, qalbmida ulug' bir hayrat va hatto vahm tug'yonga keladir.

Otasi uning so'zlarini anglamadi, biroq "nechuk, o'g'lim?" dedi beixtiyor.

Umar yana otasiga qayrildi.

-So'zlarimdan o'zgacha o'yga bormangiz, ota, aqlu xushim joyida. Bu ko'hna olam binosini anglamoq istaydurmen, bas... -U o'ychan bir qiyofada so'zini davom ettirdi.-Ustoz Arastu deydiki-zamin bu kurra shaklida va u koinotning markazidir. Arximedes esa yerning dumaloqligini, biroq u olovli bulut, ya'ni Quyosh atrofida aylanguvchi kichikroq sayyora ekanligini tasdiqlaydi.

So'ng... -Umarning qoshlari chimirildi.-Anovi tokchada turgan Batlimus (Ptolemey)ning "Almajastiy" degan kitobi. Uni biz madrasada o'rganamiz. Unda aytilishicha ham zamin dumaloq, lekin harakatsiz. Yer atrofida nurafshon bir jismlar aylanadilar.

Ulardan Yerga eng yovug'i Oy muhiti. Undan so'ng Atorud (Merkuriy), so'ng Zuhro (Venera), undan so'ngra quyosh, Mirrih (Mars) va boshqa muhitlar mujassam. Sakkizinchi muhitda esa yulduzlar joylashgan. Nihoyat to'qqizinchi muhitda birlamchi ong, ya'ni

ularning barchasini, butun koinotni harakatlantiruvchi Mehvari Muazzam barqaror. Bu endi Batlimusning fikrlari.

Ulug' Beruniy esa qadim hindlarning ilmi donishlariga asoslanib, "Yer harakatda, samolar ham halovatsiz" deydi..

Ibrohim chodirdo'z o'g'liga hayrat va qo'rquv ila tikilib turardi.

-Bizning zamin koinot kakhshonida bir zarradayin zaif vujudidir. Ehtimol o'shal olis muhitlarda biz kabi jonzotlar bordur. Aql ko'zi bilan bir boqing, otajon, Yaratuvchi aylantirayotgan charxdagi Oy, Mirrix yoki boshqa sayyoralar emas, nega endi aynan Yer bag'ri muhitning o'zagi hisoblanadi? Nega?!..

-Olloh bilguvchidir, bolam. Har neda Ollohning irodasi mujassam.

-Rost aytdingiz, ota!..

Umarning ko'zlari kengayib, chaqnadilar. U yana gapini davom ettirmoqqa chog'langanda, otasi uni chalg'itmoqqa urindi, chunki omiy chodirdo'zning ko'nglida o'g'lining ahvolidan xavotir paydo bo'lgandi.

O'shanda yoshgina Umar o'zidan avval o'tgan ustozlari -Arastu (AristotelCH), Aflotun (Platon), Batlimus, Jolinus (Galen), Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Ibn haysan, Ar Roziy, Al Xorazmiy, Xaroniy, Battoniy va nihoyat keyinchalik bir umr asarlaridan ilhomlangan g'oyibona ustoz Uqlidus (Yevklid) haqida, ularning asarlari, bahri muhitni anglash borasidagi fikrlari xususida gapirmoqchi, gapirganda ham uzoq-uzoq, butun vujudi ila gapirmoqchi bo'lgandi. Lekin unga avvalo otasi, so'ngra o'zidagi andisha monelik qildi. O'sha holatini, vujudini qamragan ehtiros, otashni hali hanuz qo'msaydi va o'sha kungi voqeani takror-takror eslaydi. Kim edi ul pirazan? Jonu jahonini mudom yondirguvchi olovni solgan ul mastona zot qay karomat sohibi edi?! Shu kundan boshlab u ham qalban, ham jisman ulg'ayib bordi. Boshi aqlga, bilagi quvvatga to'laverdi...

2

Xayyom Mikoil uzatgan mayli piyolani olarkan, uzoq-uzoqlardan kelayotgandek eshitalguvchi sas ila ayni damda tug'ilgan ruboiyni o'qidi:

Xushyor bo'lsam, mendan xursandlik yiroq,

Mast bo'lsam, aqlimdan ajraymen biroq.

Mastligu xushyorlik oralig'i bor,

Hayot shu, unga qul bo'lsam yaxshiroq.

U yuziga fотиha tortdi-da, shahd o'rnidan turdi. Rindoniya va Mikoil o'rinlaridan qo'pishib, kuzatmoqqa shaylanib edilar, bir ishora ila izn bermadi. Hujra eshigidan chiqib, endi o'ng yoqqa qayrildi. Bir-ikki qadam bosgach, rasadxonaning qorayib ko'ringan ulkan gumbazi ustida-oydin osmonda jimirlayotgan yulduzlarga tikilib qoldi. Nigohi ortidan shuuri ham o'shal yuksakliklarga intildi. Intilarkan, vujudi nimadandir forig' bo'lib borayotgandek tuyuldi va shu yengillashish asnosida ohista odimlar bilan o'z oshyoni sari yurdi...

Bir siltandi-yu joynamoz ustida o'ltirganini, ilkida tasbeh va tilu dili zikrulloh ila mashg'ulligini payqadi. Butun vujudi, qalbi xil-xil erib bormoqda edi. Ashkli ko'zlari bir nuqtaga qadalgan, ho'l lablari titraydi.

-La ilaha illalloh, la ilaha illalloh, la ilaha illalloh!..- Bu go'zal so'zlar adog'siz edi.

Bir zamon o'ziga qaytib, yuziga fотиha tortdi va o'rnidan turarkan, "Odami shuaro"ning ushbu she'rini esladi:

Shu oddiy ko'z bilan boqmagil, balki

Bilim ko'zi ila boqgil jahonga.

Jahon daryo erur, yaxshi ishingdan

Kema yasab o'tgil nari tomonga.

Xobgoh sari o'tdi. Ayni damda kanizak Parmudaga aytgan so'zini eslab, xijolatli jilmaydi.

-Intiq bo'lgandir sho'rlik!..

Biroq endi vujudidagi boyagi otash susaymoqda edi.

Oltinchi bob

1

Tongga yaqin tush ko'ribdi: go'yo yettinchi osmonga ko'tarilganmish. U yerdagi go'zal bir maskanda bashar ahlining jamiki ulug'lari yig'ilganmish. Xayyom ularning o'rtasida turar, bir yonida Ibn Sino, ikkinchi yonida Uqlidus joy olgan bo'lsa, atrofida Arastu, Jolinus, Farobiy, Al Xorazmiy, Beruniy va boshqa u tanigan-tanimagan zotlar qator-qator saf tortganmish. Barchalari xushnud qiyofada emish. Bir payt qibla yoqda ulkan oltin ko'shk paydo bo'libdi. Ustida boshi faqatgina nurdan iborat kishi o'ltirar, uning yuziga boqmoqlikka hech bir nigoh dosh berolmasmish. Hshal zotning ishorasi ila Ibn Sino Xayyomning yelkasiga zarrin chopon tashlabdi. Barcha "Muborak! Muborak!" deya olqishlabdi. U mislsiz bir ichki tug'yonli orziqish bilan ko'shk sari oshiqibdi. Ne bo'libdi-yu ko'shk tuyqus siltanib ketib, nurli to'lqin uning ko'ziga urilibdi...

Shoir allanechuk kayfiyatda, ruhiy zo'riqish og'ushida uyg'ondi. Hamon tush ta'siridan chiqolmay shiftga termulib yotarkan, namozi bomdodga chorlayotgan muazzin ovozi olis-olislardan eshitalayotgandek tuyuldi. U shuurining tub-tubida ko'shkda o'ltirgan uz zoti mukarram Rasulilloh sallalohu alayhi vasallam ekanligini anglar, lekin muborak yuzini ko'rolmaganligidan o'zicha ma'no chiqarib, iztiroblanardi...

Nonushtadan so'ng vaziri a'zam Nizom ul Mulkdan chopar kelib, choshgoh mahali huzuri muborakda bo'lmog'lo lozimligini yetkazdi. Ulug' Sulton mashvarat o'tkazmoqlikni ixtiyor etibdi.

Choshgohda Xayyom Sulton saroyining jamiki a'yonlari ila xosxona bo'sag'asida hozir turardi. Barcha Sulton diydoriga intiq edi.

Ayniqsa, amirul shuaro Shamsiddin Qazviniy bezovta turar, ko'zlarining olazarak boqishidan, qo'llarini qayerga qo'yishini bilmaganday tez-tez qimirlatib qo'yayotganidan hukmdor ila bo'ladigan bu uchrashuvga oshiqayotganligi va ul zotning shohona muruvvatidan umidvorligi sezilmoqda edi. U Xayyomga qayta-qayta qarab qo'yar, uni ilk bor ko'rganida bosh silkib salomlashgan bo'lsa-da, endi o'zini mag'rur tutishga urinardi. Xayyomning xotirjam nigohi har safar unga tushganida u ko'ksini tobora kerib,

12 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

boshini ham tik tutib, mag'rur ko'rinishga intilardi. Biroq buning uhdasidan chiqolmas, chunki uning viqorli, salobatli ko'rinmog'i uchun hamisha o'ynab turguvchi dum-dumaloq mitti ko'zlari monelik qilardi. Qolaversa, uning jussasi anchayin kichik ediki, egnidagi liboslari shalvirab ko'rinardi. Yuzi kichkina, tag'inki bir zuvala xamirni bir mushtlab turib, o'rtasini chimdib qo'ygandek pachoq edi va bularning bari uning kibor ko'rinmog'i uchun xalaqit berardi.

Nihoyat huzuri muborakka ijozat bo'ldi. Arkoni davlat o'z mavqelariga qarab birin-sarin xosxonaga kira boshladilar. Ular eshikdan kirib boq ulkan taxtda mag'rur o'ttirgan Sultonga ta'zim bajo aylashar va so'ngra ikki tarafga tizilishardi. Sulton Malikshohning o'ng yonida vaziri a'zam Nizom ul Mulk turardi. Xayyom o'z mavqeiga ko'ra vaziri a'zamning o'ng yonidan joy oldi. Sultonning so'l yonida esa sohibi fatvo, Saljuqiylar saltanatining bosh imomi, muhtasib (shariat nazoratchisi) Sayyid Muhammad Badriy, sultonning inisi Muhammad Takash, so'ngra shoirlar amiri Qazviniy va boshqa a'yonlar saf tortdilar. Saljuqiylar saltanatining davlat boshqaruvi tizimidan boxabar kishi a'yonlarning joylashuviga qarab ularning qay biri ne mansabda ekanligini darrov payqamog'i mumkin edi. Xo'sh, dunyoning katta bir qismini egallagan bu mamlakatning idora tizimi qanday edi?

Saljuqiylar saltanatining hukumat idorasi ikki ulkan devonga-devoni xos va devoni oliyga bo'lingan edi. Devoni xos- bu sultonning shaxsiy devoni bo'lib, u sultonlar sulolasining urug'-aymog'i, qo'yingki, sultonning nomi ila bog'liq barcha merosiy nimarsalarni tasarruf qilardi. Unga sultonning jamiki mol-mulklari, yerlari kirardi. Butun-butun viloyatlar ham unga bo'ysunib, soliqlar to'lardi va bu soliqlar devoni xosga kelib tushardi. Davlat g'aznasi ham bevosita mazkur devonga kirar va unda sultonning borki oltin-kumushlari, javohirlari hamda qimmatbaho buyumlari saqlanardi.

Devoni oliy esa o'z navbatida to'rtta yirik devondan tashkil topgandi. Ular devoni tug'ri, devoni istifo, devoni ishrof va devoni arz deb nomlanardi.

Devoni tug'ro sultonning farmonlarini, turli nomalarini va umuman davlat ishlarini boshqarishdagi topshiriqlarini tasarruf etardi. Bu idoraning boshlig'i tug'royi deb atalar va u hukumat ishiga oid barcha hujjatlarni hukmdorga olib kirish hamda uning muhrini shaxsan bostirish huquqiga ega edi. Tug'royi davlat boshqaruviga kelib tushadigan va undan chiqadigan barcha hujjatlarni, xabarlarini, elchilik faoliyatiga oid xalqaro ish qog'ozlari qat'iy bir tarzda tekshirar, shuningdek, yorliq hamda farmonlar, barcha rasmiy qog'ozlarning to'g'ri yuritilishini, berilishini nazorat qilmoqqa, nihoyat davlat sirlarini saqlamoqqa burchli edi.

Saljuqiylar saltanatida rasmiy ish yuritish asosan forsiy tilda, xalqaro yozishmalar esa ko'proq arab tilida olib borilardi. Biroq jamiki saljuqlar sulolasining el aro muomalatida va hatto shaxsan olampanohning goho sezilguvchi ixtiyorida ham turkiy tilning go'yo kamsitilishidan og'rinish sezilib turardi. shul bois Sulton Malikshoh turkiyda so'zlaguvchi amaldorlarga, shu tilda lutf etgan fuzalolarga goho rag'bat ham etguvchi edi. Lekin azaliy rasmiy til forsiy va arabiy ekan, tug'royidan har ikki tilning nozik jihatlari, istioralarini puxta bilishlik talab etilardi. Bundan tashqari, u go'zal husniyat sohibi bo'lmog'i, arabiy imloga xos barcha yozuv usullarida bemalol yoza olguvchi hattot bo'lmog'i zarur edi.

Devoni istifo ham bu saltanat idora usulida katta o'rin tutardi. Uning peshvosi mustoufiy deb nomlanardi va u o'z martabasi bo'yicha uchinchi odam hisoblanardi. Mustoufiy davlatning moliyaviy yumushlarini idora etardi. Devoni istifo davlatning kirim-chiqim mablag'lari, soliq va boshqa tushumlarning, shuningdek, g'aznadagi mol-mulklarning hisob-kitobini qilardi. Devoni xosning hisob-kitob ishlari ham ayni shu devon zimmasiga yuklatilgandi. Mamlakat miqyosidagi yerlarning, kimning mulki bo'lishidan qat'i nazar, xatlab berilishi ham devoni istifo xasmi-haqqiga mansub edi.

Devoni ishrof esa davlatning oliy nazorat idorasi hisoblanardi. Bu devon boshlig'i, ya'ni mushrifning vazifasi moliyaviy va soliqqa oid hisob-kitoblarni nazorat qilmoq hamda taftish etmoqdan iborat edi. Hufiya xizmat ham mazkur devon tasarrufiga kirardi.

Mahfiy xizmat va nazorat, u orqali mamlakatning ichki ahvolidan ogohlik qudratli saljuqlar davlatining asosiy tayanchlaridan biri edi. Buni vaziri a'zam juda yaxshi bilardi va shuning uchun ham Malikshoh hamda avvallari uning sohibqiron padari buzrukvorli Alp Arslon hazratlariga mushriflik mansabiga eng ishonchli, sadoqatli kishilarni tayinlamoq lozimligini ta'kidlab kelardi.

"hukmdor amaldorlar borasida hech qachon ehtiyotsizlik va beparvolikka yo'l qo'ymog'i mumkin emas, hamisha ularning hayot tarzlaridan ogoh bo'lmog'i joiz. Toki mushrif yuqori masabdorlarni mahfiy ravishda nazorat qilib bormog'i va u amaldorning ishlari xususida hukmdorga muntazam xabar yetkazib turmog'i lozim."-derdi. Nizom ul Mulk hamisha.

Shuningdek, saljuqiylar hukumatida harbiy idora-devoni arz ham mavjud edi. Uning boshlig'i "Ariz al joyish" deb atalardi.

Davlatni idora etuvchi bu devonlarning barchasi mamlakatning hamma viloyat va shaharlarida o'z bo'limlariga ega edi.

Bag'oyat mukammal bo'lmish mazkur idora usulini Nizom ul Mulk joriy etgandi. Ayni damda huzuri muborakda jamiki devonlarning boshliqlari ham hozir edilar. Biroq ular o'z ishlari haqida vaziri a'zamga allaqachon hisob berib bo'lganliklari bois xotirjam qo'l qovushtirib turardilar. Sulton ularga u qadar nazar qilmas, o'z navbatida vaziri a'zam ham devonlardagi ahvol va ishlar xususida olampanohga hisob berib bo'lgandi. Mazkur mashvaratdan murod esa ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ko'klamgi yumushlarning va umummamlakat miqyosidagi boshqa zaruriy tadbirlarning rejasini tuzmoqdan iborat edi. Ya'nikim saltanatning asosiy hayotiy zarurati bo'lmish ekin-tikin va zaminkorlik borasidagi muhim tashvishlar e'tibori oliyga molik edi. Bularning hisobini olmagan hukmdor bu kun ermasa-da, ertaga boshi berk manzilga ro'baro' kelib, avomning norizoligiga va hatto nafratiga giriftor bo'lmog'i shubhasiz.

Taxt nihoyatda ulug'vor edi. Jimjimador naqshlar bilan bezatilgan, suyanchiqlari kungurador, sulton ilkining har ikki kafti o'rnashadigan joyiga sher tasviri tushirilgan. Ulug' amakisi yasattirgan bu taxtda savlat to'kib o'ttirgan yosh sulton Malikshoh kishiga qattiq tikilguvchi edi. Uning yoshi endigina yigirma birga to'layotgan bo'lsa-da, shamoyili ulug' ko'rinardi. Bu ehtimol shohlik salobatidan edi, ammo yuz so'ngaklarining bo'rtib turishi, iyakdor va yelkadorligi, nihoyat erta qalinlashgan qop-qora kalta soqoli ham uning qiyofasiga ulug'lik baxsh etardi. Nasli turkiy qavmning sahroyi urug'lariga borib taqalguvchi sulton chinakam baquvvat va mardona suvratli odam edi. Boshidagi sof oltindan ishlangan sultonlik tojiga tutashgan yo'g'on qoshlari ostidagi xiyol qisiq ko'zlariga har nechuk insonning tik boqmog'i mushkul edi. Hozir ham u a'yonlarining barchalarini bir-bir nazaridan o'tkazdi. Ko'zi tushganki odam bir bezovtalanar, nigohini yoxud qo'llarini qayerga yashirishini bilmay qolardi.

Taxtning ortida ikki zabardast zanji qo'llarini ko'kraklarida qovushtirib, haykaldek qotib turar, lekin sovuq nigohlari sergak edi. Ular sultonning xos soqchilari edi.

Sultonning sezilar-sezilmas ishorasi ila vaziri a'zam asta tomoq qirib oldi-da, o'ktam ovozda mashvarat muddaosini bayon etdi.

Uning shahar tashqarisidagi iqtalarni (ma'lum xizmat evaziga turli mansabdorlarga tortiq qilingan yerlar) va ulardan olinadigan hosillarni tartibga solmoq, bahorgi ekin-tikin yumushlarini boshlamoq, yurtning urug'likka bo'lgan ehtiyojini qondirmoq, Navro'z bayramini nishonlamoq, madrasa-yu rasadxona islohlari borasida aytgan umumiy so'zlari unchalik uzoq cho'zilmadi. Nihoyat sultonning bu zaruriy yumushlar xususidagi ixtiyorini ham oshkor etdi. Ayniqsa, Isfahondagi Nizomiya va boshqa madrasalarning bepul deb e'lon qilinishi hamda ularga sarflanadigan mablag'larning davlat tomonidan qoplanishi haqidagi xush payg'om ahli

a'yonning olqishiga sazovor bo'ldi. Ayni dam kazvinii ijozat ila oldinga chiqib, hukmdor sha'niga jimjimador so'zlardan tuzilgan maqtovlarni yog'dirdi va sultonga bag'ishlangan necha kunlar avval bitib, o'qimoq uchun mavrid kutgani ash'orini qo'ynidan olib, kuyib-pishib o'qimoqqa tushdi. Shoirlar amiri yanglishmagandi-uning ta'ma o'qi nishonga tegdi, ya'ni sulton qasidadagi hamdu sanolardan mum kabi eridi. Kibr ila qoshlarini kerib devonbegini chorladi va Qazvinining yelkasiga xil'at (zarrin chopon) yopmoqni amr etdi.

Qazvinii sultonga boshi yerga tekkuday ta'zim qilarkan, payt topib Xayyomga g'olibona nazar tashlab qo'ydi. Xayyom shoirlar amirining bu xushnudligi-yu u erishgan tuhfa ham bee'tibor turar, biroq madrasalarning bepul qilinganligidan dil-dilidan shodlanmoqda edi. U bu ezgu amallarning ijodkori vaziri a'zam ekanligini bilar va uningdayin donishmand zotning tadbirlarini qo'llab-quvvatlaguvchi hukmdor borligidan mamnun turardi. Darhaqiqat, nomi butun musulmon dunyosiga tarannum bo'lgan vaziri a'zam qudratli saljuqlar saltanatining ishongan ustunlaridan biri edi. Uni Malikshohning padari buzrukvori Sulton Alp Arslon saroyga keltirgan va ta'bir joiz bo'lsa, undagi buyuk iste'dodni kashf etib, qadrini yuksakka ko'targan edi. Shuning uchun valiahdining tarbiyasini unga ishongan va rixlat mahali o'g'lining hamda saltanat taqdirini unga topshirgan edi. El baxtiga, vaziri a'zam ta'siridami, yosh sulton ilmparvar, dinparvar, shuningdek, fuzaloparvar bo'lib chiqdi. Ya'ni Nizom ul Mulkning takliflarini inobatga olib, jamiki olimu fuzalolarni Isfahonga yig'moqqa tushdi. Buning ortidan boshkentning shuhrati yetti iqlimga taraldi. Vaziri a'zam Navro'z bayramini nishonlamoq, unga tadorik ko'rmoq va ketadigan sarf-xarajatlar xususida so'zladi. So'zini tugatarikan, sultonning xohishiga banoan ba'zi a'yonlarga topshiriqlar berdi. So'ngra olampanohning yangi taqvim joriy etmoq haqidagi ixtiyorini bayon etdi. Aslida bu amalning boshida ham vaziri a'zam ila Xayyom turardilar. Shuning uchun vazir bu boradagi fikrini va mulohazalarini bilmoq istagida Xayyomga qaradi.

Xayyom biroz oldinga chiqib, hukmdorga ta'zim bajo etarkan, mardona jarangdor ovozda so'z aytmoqqa kirishdi:

-Filhaqiqat, olampanoh ixtiyor etgan bu ulug' yumushda ulkan ma'ni bor. Barchaga ayonki, biz qo'llayotgan hijratga molik qamariy yil shamsiy yildan o'n bir kunga qisqadir. Bu farqlilik ersa bisyor mushkulotlarga ro'baro' etmoqda. Shul bois yil hisobini isloh qilmoq va hukmdorimiz shonu shavkatiga munosib taqvim tadbiiq etmoq maqsadi oliymiz erur.-Xayyom Sultonga yana ta'zim qildi.

Sultonning bu so'zlarga xayrixohligini bilib, barcha Xayyomning fikrini ovoz chiqarib tasdiqladi.

haqiqatan ham saljuqiylar mamlakatida bir vaqtning o'zida ikkita taqvimdan qamariy va shamsiy yil hisoblaridan foydalanardilar. Shamsiy taqvim asosida shamsiy yil yotadi, ya'ni zaminning Shams (quyosh) atrofida aylanish davri 365 kecha-kunduzi 5 soat, 48 daqiqa 46 soniyaga teng va mana shu muddat bir yil hisoblanadi. Qamariy taqvim asosida esa Qamar (Oy)ning zamin atrofida aylanish davri muddati mujassam. Bu muddat 29 kecha-kunduz 12 soat 44 daqiqa 3 soniyaga teng. Shunday qilib, o'n ikki oydan iborat qamariy yil 354 kecha-kunduz 8 soatu 48 daqiqa 36 soniyaga to'g'ri keladi. Demak, shamsiy yildan o'n bir kun qisqa bo'lgan qamariy yil bahorgi ekin-tikin yumushlarida noqulayliklar tug'diradi. Bu borada shamsiy yil hisobi juda qo'l keladi. Natijada qamariy yil hisobidan diniy va hukumat hujjatlarini yuritishda, shamsiy taqvimdan esa dehqonchilik yumushlarida foydalaniladi. Xayyom yil hisob-kitoblariga oid taqvimlar tarixidan juda yaxshi boxabar edi. U qadimgi forslar sulolasining asoschisi shoh Gushtasp davrida dunyoga kelgan Zardo'sht va uning dini haqida ko'p fikr-o'y qilgan. Hshanda shoh Zardo'sht dinini qabul qilgan va yil hisobini isloh etib, Navro'zga asos solgan. Uning taqvimi to Iskandar Zulqarnayn zamonasigacha umr ko'rgan. Shundan keyin odamlar yana qadimgi an'analarga qaytishib, butunlay xatolikka yuz tutganlar. Bu kechmish sosoniylar sulolasining asoschisi shoh Ardasher davrigacha hukm surgan. U ham taqvimga isloh kiritib, ulkan bayram joriy etgan va uni Navro'z deb nomlagan. Xayyom bularni juda yaxshi bilardi va hatto payti kelib Navro'z haqida bir risola bitmoq orzusi ham bor edi. Nomi afsonaga aylangan, el og'zida ko'p hurmatga sazovor, sosoniylar sulolasining asoschisi No'shiravoni Odil zamonasida Navro'zning rivoj topishi, Abbosiylar xalifasi Ma'mun davrida Quyoshni kuzatishlar va u hamal burjiga kirganda Navro'zni nishonlashning joriy etilishi-bularning bari Umar Xayyomga ma'lum edi. Ehhe-e, bu jafokash va lekin hamisha to'lin qizdek tabassum ila kirib kelguvchi hamda ko'ngullarni sarafroz etguvchi Navro'z ne-ne zamonlarni-yu ne-ne hukmdorlarni ko'rmagan. Hatto uni majusiylar bayrami deya ta'qiq etganlar ham bo'lgan. Biroq hayotbaxsh Navro'z mudom yashamoqda.

O'sha o'tgan zamonlardagi taqvim islohlari yil hisobiga hammasi bo'lib o'n olti kun qo'shilib qolgan edi. Ya'niki har bir isloh kiritgan hukmdor kabisa (har to'rt yilda keladigan 29 fevrali bor yil) yil hisobiga bir kundan qo'shavergan. Islom tayanchi, musulmlar homiysi buyuk Malikshoh hazratlari zamonasiga kelib, ya'ni ayni damda ana o'sha xatoliklarni tuzatishga amr etilmoqda edi. Bu hukmi oliy yulduzlar oshnosi bo'lmish Xayyomni behad xushnud etmoqda edi. Zero u hozir tungi-Rindoni va Mikoilning hujrasida o'ltirgan bag'ri chok shoirga mutlaqo o'xshamasdi. Sultonning qarshisida salobatli mudarra sallasini (mudarrislar o'raydigan katta salla) o'rab, zarbof chakmon kiygan adl qomatli, yuzida g'urur aks etgan olim turardi.

-Bizdin ne tilak etursiz?-deya so'radi nihoyat ilk bora so'z aytgan Sulton. -Rasadxona yumushlari baroridami? Xarajatlar nechuk? Xayyom tag'in qo'l qovushtirib, ta'zim qildi-da, jarangdor ovozda dedi:

-Olampanohning buyuk davlatlari soyasida hamisha omondamiz. Rasadxona qurilishi jadal bormoqda, sarf-xarajatlardin mustarligimiz yo'q. Olloh sultonimizning davlatlarini yana-da ziyoda qilg'ay. Birgina mushkul bizni qiynaydur...

-So'ylangiz!-Sulton Xayyomga qattiqroq tikildi.

Xayyom mulohazakor va andishali ohangda dedi:

-Hazrati oliylari boxabardirlarki, rasadxonamizda ulkan usturlub (teleskop) bino etmoq yumushlari nihoyalanoqda. Vale sag'irni kabir etguvchi shishai olmos-zarrabinga ehtiyojimiz bordur. Bundayin olmos alkimyo ilmining ustolari bo'lmish majusiylar dargohida mavjuddir...

Sultonning ovozi keskinlashdi:

-Nechuk so'z? Aqchaga muhtojlig'ing'iz bormu? -Sulton turkiy so'zlarni aralashtirib so'zlardi. Bu, demak, uning hayajonlanayotganidan yoxud g'azabga kelayotganidan darak berardi. (Va umuman sultonning lafzidan uchguvchi "ng" tovushi "ng" tarzida eshitilardiki, bu uning asli turk o'g'izlaridan ekanligini eslatib turardi.)

Xayyom sultonning ovozidagi o'zgarishni majusiylarni tilga olganidan g'azablanayotganga yo'yib, biroz sarosimalandi.

-Mablag'ga muhtojligimiz yo'q. Xurshidi olamning himmati oliylari barcha yumushlarimizni bisyor ta'min etmish.

-Unda ne sabab?

-Men bu ishga ijozati oliyni olmoq istaginda so'zlab erdim. Illo Islom tayanchi bo'lmish sulton hazratlarining rasadxonasida majusiylarning buyumi...

Sulton Xayyomning so'zini bo'ldi:

-Xayyom hazratlari Rasuli Akram sallallohu alayhi vasallamning "Chindan bo'lsa ham ilm o'rganing", degan hadislaridin bizni

bexabar deb xayol qildilar chog'i.

Xayyom o'z fe'liga va ko'ngil mayliga zid ish tutib, xato qilganini angladi, sultonga itoatkorona bosh egdi. Shu mahal nigohi beixtiyor shoirlar amiriga tushdi. U Xayyomning mot bo'lganidan va uning sultonga malol so'z so'zlab, go'yo uni ranjida etganidan mamnun bir qiyofada rohatlanib turardi. Lekin u yanglishayotgandi, chunki olampanoh Xayyomni o'zgacha mehr ila yaxshi ko'rar, uning fe'lidagi mag'rurligi hamda to'g'riso'zligida turkiylarga uyqashlik sezardi. Shul bois ham hozir Umar Xayyomni og'ir ahvolga ro'baro' qilganligini fahmladi-da, navbatdagi ixtiyorini vaziri a'zamga ishorat etdi. Vazir sultonning farmonini oshkor qildi:

-Olampanohimiz fuzaloning peshvosi, osmon ilmining bilimdoni, shoir Umar Xayyom ibn Ibrohim janoblarini o'zlariga nadim etib sayladilar va u kishining yillik maoshlarini o'n ikki ming dinor qilib tayin etdilar.

Barcha "ofarin, tasanno" deya sultonni olqishladi. Qazviniy ham bu olqishlarga til uchida qo'shilsa-da, aslida Xayyomning toleidan adoyi tamom bo'lgandi. Axir o'n ikki ming-a! U bo'lsa bor-yo'g'i uch ming dinor maosh oladi, tag'in amirul shuaro degan nomi bor. Xayyomni esa Sulton o'ziga nadim etib sayladi. Bu degani podshohning eng yaqin kishisi, suhbatdoshi demakdir. Yo Olloh, bundayin baxt nechukkim unga nasib etmasa?! ha, mana shu nishopurlik paydo bo'ldi-yu shoirlar amirini o'sha baxtga olib borguvchi yo'llar to'sildi. Endi bu yo'llar Xayyom daf bo'lgachgina ochiladi. Qazviniy ayanchli tirjayib turar, ammo ich-ichidan otilib kelayotgan bir faryod bo'g'zini yorguday bo'lardi.

Sultonning ishorasi ila Xayyomning yelkasiga ham xil'at yopdilar.

Mashvarat yakun topgach, sulton vaziri a'zam va Xayyomga o'z huzurida qolishlikni buyurib, boshqalarga ijozat berdi.

Sultonning uni boshqalardan ayru ko'rganlagi ma'nosini tushunib va hatto bu yaxshilik ekanligini bilib tursa ham Xayyom o'zini qanday tutmoq lozimligini bilmasdi. Haligina mulohazasizlik ila aytgan gapi Xayyomni anchayin xijolatga solgan, shul bois ham mudom o'shal tuyg'u og'ushida edi. Asli bu so'zlarini vaziri a'zam janoblariga aytib, ruxsat olib, uni boxabar qilib qo'ysa ham bo'lardi. Ne la'in qavmi yo'ldan urdi-yu shu gapni olampanohga arz etib turibdi. Yo ash'ori tufayli izzat-ikromga sazovor bo'lgan amirul shuaro hasadi kelib, o'zining sulton hazratlariga nechog'li yovuq ekanligini namoyish etmoqchi bo'ldimi? ha, sultonning haligi so'zidan so'ng Qazviniy qanchalar huzur qilganligini sezdi...

Xayyom hukmdorlarga boz yaqin yurmoqlik, ularning oshnoligiga erishmoqlik ofatlar asosi ekanligini yaxshi bilguvchi edi. Lekin zamona zayliga binoan va yoxud Xayyomniki kabi maqomga sazovor odam uchun ularning nazaridan uzoqlashmoq ham yaxshilik alomati emasdi. Chunki bul zamonada dabdabali umr surmoq, ulug'lar, ya'ni ahli saroy, beku boyonlar ila oshnolik qilmoq, hamdavra bo'lmoq rusum edi va barcha shundayin tutumlar ortidan obro'ga erishmoq istardi. Mazkur taomili zamonadan kelib chiqib fikr etganda ham saroydan, ya'ni hukmdordan uzoqlashmoq aqlli odamning ishi emasdi. Nima bo'lganda ham undan xatolik o'tdi. Mana endi olampanohga ne muomalotda bo'lishligini bilolmay halak.

Sulton Malikshoh aqlli, ko'pda adolatli va Islomparast hukmdor edi. Valekin barcha hukmdorlar kabi xudbinlik qusuridan ham xalos emasdi. Do'stni qadrlash, siylash uning fe'liga xos ersa-da, vaqti-vaqti ila o'sha do'stning shoxiga bolta urib turmoq odati ham mavjud ediki, bu el aro hukmdorlik izzatini saqlamoq uchun qo'l kelardi. Buyuk saljuqiylar fe'lida avomga nisbatan sahro samumi (garmseli) yanglig' ilig'lik mavjud ersa-da, bu ilig'likning muntazamligi har qandayin nabobotni qaqratib-qaqshatmog'i tayin edi. Ha, ular islomparvar, ilmparvar, fuzaloparvar edilar, biroq bu oliy amallarning barchasi ularning shuhratparastliklari ila qorishib ketgandi. Ular, zotan sulton Malikshoh ham hokimi mutlaqlikka intilardilar va jami harakatlarida mana shu istak-xohish namoyon bo'lib turardi. Shu istak ortidan saljuqlar sulolasiga dohil mamlakat taxtini egallaganki kimsa o'z tevaragidagi taxtga da'vogar kishilarni qatliom etgan, hatto o'z jigarlarini ham ayab o'tirmagan.

Hijriy 428 yili Muhammad To'g'rubek otlig' hukmdor saljuqiy sultonlar sulolasiga asos soldi. Uni "Buyuk sulton, din va osoyishtalik tayanchi" deya atay boshlashdi. Filhaqiqat, bu qudratli saltanatning oliy hukmdorlari "Shahanshoi olam", "Mag'rib va Mashriq sultoni" nomli unvonlar ila ulug'lanardilar.

Bog'dod Islom xalifaligi butun dunyo musulmonlariga o'z hukmini o'tkazib kelayotgan bo'lsa-da, aslan endi saljuqlar sulolasi Islom olamiga hukmronlik qila boshladi. Aynan ular xalifa bilan barobar turguvchi "Islom olami sultoni" deya atalguvchi oliy hukmdor lavozimini joriy etdilar. Biroq sultonlik huquqini el ko'ziga rasman xalifadan olar edilar. Shunga qaramasdan, ularning hadlari chegara bilmas darajada keng edi. Ular islomiy xalqlar yashovchi barcha yerlarda hukmdorlik qilardilar. Bu hukmronlikni ushlab turmoq va rivoj toptirmoq uchun ayg'oqchilikka asoslangan hufiya xizmatlarga alohida e'tibor qaratardilar. Shuningdek, "dushman-ichingda" degan hikmatga amal qilib, o'z taxtlariga dahl qilguvchi har qanday jigaru qandoshning bahridan o'tmoqqa tayyor edilar. Ta'bir joiz bo'lsa, bu an'anaga ham Malikshohning amakisi sulton To'g'rubek asos solgan edi. Ya'ni unga qarshi bosh ko'targan o'z tug'ishgan inisi Innobekning isyonini bostirgach, uni bo'g'ib o'ldirishga amr etdi. Malikshohning otasi Alp Arslon taxtga o'tirgach esa og'asi To'g'rubekning unga qarshi bosh ko'targan amakilaridan biri Qutulmishbek ila savash qildi va shafqatsizlarcha bostirdi. So'ng o'z inisi, Karmon hokimi Kovurdbeq ila so'g'ishdi. Biroq inisiga omonlik berdi. Hsha Kovurdbeq o'tgan yilning ko'klamida Isfahon taxti orzusida Malikshohga qarshi bosh ko'tardi. Hamadon bo'sag'asida bo'lib o'tgan uch kunlik savashdan so'ng Kovurdbekning qo'shini tor-mor etildi va o'zi asir olindi. Ertasiga tunda Nizom ul Mulk maslahati ila u ham bo'g'ib o'ldirildi. Bu saltanat yaxlitligini va osoyishtaligini ta'minlamoq niyatida qilindi. Bunday sho'r qismatdan sultonning tug'ishgan inisi Muhammad Takashgina hoziriga omonda. Ammo uning oyoq olishidan vaziri a'zam hamisha ogoh turmoqqa urinadi. Chunki bir-ikki shubhalariga asos topa oldi. U ko'chmanchi elga mansub bu sulolaning biroz soddaligini bilib, qadrlasada, ularning payti kelganda o'ta shafqatsiz hamda tap tortmas bo'lib ketishlarini ham tushunar va shundan saqlanishga urinardi. Sulton Malikshoh zamona zayliga nechog'li sho'ng'imasin va vaziri a'zam ta'siriga qanchalar tushgan bo'lmasin, o'zining mustaqil fikrlari, orzu-o'ylari ham bisyor edi. U anchayin savodxon, tafakkurga suyangan, ilmu ma'rifatga yon bosgan, obodonchilikni xush ko'ruvchi, bunyod etmoqdan shodlanguvchi va shuningdek, kambag'alparvar hukmdor edi. Xayyom uning aynan shu sifatlarini qadrlar va bu fazilatlaridan ilm yo'lida naf olmoqqa sa'y etardi.

Sulton hazratlarining avomparvarligi haqidagi bir voqeotni vaziri a'zam ajib ehtiros va iftixor ila so'zlab bergandi: meva-yu sabzavot taqchillashgan bir kezda saroy xizmatchilaridan birovi bozorga tushibdi. U tarvuz sotayotgan dehqonning tarvuzidan bir dona olibdi-yu haqqini to'lamay jo'navoribdi. Jabrdiyda dehqon shu ondayoq saroyga yuguribdi, chunki u sultonning adolatesha ekanligini va arz etguvchilar uchun saroy eshigi hamisha ochiqligidan boxabar ekan. Sulton dehqonning totini (arzini) diqqat bilan tinglabdi. So'ngra

-Ul yuzsizni taniysanmu?-deya suroq qilibdi.

-Suratin faromush aylamishmen.-debdi afsus ila dehqon.

Bu suhbatdan keyin sulton hazratlari dehqonni panaga olib, saroyning jamiki xizmatchi-g'ulomlarini huzuriga chorlabdi.

-Qaniydi bittagina tarvuz bo'lsa, ko'nglim ani tusaydur. Nadomatkim aning mavsumi o'tmish.-debd u sasini samimiyatga yo'g'irib. Shunda haligi xizmatchi oldga chiqibdi-da, olampanohga yoqmoq istagida xushomad ila xonasida tarvuz borligini oshkor etibdi. Sulton dehqonni chorlabdi va u talanchini tanibdi. Fulomi aybini bo'yniga olgach, sulton uni dehqonga in'om etibdi va debdi:

-Bu senga g'ulom bo'lg'ay. Aning ixtiyori sendadur.

Alqissa, g'ulom o'zini dehqondan uch yuz dinorga sotib olibdi-da, ozod bo'libdi.

Bu voqeot vaziri a'zamning sulton hazratlariga bo'lgan ehtiromi mahsuli o'laroq ul zotning taxayyulida tug'ilib, mardumga taralganmi yoxud rostdan ham kechmishmi Xayyomga ravshan emas. Vale bundayin saxovatpeshaligu adolatni ulug'lamoq olampanoh fe'liga xosligiga boz inonadi. Shunday ekan, uning sulton hazratlaridan yomonlik kutmog'i asossiz edi.

Sulton Malikshoh taxtdan qo'zg'olib, viqor ila quyiga tusharkan, vaziri a'zam va Xayyomni o'ng yoqdagi xona sari boshladi. Ikkisi ham uning ortidan ergashdilar. Xayyom ikki sohibi davlat taqi buyuk saltanatning ustunlari izidan yurarkan, olampanohning boshi uzra yarqiragan, ayni damda o'zlari tark etayotganlari xonai xosning naqshinkor usutunlari-yu shifti yanglig' va ko'klamgi qirlardagi alvon chechaklarga mengzagan naqshin devorlari kabi ulug'vor ko'ringan sultonlik tojiga boqib, ko'nglida ajib bir huzurni his etdi. Huzur uning vujudini bir necha lahzalar ishg'ol etdi. U oddiy chodirdo'zning o'g'li bo'lmish faqir shoirning podshohlarga hamsuhbatlik sharafiga erishganligidan iftixoru g'ururga o'rangan insoniy qoniqishi, to'g'rirog'i, kibr edikim, buni anglamoqqa hamma ham qurb topolmasdi. Bandalik Xayyomga ham xos edi. Buning ustiga zamonaning zayli ham shu edi, ya'nikim odamlar yuqori martabali kishilar ila yaqinlik qilmoqqa, ahli saroy ila qarindosh bo'lmoqqa va ularning suhbatiga musharraflikka intildilar. Ahli zamonning baxtiyorlik taqi sharaflilik o'lchovi ana shundoq edi. Hozir Xayyomning borlig'ini siypalab o'tgan tuyg'u ana o'sha kechmishlarga yo'g'rilgan, biroq uning ruhiyatidan quvvatli bo'lmagan nafsiiy bir his edi. Hukmdor ularni tanavvul xonasiga yetakladi, demak, u vaziru nadimi ila tushlik qilmoqni ixtiyor etgan. Sulton ishorati ila anvoyi noz-ne'matlar to'la keng naqshin xontaxta tevaragiga o'ltdurdilar va Ollohga shukrona keltirib, yuzlariga fotiha tortdilar. Fulomlar xizmatga kirishdilar. Avvali harir libosga burkangan, qadamlari parvozga shay oqqushmonand go'zal kanizak obdasta va chilobchin keltirib, barchalarini qo'llariga suv tutdi.

-Umar Xayyom janoblarining bizga hamroh bo'lganliklaridan baxtiyormiz.-dedi sulton tabassum ila bosh silkib. Bu islomiy odob tamoyillaridan boxabar hukmdorning dasturxon hurmatidan qilgan mulozamati edi. Shuningdek, u bu bilan davraga iliqlik kiritmoqni ham istadi.

-Qulluq, olampanoh.-dedi Xayyom ta'zim qilib.

Taomdan so'ng shoir va sulton shatranj surdilar. Hukmdor bu donishmandlar o'yinini xush ko'rguvchi edi. Shul bois Xayyomdek kuchli raqib unga ikki hissa zavq bag'ishlardi...

Yettinchi bob

1

Bu yurtning ko'klamli o'zgacha-uning husnu tarovati va fayzini ta'rif etmoqqa har ne til ojiz, qiyosiga biron munosib hilqat topilmas. Shahar atrofida yastangan yaylovlar, qirlar sabz uradi, qirlarning yelkasiga opichgan tog'lar bag'ridan oqib tushayotgan daryo to'lib-toshadi. Havo on qadar g'uborsiz va xushbo'y bo'ladiki, xalqumlar achishib ketadi. Hali gulu chechaklar ochilmagani bois butun vodiya yashil gilam to'shab qo'yilganga mengzaydi, do'mpaygan qirlarni esa gilam tusiga uyqash yostiqlar degulik... Xayyom bolaligidan fasli bahorni yaxshi ko'radi, rutubatli qishning zulumatini quvib solguvchi ulkan chirog'ni olib kelgan go'zal pariya qiyoslaydi uni. Filhaqiqat, ulkan charog'-bu oftobki, u ko'klamda naqadar charog'on bo'ladi. Ko'z-ku bardosh etolmas, bardosh etganlari qamashur. Ko'k esa mislsiz darajotda taniqlashadi, qor uyumlarini eslatguvchi oppoq abrlar, ko'm-ko'k ummondagi kemalar yanglig' bir maromda suzadilar. Ko'ngullar bo'lsa ularning ortidan parvoz etmoq istaydilar. Ayniqsa, nazmga oshno ko'ngullar.

Xayyomning ko'klamni yaxshi ko'rishi rost. Ehtimol uning bu go'zal faslga bo'lgan mehri avvali-hov o'shal parvozlari chog'ida samoda tug'ilgandiru so'ng zaminga qaytgandir. Chunki bahor-bu Navro'z, Navro'z esa oldin yulduzlar chamanida tavallud topgan va keyin bashar farzandlariga in'om etilgan. Navro'zning qon tomirlari yulduzlarga tutashgan. Shuning uchun ham Xayyom esini tanibdiki yulduzlarga oshiq, Navro'z va ko'klamga maftun. U majusiylarning peshvosi bo'lmish Zardo'sht qoldirgan va ularning muqaddas kitobi sanalmish "Avasto"ni ham mutolaa qilib edi. Unda ham Navro'z haqida ko'p va xo'p so'z aytilmish. Zero majusiylar osmon ilmini juda puxta egallagan qavmdirlarki, yil va oylar hisobida, taqvim tabdili, yulduzlar hamda ularning joylashuvi, burjlar, umuman samoning zaminga, bashar taqdiriga ta'siri borasida ulardan ko'p narsa o'rganmoq mumkin. Bejiz mardum majusiylar dinini jodugarlar dini deb atamagan, chunki ular ilmida chuqur keta boshlaganlar. Xayyom bularni juda yaxshi bilardi, majusiylarning koinot ilmi, Navro'z va yil hisoblari to'g'risidagi kitoblaridan boxabar edi.

Majusiylarning hisoblari bo'yicha, Quyosh hamal burjiga kirgan kun Navro'z, deb atalardi, ya'ni o'sha kundan yangi yil boshlanardi. Ular yulduzlar harakatiga qarab har bir kun yoxud o'ning xislatlarini belgilay olardilar va o'z turmushlariga joriy etardilar. Misol uchun ular hamal oyini farvardin deb nomlardilar va bu oyni jannatga qiyoslardilar. Chunki bu muddatda nabotot olamiga jon kiradi dov-daraxtu giyohlarda tiriklik barq ura boshlaydi. Oftobning zaminga mehri ziyodalanadi.

Quyoshning savr burjida kechguvchi davrini ular urdbixshat oyi deb ataydilar. U ko'klamning ayni o'rtasidir, zamin yam-yashil libosga burkanadi. Undan so'ng xurdad oyi, tir, murdod va hakozo oylari keladi. Xayyom bularni juda yaxshi biladi va ularga ehtirom ila qaraydi. Hatto u nujum ilmi borasida majusiylarning dunyoni idrok etmoqqa asoslangan har turli falsafiy fikrlarini ham o'rgangan, ulardan foydalangan. Boisi shoir asrlar osha sobitlashib, bashar hofizasiga borayotgan ulug' bir hikmatga astoydil ishonardi. Bu "dunyodagi har bir ilm Yaratuvchiga eltadi", degan qadim va lekin oddiy fikr edi...

BJuyosh hamal burjiga kiradigan kuni erta tongdanoq shaharni va shahar tashqarisidagi ma'volarni nog'ora-yu surlarning tantanavor saslari tutdi. Bu saslardan nafaqat ahli bashar, balki hayvonot va nabotat ham ko'z ochdi. Dorussaltanat ahli-yoshu qari, erkagu ayol o'zlarining yangi liboslariga burkanib, shahar tashqarisidagi yaylovlar sari otlandilar. Shahar tevaragidagi qishloqlarning ahli ham o'shal keng yaylov sari oshiqdilar. Bu umum xush kayfiyat rasadxona joylashgan tog' yonbag'ridagi Bo'yra qishlog'i kishilariga ham xos edi. Bo'yraliklar ham subhi sodiqdan Navro'z tomoshalari bo'lib o'tadigan joyga tomon ko'chdilar. Oz fursatda butun vodiya bozormonand tomoshagoh tusini oldi. Avvaldan qazib qo'yilgan o'choqlarga ulkan qozonlar osildi va ularning ostida olovning qizg'ish tili ko'rina boshladi. Qozonlar atrofida gulgun yuzli suluv kanizaklar tizildilar. Ularning ilkida katta-katta yog'och kaftg'irlar bo'lib, sumalak pishirmoq uchun tadorik ko'rar edilar. Baayni Navro'zning xush taomi bo'lmish sumalakning sirru asroridan voqif sirli malaklar davra qurgandek.

Bir tarafda qator qilib o'rnatilgan dorlarga bo'g'izlangan qo'y va mollar ilingan. Pichoq tutgan qassoblar ularning terisini shilib, etu

ustixonlarini nimtalash ila band. Qassoblarning qo'li-qo'lga tegmas, chunki sulton hazratlarining amrlariga muvofiq bu yil Navro'ziy ma'rakalar uchun juda mo'l jonliq ajratilgandi. Nimatalangan etlar savatlarga solinib, maydon chetidagi turli taomlar uchun mo'ljallangan qozonlar boshiga eltiladi. Tabboxlarda ham bir lahza tinim yo'q, uni u yoqqa, buni buyoqqa yumush uchun yugurtirishib, har xil taomlarga moslab masalliqlar hozirlaydilar. Zero butun vodiy bo'ylab solinayotgan qator-qator dasturxonlarga hademay ilk taomlarni tortmoq joiz bo'lur.

Maydonning eng markazida joylashgan qir ustiga sulton Muhammad Jaloliddin Malikshoh uchun taxtiravon o'rnatildi.

Taxtiravonning har ikki yoniga olampanohning ahli ayoli, ya'ni malikalar va farzandlari uchun yumshoq oromkursilar qo'yildi. Bu oshyoni oliyning uch tarafi naqshinkor alvon gilamlar bilan to'sildi. Ustiga oftob nuri baralla tushib, olampanoh maydonning har burjidan bemalol ko'rinib tursin uchun oq harir mato yopildi.

Bir tomondan mutriblar-sozanda-yu xonandalar joy oldilar-da, hozirdanoq go'zal bir musiqiyini boshladilar. Bir yonga ulkan dor tikilib, uning ostida adl qomatli dorbozlar va qiyofalari kulgili alpozda bo'yab-bejalgan masxarabozlar tomosha ko'rsatmoqqa shay turardilar. Ulardan narida merganlik bahslari uchun maydon barpo etilib, bir necha turli-tuman hajmdagi qabaq yig'ochlari (nishonlar o'rnatilgan yog'ochlar) o'rnatilgan. U yerda kamonkashlar (yoy otuvchilar) yana boshqa mayda-chuyda tayyorgarlik ishlari ila ovoralar. Merganlar maydonining yonida esa butun saltanatning kent u qishloqlaridan yig'ilgan muborizlarning (pahlavonlarning) kuch sinashmoqlari uchun bir necha qavat kigizlar solinib, tappa-taxt qilib qo'yilgan kurash joylari ko'rinadi. U yerda yurgan va turli tan mashqlari ila mashg'ul bo'lgan haybatli muborizlar har nechuk e'tiborni o'ziga chorlab, ko'ngillarda zavq uyg'otadi. Bundan tashqari, odamlar ichra qora tanli hindiy morbozlar, olov yutib, olov purkovchi chiniy jodugarlar ham tomoshalar ko'rsatmoqqa hozirlanardilar.

Umummaydonning eng chetida turfa tusli va nasli turli otlar ko'zga tashlanadi. Otlarning yonida ham odamlar g'imirlaydilar -bular chavandozlar va ularning ko'makchilari. Alohida qo'rada turgan va tanalari lov-lov yonib, ko'zni qamashtirguday ko'ringan otlar esa sulton hazratlariga tegishli. Saljuqiy va aroabiy bu zotdor otlar shaxsan olampanohning nazoratida, e'tiborida turadi. Ota-bobolari asli sahroyi ko'manchilardan bo'lgan va jon rishtasining bir uchi otlar joniga tutashgan, chin eranga xos bu mardona ishq ila yongan sulton Malikshoh otlarni benihoya chevidi hamda o'zi ham benazir chavandoz, otlar hikmatini bilguvchi edi. Shul bois ham uning otxonasida o'z mamlakatining har chetidan jamlangan usta sayislar xizmat qilib, ularni otlarning chin bilgichlari bo'lmish ziyrak sinchilar nazorat etardilar. Ayni damda otlarga aralashib, ularni artib, har yoqlarini ko'zdan kechirib yurgan anovi o'tparast odamlar na shu sinchi-yu sayislar edilar.

Alqissa, Isfahonning osmonu zamini bir malohatli bayramning, bir ta'rifsiz shukuhning og'ushida edi...

Bu tong ancha erta bosh ko'targan oftob tezroq ko'k toqiga yetmoqqa oshiqardi. Havo kechagidan iliq, yoqimli bir shaboda yelib turibdi. Tanlar har kungidek junjikmaydi va aksincha, zarrin-zarrin nurlar eltguvchi oftobiy harorat xush yoqib, etlarni jimirlatadi. Ahli rasadxona ham ko'nglida Navro'zga esh go'zal bir zavq va junbush ila uyg'ondi. Ular ham hademay rasadxonadan chiqib, tantanalar manzili sari oqdilar. Xayyom Isfazariy, Vositiy, rohib Artur va boshqa olimu tolibi ilmlarga bosh bo'ldi. Ularning ortidan esa rasadxona qurilishida ishlovchi hunarmandlar, xizmatkoru ahli ayol hamda kanizaklar ergashdilar. Bayram boshlanayotgan maydonga yetishgach, barchalari o'z to'plariga qo'shildilar. Xayyom va boshqa ahli ilmlar esa taxtiravon bo'sag'asida olampanoh tashrifiga muntazir bo'lishib, qo'l qovushtirdilar. U yerda vaziri a'zam mustasno ja'mi arkoni davlat ham hozir edi.

Nihoyat shahar tomonda sur chalinib, qator-qator tizilgan yarog'li sarboz va sipohiyar darvozadan chiqishib, chopganча ikki yoqqa ayrila boshladilar. Ular ustlaridagi sovut va quollarini shaqirlatishib, bir maromda yugurganча, havasli tartib ila yaylov tevaragiga saflanib, xalqa hosil qildilar. Ayonki, bu harakatlar Sulton hazratlarining omonligini ta'min etmoq niyatida amalga oshirilardi. Raiyatning intiq nigohi o'sha yoqqa qadaldi.

Sarbozu sipohiyar maydonni o'rab bo'lishgach, shahar darvozasida yarim yalang'och temirdek qop-qora tanlari moy surilganidan yaltiragan, yelka va bilak poylari bo'rtgan zanjilar paydo bo'ldilar. Yigirma-o'ttiz chog'li bu qullarning ortidan Sulton Malikshoh o'ltirgan ko'shk ko'rindi. Ko'shkni ham o'n nafar habashiy qul ko'tarib kelmoqda edi. Sulton ko'shkidan so'ng ko'ringan malikalar Zubayda Xotun va Turkon Xotun joylashgan ko'shklarni ham zanjilar yelkalab kelardilar. Ulardan keyin kelayotgan kichkintoy shahzodalar-Mahmud, Bekyoruq, Muhammad, Sanjar va sohib devon Nizom ul Mulk mingan otlarning har birini bittadan qul yetaklab olgandi. Oxirida yana yigirma-o'ttiz nafar zanjii ergashib kelardi.

Xaloyiq ikkiga ayrilib, sultonga yo'l berdi va bosh egib, ta'zimda qotdi. Taxtiravon tarafdan bir necha jarchilarning aks sado yanglig' bir-biriga ulangan baland ovozlari eshitildi:

-Din va shariat tayanchi, fuqaroning suyanchi, olam musulmonlarining buyuk amiri, Iskandari soniy, xurshidi olam sulton Muhammad Jaloliddin Malikshoh ibn Alp Arslon hazratlari!..

Sulton ko'shkdan tushib, taxtiravon oldiga keldi va boshini xiyol qimirlatib, fuqaroga salom berdi hamda ularning olqishiga javoban o'ng qo'lini ko'tarib, yengil silkindi. So'ngra o'ng yonidan joy olib, qo'l qovushtirib turgan a'yonlarga ham bosh silkib o'tdi. Malika va shahzodalar so'l tarafdagi o'rindiqlarga o'ltirdilar.

Oradan biroz muddat o'tgach, suru nog'oralar ovozi, olqishu hayqiriqlar tindi, hammayoqqa jimjitlik indi. Endi marosimning asosiy qismi boshlanmog'i lozim edi. Filhaqiqat, sulton qoshida bir necha kishi paydo bo'ldi. Ular oppoq bo'z libosda edilar. Ulardan biri -oq soqoli ko'ksini qoplagan basavlat chol qo'lida patnis ila sulton qoshida tiz cho'kdi. Patnis to'la bug'doy edi. Sulton o'rnidan turib, "Bismillahir rohmanir rohiym", deya ilkiga bir siqim bug'doy oldi. So'ng shunday dedi:

-Ilohi rizq-ro'zimizni bisyor, iymonimizni basalomat, umrimizni barakotli qilsin, omin!

Jarchilar sultonning lafzini baland ovozlari ila atrofga taratdilar. Xaloyiq "Omin! Omin!" deya ularga jo'r bo'lib hayqirdilar.

Sulton qo'lidagi bug'doyini havolatib, atrofga sochdi va bu sa'yini uch bora takrorladi. U go'yo yurt uzra xayru barakot urug'ini sochdi. Jarchilar ertadan boshlab yerga urug' qadamoqqa ijozat bo'lganligini xalqqa oshkor qildilar.

Endi boyagi farishta misol chol ilkidagi patnisni so'l yonidagi odamga berib, o'ng yonidagi hamrohidan Kalomullohni oldi va o'pib, ko'zlariga surdi. U Ollohning Kitobini ikki qo'llab Sulton tomon cho'zdi va yana tiz cho'kdi. Olampanoh "Bismilloh" ila Kitobni tutib, o'pdi va ko'zlariga surdi. So'ng unn ilki ila bag'riga bosdi. Xaloyiq "Olluhu Akbar" deya na'ra tortdi. Bu bilan hukmdor mamlakatni ilmu irfon va adolat ila boshqarmoqqa va'da bermoqda edi.

Chol ikkinchi hamrohidan oltin sopli va qinli kattakon shamshirni olib, taqi tiz cho'kkanча Sulton hazratlariga uzatdi. Malikshoh so'l ilkida shamshirni tutib, boshi uzra ko'tardi va "Olluhu Akbar" dedi. Barcha unga ergashdi. Bu uning yurtini, dinu iymonni hamisha mardona himoyat etmoqqa, g'animga ayovsiz bo'lmoqqa ahdu paymon qilganligidan nishona edi.

Sulton o'z o'rniga o'ltirgach, muhtasib Badriy go'zal bir ovoz ila Qur'on tilovat qildi. Oftobning zarrin va iliq nurlariga, tog'ning

mayin shabodasiga Ollohning asrorli kalomi qorishib, mardum vujudini yoqimli jimirlatdi. Sura nihoyasiga yetgach, uning savobini hazrati Mustafo Muhammad sallallohu alayhi vasallam, jamiki anbiyoyu mursalin sahobai kirom, halifai roshidin, aziz avliyolar va sulton Malikshohning ota-bobolari ruhlariga baxshida etdilar.

Shundan so'ng nog'ora-yu dovullar zarblanib, mardonavor va haybatli bir tovushlar majmui vujudga keldi. Bu sarboziy raqsga ishorat edi. Ikki tarafdan jangovar liboslarda, qo'llarida hilolsimon shamshirlar tutib, ajib bir shiddatli harakatlar ila kirib kelgan eran davra qurib raqs eta boshladilar. Shuningdek, ular raqs asnosida shamshirlar ila bir-birlariga hamla qilib, baland ovozda hayqirib ham qo'yardilarki, unda chinakam ulug' muhorabalaridagi manzaralar namoyon bo'lib, "yo hu, yo, hu!" degan na'ralar quloqlarga chalinganday tuyulardi. Ushbu ko'chmanchi jangchi qavmning mardona raqsi edi.

huzuri muborakda boshlangan raqs asnosida ijozati oliy ila butun maydon uzra bayram tantanalari boshlanib ketdi. Xayyom vaziri a'zamga bilinar-bilinmas ishorat etib, arkoni davlatning orqarog'ida turgan ahli rasadxona orasiga keldi. Uni ko'rib Isfazariy o'z odaticha hazilomuz ohangda dedi:

-Ustoz bu kun chavandozlikda o'zlarini namoyon etadilarmi yoxud mardlar muhorabasidami? -U Xayyomning har subhida qilguvchi jismoniy mashqlarini va otlarga bo'lgan mehru muhabbatini juda yaxshi bilardi. Shuning uchun ustozining ko'nglini topib, erkalik qildi. -Balki nazm bahsini ixtiyor etarlark?

Xayyom Isfazariyga mug'ombirona jilmayib boqarkan, dedi:

-Sezabon mashqi ila band bo'lganda, biz chavgon o'yiniga mayl bildirurmiz. Filhol, chavgonchilar maydonga tushsa, bizni boxabar etursen.

Atrofda yengil kulgu ko'tarildi.

Shundan so'ng Xayyom egniga qora rido kiyib, beliga zunnor bog'lagan rohib Arturga bir maxfiy so'z aytmoqchiday bo'lib qayrilgan edi, yonidagilar odob yuzasidan ulardan e'tiborlarini olib, xiyol nari surildilar. Rohib Artur o'rta bo'yli, keng yelkali, cho'ziq, katta yuziga qora pahmoq soqoli monand tushgan odam edi. Uning qoshlari yo'g'on, qop-qora, ko'zlarining qorachilari ham tim siyoh va katta edi. U kishiga dastlabiga olaygandek boqar, chehrasi suhbat mazmunining og'ishiga qarab, asta-sekin ochilib borardi. Yoshi elliklardan oshgan bu armani rohib ilmi nujum va ilmi handasa-yu tarohlik bobida ancha mohir edi, boz ustiga nasroniy hamda majusiylarga xos sehr-jodudan ham boxabar edi. Ehtimol musulmonlikni qabul etmay, beliga zunnor bog'lagani ham shundandir.

Saljuqiylar sultonlar qaysi yurtini fath etsalar, u yerdagi ahli ilm, shoiru hunarmandlarning eng zo'rlarini o'zlarining bosh kentlariga keltirardilar. Rohib Artur ham Malikshohning padari buzrukvori sulton Alp Arslonning Arman yurtiga qilgan yurishi chog'ida Isfahonga olib kelingandi. Hshanda uning xotini va Maryam ismli qizalog'i bor edi. Xotini Isfahonga kelish paytida bezgak hastaligidan vafot etdi, qizi Maryam esa hozir bo'yiga yetib, mislsiz bir sohibjamolga aylangan.

-Necha kunkim Maryam ko'rinmaydur, sihati durustmi ishqilib? -so'radi Xayyom chin dildan qayg'urib.

Artur uning samimiyatini juda yaxshi bilardi, shul bois qondoshlarcha qilgan muomalotiga monand javob berdi:

-Rayhona qiz yo'qolganidan buyon xonanishin bo'lib qoldi. Bilasiz-ku ikkisi juda inoq edilar.

Xayyom dom-daraksiz ketgan Rayhona va uning ishqida bir kechada g'oyib bo'lgan Mahmudni eslab, og'ir bir xo'rsinib qo'ydi.

Yaxshiki, uning qorong'ilashib borayotgan ko'nglini Arturning ovozi qayta yoritib yubordi:

-Shukrki, u bu kun bayramga chiqdi. Hov, ana, quyida qizaloqlar ila o'ltiradur.-deya Artur maydonning eng chetiga ishorat etdi.

Xayyom nigohi ila Maryamni axtararkan, o'ziga qadalib turgan o'tkir bir nigohni his etdi-bu malika Turkon Xotunning nigohi edi.

U xiyla uzoq bo'lishiga qaramay, Xayyomga qattiq tikilib turardi. "Muddaosi nedur?" degan fikr o'tdi shoirning xayolidan va o'zini chalg'itmoqqa urindi.

-Abul Muzaffar!-deya chaqirdi Isfazariyni.

-Labbay,ustoz.-dedi yosh olim unga yaqinlashib, qo'l qovushtirarkan.

-Chavgonchilar ne bo'ldi?- hazilkash tarzda so'radi Xayyom.

-Nazarimda hozirlanmoqdalar.

Xayyom sulton qarshisiga o'tib, ta'zim qildi va ushbu tavozezi ila bir ishga jazm etganini bildirdi. Sulton jilmayib bilinar-bilinmas bosh silkib, ijozat ishorasini qildi. Shoir ayni damda ham Turkon Xotunning o'yib yuborguday nigohini his etib turardi, biroq u tomonga qaramoqqa jazm qilolmadi. Chetroqqa chiqib, egnidagi jubbasini (kiyimlar ustidan kiyiladigan uzun gulli libos) va sallasini yechib, Isfaraziyga berdi-da, boshiga taqyasini kiygancha so'l tarafdagi otliqlar davrasi tomon ketdi. Bosh sayis unga eng yaxshi otlardan birini keltirdi. Cho'g' misol yaltirayotgan uzun yolli ot juvonmard bir holatga tushgan Xayyomning zavqini taqi oshirdi. U otlarga begona emasdi, bolaligidan ularning zotlarini bilar, u paytlar otasi ila dalada yurganida, so'ngroq Buxoroda yashaganida ham chavandozlik mashqini olgandi. Bu borada unga chapdastligi, chayir ilki va oyoqlari ko'mak berardi. Shuning uchun sakrab otga mindi-da, qo'lga eman daraxtidan yasalgan chavgon tayog'ini olib, bir hayqirib, o'zini otliqlar davrasiga urdi... Chavgon o'yini tinimsiz hayqiriq va na'ralar ila tomoshabinlarning olqishlari ostida ancha davom etdi. Nihoyat intihoga yetgach, Xayyom terga botgan ko'yi taqi sultonga ro'baro' bo'lib, ta'zim bajo etdi. Hukmdor uni chin ixlos ila olqishladi va bir hamyon tillo hadya qildi.

-Biz janobi Xayyom hazratlarini olimlarning olimi, shoirlarning shoiri, samo toqiga narvon qo'ygan zot deb yursak, ul siddiqimiz chavandozlar chavandozi ham ekanlar?-dedi sulton o'z hayratini yashirlamay.

ham tinimsiz jismoniy harakat natijasida, ham oliy maqom olqishdan vujudi lov-lov yongan Xayyom boyagi nigohni tag'in his etdi...

Bu orada huzuri oliyda mushoira boshlanib, shoirlar navbatma-navbat ash'orlar aytdilar. Ash'orlar asosan sulton Malikshoh va saljuqiylar sulolasi madhida edi. Bu nazm bahsida amirul shuaro Qazviniiy muzaffariyatga erishib, hukmdorning tuhfasiga sazovor bo'ldi.

Kurash maydonida bo'lgan muborizlar muhorabasida Isfazariy va Rindoniyni qistovi ila Mikoil ham ishtirok etdi. U fuzalo va toliblarning olqishu rag'batlari ostida bir necha pahlavonlarning yelkalarini tuban etdi. Biroq saroy muborizlaridan bo'lmish bir filmonand turkmanga bel berib qo'ydi. Shunga qaramay, vaziri a'zamning xos hadyasiga musharraf bo'ldi.

Namozi peshinga yaqin sulton o'z ahli ayoli va arjumandlari ila vodiyni tark etib, shahar ichkarisiga yuzlandi. Namozdan so'ng avomning bayram shodiyonalari taqi davom etdi.

biroz quyida edi. Uning suvi bir qadar loyqalangan va shuningdek, ko'payib, ikki sohilining qaboqlari ostiga bosh urib oqardi. Daryo suvi pasayganda ko'rinib qolguvchi ikki qirg'oqdagi toshloq hozir suv ostida qolgan, shuning uchun ham daryo bir qarashda g'oyat vahimali tuyuladiki, bu uning rostdan-da ulug'vorligini namoyon etadi. Umar Xayyom vodiyan ancha pastlab, daryoning tik sohilidagi yashil g'iyohlar ustiga cho'nqayib, shitob oqayotgan suvga tikildi. Shovqin-suronli bayram og'ushi do'ng ortida qolgan, u o'ltirgan joydan ko'rinmasa-da, odamlarning ovozlari baralla eshitilib turardi.

Daryo tog'dan, ya'ni yuqoridan tushayotganligi bois juda tez oqardi. Ehtimol uning kishi ko'ngliga vahm solmog'i ham ana o'sha tezligidan bo'lsa-da ajabmas. Zero suvning shashti ko'zni toldiqtirar darajada edi.

Xayyom ana o'sha tezeb suvga tikilib o'ltirarkan, qoshlari kerilib, ko'z kosalari kattalashganday bo'ldi-da, shuurida mahzun o'ylar aylana boshladi. Odam umri ham xuddi shu suv kabi juda shitob oqib o'tib ketarkan. Goho yon-vertingga qayrilib qaragani ham ulgurmayсан. Hatto hayotingning eng totli onlarini yashayotganligingni ham o'z vaqtida payqamaysan. Faqat fursat boy berilganidan so'nggina... U ham yaqindagina bola edi, rahmatli qiblagohining panohida sho'x-shodon umr kechirayotgan kitobsevar bolakay edi. Otasi oddiy hunarmand bo'lgani bilan goho ko'p hikmatli gaplarni topib gapirardiki, Abul Fath jon qulog'i ila tinglardi. Balki chodirdo'z Ibrohimning bundayin hikmatlarni topib so'zlashi uning dunyo va yoxud ko'pni ko'rganligidan bo'lsa ham ajabmas. Qolaversa, Nishopur juda qadim maskan ediki, uning kechmishi yuzlab hikmatli kitoblarga jo bo'lardi. O'sha kuni ham ular shahar tashqarisiga zaminkorlikka chiqqandilar. Tuyqusdan otasi Ibrohim Adham g'origa bormoqlikni istab qoldi. Naql qilishlaricha, Shayx Ibroxim Adham ibtidoda podshoh nufuzida bo'lgan ekan. Kunlarning birida o'z taxtida o'ltirarkan, saroy tomidan g'alati tovush eshitibdi.

-Bu nening ovozi? -deya so'rabdi u.

-Tuyani qidirayapman.-degan ovoz kelibdi.

-Tuyani tomning ustida qidiradimi?- debdi u hayrat og'ushida.

-Ey, g'ofil, sen haqni toj-taxt va saroydan qidirmadingmi?! -debdi g'oyibona ovoz.

Ibrohim Adham qattiq mutaassir bo'lib, yomon ahvolga tushibdi va podshohlikni a'yonlariga topshirib, puldor kiyimlar kiyibdi-da, sahroga bosh olib chiqib ketibdi. Bir joyda tavbai nasuh (sof holda, qayta gunoh etmaslik ahdi ila qilinadigan tavba) qilibdi.

O'shanda saholarni kezib Balxdan Nishopurga kelibdi va mana shu g'orda to'qqiz yil xilvat tutibdi. U har payshanba g'ordan chiqib o'tin terar va Nishopurga olib tushib sotarkan. Yarim pulini darvishlarga berib, yarmiga o'zi uchun yemish olarkan. U sidq ila ko'p ulug' maqomotlarga yetishgan valiydardan, mashoyihlardan edi. Otasi bormoqni ixtiyor etgan g'or mudom shayx Ibrohim Adham nomi ila atalardi. Umuman Nishopur shahri va uning atrofida bunaqa ziyorat joylari, xonaqohlar bisyor bo'lib, bu azim kentda juda ko'p aziz avliyolar yashab o'tgandi. Hshanda otasi g'or ichida Umarni hamroh tutib, ikki rakat namoz o'qidi. Ko'p yaxshiliklar, o'g'liga ulug' martabalar tilab, duolar qildi. So'ng uni g'or yaqinidagi buloq boshiga olib bordi. Muzdek buloq suvidan qonib ichdilar va otasi buloqqa tikilib o'tirib, mana shu rivoyatni so'zlab berdi:

-Qadimda bir savdogar yashagan ekan. U savdo sotiqlik bilan juda ko'p yurtlarda bo'libdi, katta boylik to'plabdi. Kunlarning birida navbatdagi kent darvozasiga yaqinlasharkan, shundayin manzaraning guvohi bo'libdi: bir zaminkor omochda yer haydar, lekin omochni ot emas, terga botgan qul tortib borardi. Savdogar yumshoq ko'ngilli edi, shul bois qulga rahmi keldi. Qul va uning xojasini yoniga chorlab, qulni sotib olib, ozod qilish istagi bor ekanligini bildirdi. Biroq qul savdogarni hayratga qorib, avval minnatdorchilik bildirdi, so'ng uning taklifini rad etdi va uni sotib olishida ma'no yo'qligini aytdi. U savdogar va uning karvoniga xotirjam boqarkan, dedi:

-O, muhtaram zot! hamma narsa o'tkinchi, bu ham o'tadi.

Savdogar mulzam bo'libdi-da, bir so'z aytmasdan yo'liga ravona bo'libdi.

Oradan bir necha yil o'tib, ittifoqo savdogar taqi o'sha shaharga kelib qolibdi. Biroq u haligi voqeani allaqachon xotiridan ayirgan ekan. Xullas, mollarni o'z vaqtida sotib, katta foyda olibdi va taomilga ko'ra barcha tujjorlar ila o'sha yurt hukmdorining huzurida bo'libdilar. Hukmdorga qimmatbaho sovg'alar in'om etibdilar, u esa mehmonlar sharafiga katta bazm uyushtiribdi. Savdogar to'kin dasturxon ustida o'ltirarkan, banogoh o'zi bir vaqtlar qullikdan ozod etmoqni istagan hov o'sha odamni ko'rib qolibdi. U qimmatbaho liboslarga burkanib, podshohning o'ng yonida o'ltirardi. Nihoyat uning, ya'ni sobiq qulning bosh vazir ekanligidan xabar topgach, lol bo'lib qolibdi.

Vazir ham eski tanishini eslabdi va bazmi oliydan so'ng o'z uyiga taklif etibdi. Mehmoniga qimmatbaho in'omlar berib, o'z tarixini hikoya qilib beribdi: shahar behisob yog'iy qurshovida qolib, podshoh chorasiz ahvolga tushibdi. Qul taqdir taqozosi ila hukmdorga ro'baro' bo'libdi va yog'iy o'rtasiga nizo solib, bir-biri bilan urishtirib qo'yish tadbirini aytibdi. Hukmdor uning aytganini qilibdi va zafar qozonibdi.

Vazirning bu g'aroyib sarguzashtidan yanada hayratga tushgan savdogar so'rabdi:

-Bu ne? Boshingizdan kechirgan azob-uqubatlar evaziga taqdirning in'omimi yoki?..

Vazir miyig'ida kulib, xotirjam debdi:

-Hammasi o'tkinchi, bu ham o'tadi!

Savdogar lolu hayron holda shaharni tark etibdi.

Taqi bir necha yil o'tibdi. Savdogar o'zining tijoriy yumushlari ila tag'in o'sha shaharga kelib qolibdi. Eski tanishi bo'lmish vazirni yo'qlagan ekan, yurt podshohining vafotidan so'ng bosh vazir uning o'rniga o'ltirganini aytishibdi. U kechqurun podshoh qabuliga kiribdi. Yangi hukmdor uni iliq kutib olibdi va duru javohirlarga ko'mibdi. Tun bo'yi inson umri va unig boshiga tushguvchi turfa kechmishlar haqida suhbatlar qurishibdi. Nihoyat savdogar podshoh sha'niga hamdu sanolar aytib, bu bu martabaga chindan munosib ekanligini izhor etibdi. Shoh hech narsa demabdi. Faqat xayrlashuv oldidan muloyim ovoz ila o'zining doimgi gapini aytibdi:

-hammasi o'tkinchi, bu ham o'tadi!..

Oradan yillar o'tib, savdogarning yo'li yana shu shaharga tushibdi. Shaharga kiribdi-yu sovuq xabar eshitibdi-uning qadrtoniga aylanib qolgan podshoh yaqinda qazo qilgan ekan. U chinakam qayg'uga cho'mib, do'sti qo'yilgan mozoristonga boribdi va uning qabri ustida o'ltirib, qur'on tilovat qilib, unga Ollohdan ulug' ajrlar tilabdi. Ko'z yoshlarini artib, sag'ana toshiga bitilgan tanish so'zlarga ko'zi tushibdi: "Bu ham o'tadi". Savdogar faryod uribdi, umrning behaholigini eslab oh tortibdi va ushbu so'zlarni aytibdi:

-O, mening birodarim, bu safar sen yanglishding! Bunisi o'tmaydi!

Ma'lum muddat o'tib, keksaygan, soch-soqoli oqargan savdogar yana o'sha tanish shaharga kelibdi. Har safargidek o'zining savdo-

yostiqliklarini yakunlagach, do'stining qabrini ziyorat qilmoqchi bo'libdi. Valekin har qancha izlamasin mozoristonni topolmabdi. Odamlardan so'roqlabdi. Aytishlaricha, uch yil avval ko'klam chog'i shahar chetidagi daryo toshib, ko'p ofatlar keltiribdi. Quturgan to'lqin hatto mozoristonni ham tekislab ketibdi. Filhaqiqat, uning o'rnida qaqragan biyobon yotardi. Savdogar biron so'z aytmabdi-da, o'sha kuniyoq shaharni tark etibdi...

Otasi so'zini tugatib, buloq suviga o'ychan tikilib qoldi. U o'z rivoyatini berilib hikoya qildi, bu bevafo dunyo uning o'ziga ham vafo qilmasligini his etib, so'zladidi. Balki u bu rivoyatni biron bir darvishdan eshitgandir, chunki Nishopurda darvishu zohidlar mo'l bo'lguvchi edi. Ularning va'zlari, karomatu maqomatlari og'izdan og'izga ko'chib yurardi. Biroq otasi bu rivoyatni go'yo o'z boshidan kechirgan misol hikoya qildi. Shuning uchunmi, Umar o'zini o'shanda juda g'alati his qilib, ajab holga tushgandi. Hali bola bo'lsa-da, bir necha kun halovatini yo'qotib, na yemoq-ichmog'ida va na uyqusida orom qolmagandi. Hozir ham huddi ana shunday ahvolga tushdi, shiddat bilan oqayotgan daryoga tikilarkan, yuragi orziqdi. Nimalarnidir istab, bag'ri o'rtandi, ko'zlarining cheti jizilladi. Chuqur bir xo'rsindi-da, "hammasi o'tkinchi", dedi ovoz chiqarib. Ayni damda qalbida jo'sh urgan tug'yon ila miyasida uyg'ongan fikr uyg'unlashib, she'riy satrlarga aylandi:

Loladek qadah tut Navro'z ayyomi,
Lolayuz yor ila xushdir dil komi.
Shodlik ila may ich, firuza falak
Tuproq qilur oxir, shul ish anjomi.

U yutoqib bag'rini siladi. Hozir unga na bahoriy salqinlik va na ayqirib oqayotgan daryoning etni junjiktiruvchi salqin shabadasi ta'sir qilmasdi...

Ortidagi sharpani sezib, chap yelkasi osha o'sha yoqqa qayrildi. Bir necha qadam narida peshonaband ila bostirilgan harir ro'ymoli yel og'ushida maftunkor hilpiragan Maryam hijolatli boqib turardi.

-Fikru o'yingizga zavol bo'ldim, uzr ustod!- dedi u yuzi ollanib,-Assalomu alaykum.

Xayyom fikrini jam etguncha bir muddat esankiradi va salomga alik olarkan, o'rnidan turdi. U bu bemisl go'zal hilqat ila ro'baro' kelarkan, taqi ichidan bir narsa sug'urilib chiqayotganini, o'zining ikkiga ayrilayotganini sezdi.

Filhaqiqat, Maryamning tim qora armani ko'zlari jon olg'uvchi edi. Bu ko'zlarni asramoqqa shay turgan paykonlar qayrilma bo'lib, tim qora qoshlarga tutashib ketgudek. Yuzi shu qadar pok va oqki, qaragan sari taqi qaramoq istagan ko'zlar tez toliqadi. Lablari pushtiga moyil, chetlari yuz qismidan tiniq chiziq ila ajratilgan misol. Ular tez-tez qimtinib turar va qimtinganlari sarin labi ustidagi qop-qora xoli ham harakatga kelardiki, bu hari nechuk qalblarga o'rtanish solmog'i ayon edi. Xullas, kunduzi daryo bo'yiga tushgan to'lin oy ko'klam quyoshidan ham oydin ko'rinib, hammayoqni ko'zlarni qamashtiruvchi, dillarni sim-sim oqizguvchi nurga chulg'adi.

Xayyom har safar Maryamga to'qnash kelganda, allanechuk tug'yon va tebranihlarga giriftor bo'lar, goho qayerda turgani, mudaosiyu aytmoqchi bo'lgan so'zlarini ham faromush etardi. Vujudida olov yonib, qoni qiziy boshlaganini betakror huzur va sarxushlik ila yaqqol his qilardi. Balki bu ehtirosli kechmishlarga ayni kuchga to'lgan yigit yoshidagi Xayyomning shoir qalbi boisdur va ehtimol Maryamning hurkak ohu kabi zohiri ostidagi bir qadar erkinu ozod fe'li, musulmon qizlariga aksil o'laroq dadilligi yoxud erkalikka mengzagan sho'xligi sababdir. Ne bo'lganda ham Xayyom uning qoshida huzurbaxsh bir otashda qovrula boshlardidi.

-Zavol ne, shirin xayollaringa hayot baxsh etding, Maryam, marhabo! -Ayni damda Xayyom o'zini idora etolmay, sarosimalanmoqda edi. -Nechuk tanhosen?

Qizning kipriklari silkinib, shoirning bag'riga taqi o'q otdilar.

-Rayhonani unutmog'ga o'zimdiki kuch topolmasmen. Sho'rlikkinaning holi ne kechdi ekan? -Maryam forsiyda bexato, lekin yoqimli bir talaffuz ila gapirardi.

Ikkisi sohilda suvga tikilganicha mahzun turardilar. Xayyom Rayhona haqida Maryamning ko'ngliga taskin berguvchi biron so'z aytmoqqa ojiz edi.

-U g'oyib bo'ldi-yu men uchun so'zlashgulik hamroh, do'st qolmadi. -Maryam hamon suvga tikilib so'zlardi. -Rayhona ko'p tafakkurli qiz edi, ko'p kitob o'qirdi. Qancha she'ru g'azalni yod bilardi. -U so'zlardi-yu ko'zlaridan yosh oqardi va ularga yana-da qarolik baxsh etardi. -Uni esladimu yuragim siqildi, tanholikni istab qoldim. Bu tomon yursam, baxtinga siz turibsiz!

Xayyom qizning rostmona yig'lab, anduh chekayotganini ko'rib, achinib ketdi.

-O'zingni azoblama, Maryam, balki qizginani Mahmud topib kelar. Oллоh xohlarsa, hech gap emas. -U qizni chalg'itishga urindi. -Hzing nechuksen? Padaring ila rasadxonada qiynalmayapsizlarmi?

Maryam bir entikib, ilki ila ko'z yoshlarini artidi.

-Shukr qiynalganimiz yo'q. Vatandin o'zga hamma narsa muhayyo, ustod.

Xayyomning bag'ri o'rtanib ketdi, chunki qizni kichik darddan olib, kattasiga otganini fahmladi.

-Har kun mana bu tog'larga boqib, Vatanimni, onajonimni eslaymen. Bu yerning tog'lari arman tog'lariga juda o'xshash, lekin bu yerda tuproq, giyoh mo'l, bizlarda esa tosh. Bu yerning havosi xushbo'y, bizniki bo'lsa yengil va musaffo!- Maryam chuqur bir sog'inch ila gapirardi.

Xayyom taqi so'zsiz qoldi, tiliga keltirgulik taskinli so'z topa olmadi.

Qiz sezgir edi, Xayyomning ahvolini angladi.

-Uzr, ustod, dilingizni xira torttirdim.

Bir tomoni Maryamning Xayyomni o'ziga yaqin olib, bu so'zlarni gapirishi unga xush yoqardi ham.

-Ha, aytganday, otam nechukdir keyingi kunlarda kamgap bo'lib qoldi. Dilidan halovat arigan ko'rinadi. U kishi sizning suhbatingizni xush ko'radi, balki...

Xayyom qizning muddaosini tushundi.

-Albatta gaplashaman.-dedi qizni erkalovchi bir ohangda...

Sakkizinchi bob

Javzo kirib, koinot tiniqlashdi va shu vajhdan ham rasadxona yumushlari jadallashib qoldi. Samoparast olimlar kecha-yu kunduz

osmon ila tillasha boshladilar. Rasadxonaning usturlob o'rnatilgan keng xosxonasi olimu toliblar ila gavjumlashib, goho bahs-munozaralar yoxud ilmi nujumga oid va'zlar ham jonlanmoqqa tushdi. Osmon, xususan, yulduzlar siru sinoatga boy bo'lganligi va ularning qisman inson taqdiriga tutashligi dunyoni anglash talabidagi boshlarni o'zi sari chorlab, ularga kun sayin mo'jizalar va'da qilaverardi.

Rasadxona tog' yonbag'rida joylashgandi va shul bois uning asosiy katta gumbazi ortidan tog' cho'qqilari qorayib ko'rinib turardi. Xayyom majusiylardan olib kelingan shisha zarrabinni usturlobga o'rnatib, kuzatishlarini davom ettira boshladi va bu bilan go'yo ko'k toqiga nigohi yetadigan bo'ldi, majozan unga narvon o'rnatdi. U shogirdlari Isfazariy, Vositiy va boshqalar hamrohligida yulduzlarni o'rganarkan, shu bilan birga ularning Mirrix, Mushtariy kabi sayyoralarga nisbatini, harakatu hajmlarini ham aniqlashga, kuzatmoqqa tushdi. U yangi taqvim yaratishga kirishganligi bois yulduzlarning o'n ikki burjini o'zida mujassam etgan Samon yo'li (Zodiak) turkumini o'rganmoqqa astoydil bel bog'ladi. Zero sirli samoning bashariyat taqdiriga tutash manzillari ham aynan shu turkumda edi. Ehtimol samo mehvari, Arshi a'loga tutash ma'vo ham shunda bo'lsa va cheksiz koinotning, ta'bir joiz ersa, markazi (nisbatan) mana shu oraliqda bo'lsa ajabmas. Chunki Yer aylanadi, Oy, Quyosh va boshqa xilqatlarning bari aylanadi, ya'ni butun koinot harakatda, aylanadi. Demak, aylanarkan...

Bu osmonga dil bog'lagan Xayyomning o'ylari, fikrlari edi. U butun borliqni o'z quvvai hofizasiga birvarakay jo etmoqni istardi... Xayyom hech vaqt fikrlashdan, izlanishdan to'xtamasdi. U hamisha yangilik sari intilardi, umriga ma'no bo'layotgan barcha ilmlarni qamrab olmoqqa va ularda o'ziga xos biron kashfiyot yaratmoqqa harakat qilardi. Uning fe'li shunday edi, umrining ma'no-mazmuni harakatda edi. Shu kunlarda u yana bir yangi yumushga qo'l urdi, ya'nikim osmon xilqatlarini va uning zaminga nisbatini o'rganishni osonlashtiruvchi bir asbob bunyod etmoqqa kirishdi. Bundan sakson yillar muqaddam Ray shahrida yashab o'tgan riyozatchi va munajjim Abu Mahmud Homid ibn Xidr al Xo'jandiyning "Sudsi faxriysi" ("Faxriy sekstanti") Xayyomni qiziqtirib kelardi. Mazkur suds yordamida Xo'jandiy Quyosh bir yilda aylanib chiqadigan katta fazoviy doiraning (ekliptika) Yerning markaziy aylana chizig'iga (Ekvatorga) og'ish burchagini aniqlagan. Shuningdek, Rayning kenglama darjasini ham o'lchagan. Xayyom ana shu sudsni bino etmoqchi bo'ldi. Avvalo har tomonlama hisob-kitobli mukammal tarx chizdi. Mazkur tarxga asosan rasadxona yuqorisidagi tog'ning to'shida oralig'idagi masofa yetti gaz keladigan ikkita o'zaro yondosh tosh devor o'rnatilmog'i lozim. Ularning orasiga esa uchidagi tuynugi aylanasing ko'ndalang kesimi (diametri) bir qarich keladigan gumbazsimon toqi biriktiriladi. Bu tuynukning markazini shu devorlar orasidagi tekislikka (meridianga) o'rnatilgan va ko'ndalang kesimi sakson gaz keladigan doira sudsining markazi ila ustma-ust tushadigan qilinadi. So'ng sudsni yog'och taxta ila o'rab, uni mis ila qoplanadi va aylana darajalarining har birini uch yuz oltmishga bo'linadi. Bu bo'limlarning har biri esa o'n soniya (sekund) keladi. Quyosh chiqayotganida uning nuri shu tuynukdan tekislik chizig'iga tushmog'i lozim.

Xo'jandiy tajribasiga binoan, tuynukdan yerga tushayotgan nurning hajmicha (miqdoricha) doira yasab, uning markazini o'zaro kesishuvchi ikkita ko'ndalang kesimi ila belgilab qo'yiladi. Doiraning aylanasi yerdagi nur chegarasi ila mos keladi va uning markaziga binoan Quyosh bilan osmonning kuzatuvchi tepasidagi eng baland nuqtasi (zenit) oralig'idagi masofa aniqlanadi. Shunday qilib, Xayyom mazkur tarx asosida sudsni qurishga kirishgandi. Kecha Mikoil boshliq sangtaroshlar yondosh devorlarni qurib bitkazdilar. Toqini o'rnatishda esa Xayyomning o'zi ishtirok etmog'i shart, chunki bu yumush zargarlik kabi nozik va aniq harakatlarni, hisob-kitobni talab etadi. Ozgina xatoga yo'l qo'yilsa va nurning og'ishi sezilmas darajada surilsa ham bir necha soniyalar tugul kunlar nisbatida adashuv kelib chiqmog'i mumkin.

Xayyom rasadxonaning xoshonasi markazidagi usturlob oldida qog'ozdagi ikkita yondosh chiziqqa tikilgan chuqur o'yga cho'mib turardi. Ayni damda u taqi ustod Uqlidusning besh qoidasi haqida bosh qotirayotgandi va shuningdek, hayrat og'ushida edi. Bu mashhur besh qoida, isbot talab etmaguvchi shu besh haqiqat unga bolalikdan oshno. Go'yo uning barcha ilmlarga oid jami fikrlari, qarashlari va hatto kashflari mana shu qoidalar ortidan yoxud ularning yetovida yaratilgandek...

Korfarmo va Mikoilning kirib kelganligini uning yoniga yetib, salom berganlaridagina payqadi.

-Vaalaykum assalom.-dedi u nigohi mudom tafakkur og'ushidan chiqmay.

-Xojam, agarki sudsning toqini bugun erta o'rnatmoqqa kirishmas ekanmiz, biz rasadxona xonalari peshtoqlaridagi naqshlarga ishlov bera tursakmi, deb edik?- ruxsat so'rash ma'nosida dedi korfarmo.

Nihoyat Xayyom fikrini jamladi.

-Toqini o'rnatishga ertadan kirishurmiz. Unda o'zim ishtirok etmasam bo'lmas. Sizlar esa bugun hordiq oling, ijozat.

-Xo'p bo'ladi, xojam.-dedi Korfarmo itoatkorona bosh egib.

-Yaxshi bo'ldi. Mikoilning qalin soqol-mo'ylovi orasidan tishlari ko'rinib, mamnun jilmayganligini oshkor etdi. -Polvon (ayig'ining ismi shunday edi) ila vodiyni bir kezib qaytamiz!

Xayyom kuldi:

-Polvonning tirnoqlarini taroshlab qo'ysang bo'larkan, judayam o'sib ketibdi. Oллоh saqlasinu... -U so'zini intiholamadi.

-Xo'p bo'ladi, ustod...

Tag'in u ikki yondosh chiziq ila tanho qoldi. Qoshlari chimirilib, manglayi tirishib, ularga tikildi. So'ng qo'liga xomani olib, ikkala yondosh chiziqni ham davom ettirib, keskin xoma tortdi. Chiziqlar qog'oz chetida yakun topdi. Mabodo ul qog'ozga tutash taqi bir qog'oz yoxud xoma chiziq tortmog'i mumkin boshqa biron nimarsa bo'lganda edi, ikki yondosh chiziq yana davom etaverardi, biroq tutashmasdi. Shunday qilib, bu chiziqlar Xayyomning nigohida cheksiz bir ma'voda g'oyib bo'lib, koinot qa'riga singib ketardilaru lekin tutashmasdilar, kesishmasdilar. Yo Qodiro! Nahotki bu juft had mangu shunday davom etaversalar?! Yo'llarida qancha nigohlar, yuksakliklar, ko'tarilishu tushishlar, ne-ne talotumlar bor. Bu itoatkor, mo'min chiziqlar bir-birlariga ergashib, abadiy yo'ldalar, na bir-birlariga yaqinlashadilar, na bir-birlaridan uzoq ketadilar. Ular qandaydir ko'rinmas kuchga, to'g'rirog'i, qonunga bo'ysunadilar, itoat etadilar. Bu qonunni isbotlamoqqa hojat ham yo'q, u abadul abad amalda. Yo parvardigoro! Bu abadiy qonunning, o'zgarmas, isbot talab etmas qoidaning asoschisi, egasi o'zingsan! Ustod Uqlidus ham buni anglab yetgan va o'zining isbotga behojat qoidalarini yaratgan. Uning beshinchi qoidasi! Mana, o'sha beshinchi qoidaga muqobil besh umumiy tushunchalar... Xayyomning ko'zlari katta ochilib, chaqnardi. Hozir u butun vujudi ila ilm zavqining ummoniga sho'ng'ib borardi. U ilmi handasaning shoiriga aylanardi... Xo'-o'sh!.. Haqqi rost, mana o'sha umumiy tushunchalar:

"Bir-biriga teng bo'lgan o'zaro ham tengdir."

Naqadar sodda va jo'n, biroq hech qachon o'zgarmas qoida. Xayyom har bir tushunchani eslar ekan, o'sha tushunchaga monand chiziq'larni qog'ozga chizib borardi. Demak, ikkinchi tushuncha:

"Agar tengga teng qo'shilsa, unda butun ham teng bo'ladi."

Uchinchi:

"Agar tengdan teng olib tashlansa, unda qoldiq ham teng bo'ladi."

Va:

"Bir biri bilan kesishuvchilar o'zaro tengdir."

Yoki so'ngisi:

"Butun bo'lakdan kattadir."

Bu borada bahsu munozaraga hojat yo'q, hammasi to'ppa-to'g'ri. Shuning uchun ham handasa va uning falsafasi buyukdir...

Xayyom tanish ovozni eshitib, uzoq-uzoqlardan qaytdi va ovoz kelgan tomonga o'girildi. Ko'zlarida chaqnagan olov yorug' nurga aylandi va nur harir pardaga mengzab, nihoyat ma'lum fursat o'tgach, parda ko'tarilib, qarshisida turgan rohib Arturni ilg'adi.

-Xayolingizni bo'lmadimmi ishqilib?-dedi rohib hijolatli ovoza.

-Bu gapingiz g'alat, Artur hazratlari.- Xayyom ochiq chehra ila quchoq kerib, rohibni xonaning darichalari ostiga qurilgan so'richaga taklif etdi. -Marhabo! Marhabo!..

Yuzma-yuz o'ltirdilar.

-Nechukdir hujramga ham, rasadxonaga ham sig'masmen. -Artur nigohini qayerda to'xtatishni bilmas, ko'ksi hapqirib-hapqirib qo'yardi. -Aslida tuni bilan kiprik qoqmadim.

Xayyom otasi tengi bu g'ayri din allomaning ahvolini tushunganday bo'lar, biroq nahotki shu yoshda ham shunchalar tug'yon, bu qadar bezovtalik nasib etsa, degan andishali o'y fikrini xulosalashga monelik qilardi. Shuning uchun Arturning ko'nglini ehtiyotlab gapirishga urindi:

-Ne bois uxlamadingiz?

-Rosti tun bo'yi yulduzlarni tomosha qildim.

-Axir umr bo'yi tomosha qilib qonmadingizmi? -Kulib hazillashdi shoir.

-Demak, qonmagan ekanmen.-rohib daricha orqali moviy osmonga tikildi. -Qiziq, yulduzlar hammaga bir xil ko'rinadi - musulmonga ham, nasroniyu majusiyga ham!.. Ammo odamlar ularga bir xil qaramaydilar. Ularga boqib, turli ma'nolar chiqaradilar.

-"Darhaqiqat, biz (erga) eng yaqin osmonga chirog'lar (yulduzlar) ila ziynat berdik..." ("Mulk" surasi, 5-oyat) -Xayyom bu oyatni go'zal bir qiroat ila o'qidi va davom etdi. -Bu Olloh taoloning qavli. "Sahih Buxoriy"da esa bu borada shunday deyiladi: "Qatoda roziyallohu anhu dedilar: "Olloh taolo bul yulduzlarni uch maqsadda -osmonga ziynat, shaytonlarga otiladiringan tosh hamda bandalariga yo'l ko'rsatuvchi alomatlar bo'lmog'i uchun yaratdi. Kimki bu oyatni bundan bo'lakcha talqin qilsa, yanglishgan, oxirat nasibasini boy bergan va o'zi bilmagan (aqli yetmagan) narsa xususida o'zboshimchalik birlan fikr yuritib, o'zini-o'zi kulfatga qoldirgan bo'lur!"

Avvali buyuk oyatning go'zal qiroati ta'sir etdimi yoki "Sahih"dan keltirilgan so'zlarmi, Artur Xayyomga tikilib turar va uning aslan xo'mrayib boqguvchi ko'zlari ayni damda katta ochilib, muloyimlashgandek edi. Hatto bu ko'zlarning chetlarida ashkiy shodalar dumalar va nigohi "najot, najot" deyayotgandek tuyulardi. U hozir o'zini shoirning poyiga tashlab, huddi yosh bola misol dod solmoqqa, o'krab-o'krab yig'lamoqqa tayyordek edi go'yo.

Xayyom undagi bu holatni hov o'shanda ham ko'rgandi. Maryam daryo bo'yida undan otasi ila bir gaplashib ko'rishini so'rganidan so'ng, ertasi kuni payt poylab Arturning hujrasiga kirdi.

Artur tom ma'nodagi kitob ko'rgan odam edi. Yunon va lotin tillarini bilar, bu yerga kelib arabiy hamda forsiyni ham ancha o'zlashtirib olgandi. U handasa, riyozat, nujum ilmlarini mukammal egallagan, alkimyodan boxabar va shuningdek, afsungarlik (mag'iya) ila ham tuzukkina mashg'ul bo'lgan edi. O'z nazdida, u ham ruhiy kamolat sari intilardi.

Xayyom hujraga kirganida Artur o'choq yonida olovga tikilgan tiz cho'kib o'ltirar, lablari nimalarnidir pichirlardi. U yolg'iz edi. Xayyom unga xalaqit bermaslik uchun indamay beriroqqa o'ltirdi va ham qiziqish, ham hayrat ila rohibning harakatlarini kuzatishga tushdi.

Artur xiyol ovoz chiqarib, allanimalarni o'qir va ma'lum bir fursat orasida ikki qo'lini olov sari cho'zib, yuqoriga asta siltasa, olov shiddatli ovoz chiqarar hamda alangasi ulkanlashib, misoli mor (ilon) yanglig' tepaga intilardi. Bu hol bir necha bor takrorlandi, har takrorlanganda, bunda shaytoniy g'ayb borligini sezgan Xayyom ichida kalima keltirib o'tirdi. Rohib nihoyat o'z yumushini yakunlab, cho'qindi va Xayyomga o'girildi. O'girildi-yu shoshib o'rnidan turmoqqa chog'landi.

-Keling, xojam, marhabo!

Biroq shoir uni turmoqlikka qo'ymadi:

-Qo'zg'olmangiz, janob. Necha bor aytdim, meni "xojam" demangiz deb! -Xayyom rostmona ranjigan edi.

-Afu etgaysiz, faromush qilibmen. -Artur mehrli bir tabassum ila yonidagi ayoqdan sopol piyolaga bahorda ichilguvchi g'iyohlar damlamasidan quyib, shoirga uzatdi. Bu iliq ichimlik avvaliga biroq taxir tuyulsa-da, oz fursat o'tib, og'izdagi bahorda bo'lguvchi chuchmal ta'mni daf etib, yoqimli bir maza berguvchi edi.

Xayyom ichimlikdan bir xo'plab, rohibga gap aytmoqchiday ma'noda qaradi.

-Kulbai vayronamizni ko'p obod etdingiz.-Arturning bu mulozamati shoirni muddaoga undadi:

-Ayb etmagaysizu, taqi jodu ila mashg'ul edingiz chog'i?

Artur xiyol zardali jilmayib, dedi:

-Ne qilay, buyam bir andarmonlikda.- Uning ko'zlari yo'lini yo'qotgan odamning nigohi kabi toqat qilib bo'lmas darajada munglig' va ta'nali boqardi.

-Bandaning ziynati va andarmonligi ibodat ila deganlar.

-Ibodatim bor, bilursiz.

-Namozni nazarda tutib erdim...

Artur Xayyomga yanada qattiqroq tikildi.

-Namoz?.. -Neningdir andishasida biroz jim qoldi. -Axir namoz musulmonlar ziynati-ku?! Men ersam... -Endi uning nigohi sinovchan ma'noga yo'g'rildi.

-Musulmon bo'lmog'ingizga ne to'siq bor, janob? -Xayyom bu gapni yoqimli bir tarzda aytdi.

-Dinim to'sqinlik qiladur.-dedi Artur nigohini olovga qaratarkan, lekin uning ovozidagi qat'iyat ojizona edi.

Jim qoldilar. So'ng:

-Musulmonlik deysiz! Afu etgaysiz, Xayyom janoblari, biroq... -Artur lablarini qimtib, u yoq-bu yoqqa betoqatlik ila alangladi, nenidir qidirdi go'yo.

Xayyom esa unga xotirjamlik ila muloyim boqib turardi.

Artur so'zida davom etdi:

-Biroq musulmonlaringiz mana bu ishga qodirmi? -U shahd ila ilkini o'choqdagi olovga tiqdi.

Xayyom bir seskandi-yu "yo Olloh!" deb yubordi va lahzalik hayrati yana xotirjamlik ila almashdi. U shundagina Arturning nigohidagi ma'noni va harakatlaridagi bolalarcha zarda hamda qaysarlikni tushunib yetdi. Filhaqiqat, rohib ayni damda "Mening gapim to'g'ri" yoxud "Men zo'rman" qabilida ish tutar va buni soddalarcha isbotlamoqqa urinarkan, ro'baro'sidagi aksil fikrli odamning ham o'z fikrini unikidan zo'r ekanligini isbotlab bermog'ini istardi. To'g'rirog'i, undagi insoniy bir xudbinlik, arosat dashtida sarsonlikda qolgan ahvolutini tan olmog'iga monelik qilardi.

-Bu yumush mening ilkimdan kelmas.- dedi Xayyom rahmi kelayotganini sezdirmaslikka urinib. -Biroq buni siz uhdalayotganingiz yo'q -bunisini aniq bilurmen.

-Unda kim? -so'radi Artur hayratini yashirolmay.

-Shayton. Ulug' dinimizda "Agar mo'jiza ko'rsangizu u iymondan bo'lsa, rostdan ham mo'jizadir va u rahmoniydir, mabodo mo'jiza ko'rsatayotgan zot iymonsiz bo'lsa, u shaytoniydir, ya'ni jinlarning hunaridir", deyilgan. Siz esa iymondan!.. -Shoir "iymondan bebahrasiz" deymadi, suhbatdoshining dilini og'ritib qo'ymoqlikdan hadiksiradi.

Anchadan beri bag'rini kemirayotgan ishtiboh zo'r keldimi yoki Xayyomning gaplari haq ekanligiga tan berdimi, Artur jim qoldi. Xayyom esa bosiqlik ila davom etdi:

-Iyso alayhissalomga tushgan haqiqiy Injil yo'qolgan axir. Siz e'tiqod qilayotgan Ahdlar soxta ustozlarning uydirmalari ekanligi sir emas-ku!..

-Bunchalar malomat etmang!-dedi rohib ko'zlarini yerga olib, lekin endi ovozida boyagi qat'iyat, shiddat yo'q edi.

-Bu gaplarim aslo malomat emas, janob. Mana, bir isboti: nasroniylar Iyso alayhissalom Xudoning o'g'li ekanligini, astag'furilloh, aytadilar taqi ul zotning nasl-nasabi shajarasini ko'rsatadilar. -Xayyom o'z fe'liga zid o'laroq ayni paytda mutlaqo qizishmas, o'zining haq ekanligini bilganligi va suhbatdoshining yoshi ulug'ligi unga shundayin bosiqlik baxsh etayotgandi go'yo. -Eski Ahdda keltirilgan bashoratlarda aytilishicha, Bani Isroil kutayotgan Masih Dovud alayhissalom xonadonidan chiqishi va kim o'zini Masih deya bildirsa, Dovud alayhissalomning podshohlik sulolasiga mansubligini isbot etmog'i lozim edi. Hozir siz muqaddas sanab kelayotgan Injilda esa Iyso alayhissalomning nasl-nasabi Bani Isroilga qaratilgan va u Dovud alayhissalom sulolalarining davomchisi qilib ko'rsatilgan.

Artur ro'baro'sidagi musulmon shoirga hay rat ila tikilib qolgan ediki, chamasi, u Xayyomning Injilni bilishini xayoliga ham keltirmagandi.

-Bu Adlarni bayon etmish Matto va Luqa kabi avliyolaringiz katta xatolig' yo'lni tutganlar. E'tiqod va mantiqqa zid shajara to'qimoq ila ovora bo'lishib, Dovud alayhissalomning sulolasini Maryam onamizning zavji bo'lmish Yusufga bog'laydilar. Holbuki Yusuf Iyso alayhissalomning otasi emas edi. Bu to'qima shajaralarga cherkov ruhoniylari aslo javob topolmaydilar.

Iyso alayhissalomni Olloh taolo otasiz dunyoga keltirgan ekan, Matto va Luqa keltirgan Ahdlardagi shajaraga na hojat? Eh-he, mazkur Ahdlarda bu kabi chalkashliklar bisyor, qay birini aytay!.. Biz musulmonlar Iyso alayhissalomning payg'ambarligiga iymon keltiramiz va ul zotning otasiz dunyoga kelganligiga shak-shubha ham qilmaymiz. Chunki bizga Olloh taoloning bir so'zi kifoya: "Albatta, Iysoning (otasiz tug'ilishining) misoli Olloh nazdida Odamning misoli kabi, uni tuproqdan yaratib, so'ngra "Bo'l?" dedi. Bas, u (jonli) odam bo'ldi." ("Oli Imron" surasi, 59-oyat) Zero Hazrati Iyso alayhissalomni haqiqiy maqomlarida ulug'lagan, ul zotning pok nomlarini har xil bo'lmag'ur tuhmatu bo'htonlardan asragan ham Islomdir, buyuk Qur'oni karimdir! - Xayyom so'zini tugatib, quyiga boqqancha sukutga taldi.

Artur esa butunlay bo'shahib, inon-ixtiyorini Xayyomning so'zlaridagi haqiqatga va ehtimolki uning o'ziga topshirgandek itoatkorona bosh egib o'tirardi. U ayni damda biron so'z aytmog'ga qodir emasdi, Xayyomning so'zlaridan so'ng shunga amin bo'ldiki, endi Qur'oni, shariatni astoydil o'rganmog'i lozim ekan. Hech yo'q bahsda teng bo'la olmoq uchun ham o'rganmog'i shart. Shul bois hozir u faqat va faqat tanho qolmoqni, shuurini qamrab borayotgan fikrlar taloshini filhol tindirmoqni istardi. Shul bois Xayyomga asta bosh irg'ab "afu etgaysiz" dedi-da, ohista qadamlar ila hujrasi sari yo'l oldi.

Xayyom esa o'rnidan turib, uning ortidan xijolat ila qarab qolarkan, "bechora rohibning diliga ozor yetkazdim", degan andisha yuragiga tig' yanglig' sanchilmoqda edi. U o'zini bilag'on fahmlab ko'p gapirib qo'rganligidan va bu ila yetuk bir olim zotning oldida odobsizlik qilibgina qolmay, va'zxonligi ila o'z ko'nglining tiniq oinasini ham xira torttirganligidan rostmonasiga afsuslanardi. "U senga o'n-o'n besh yashar bolamidiyki unga dars bersang, aql o'rgatsang", deya o'zini g'adablardi. Bu ham yetmagandek, yolg'on ham so'zladi va bu ila o'zini ko'z-ko'z etmoqni istadi. Yulduzlarni faqat "Sahih"da aytilganidek, ya'niki yo'l ko'rsatuvchi sifatidagina o'rganar emish. Yolg'on bo'lsa shunchalar bo'lar axir. Kunlarni tunlarga ulab, yulduzlarning inson taqdiriga, kunlaru oylar hisobiga va umuman zaminga ta'sirini o'rganganini, ul osmon ziynatlarining siru asrorlarini bilishga uringanligini hamda mudom o'z qismatini yulduzlar ila bog'lab kelayotganligini nahot unutdi?! Unday paytlarda bu yumushining gunoh ekanligini va hatto gunoh va savob tushunchalari haqida mutlaqo o'ylamas, faqat ilm ila mashg'ul bo'lar edi-ku! U son-sanoqsiz yulduzlar aro va umuman cheksiz bul koinot bag'rida yaratganning bashar qismatiga dohil ne-ne sirlari, hikmatlari yashiringanligini juda yaxshi biladi. Shuning uchun ham yulduzlarga tobora yovuq kelmoqni tilaydi...

Yulduzlar!.. Yulduzlar!..

Yer aylanadi, Oy, Quyosh va boshqa barcha hilqatlar aylanadi. Ya'nikim butun koinot harakatda, aylanadi. Demak, aylanarkan... Ayonki, birvarakay charx urguvchi xilqatning o'rtasida girdob, ya'ni tuynuk hosil bo'ladi. Yo Parvardigoro! Tanho olim zot! Balki u parda ila bashar nazaridan pinhon etgan o'zga olamiga ana o'sha tuynuk orqali olib o'tar? Ikki olamni bog'lovchi uzv shu tuynuk bo'lsa ajabmas...

Xayyomning xayoli bo'lindi-yu tag'in rohib Arturni esladi. Bir musofir, mazlum ko'ngilni ranjitdim, deya o'yladi nadomat ila. Ul bechoraning oldida bilag'onlik qilmoqqa ne hojat edi? Uning ikki otash orasinda jizg'anak bo'lib yurganligini bilardi-ku axir! Unga iymondan saboq bermoq istadi. Rost, iymon buyuk ne'mat, Olloh taoloning ulug' in'omi, u o'zi suygan bandalargagina iymon ato etadi. Biroq u barcha uchun bitta, yagona emasmi? Faqat Unga eltuvchi yo'llar turfa, ko'p. Demakki, o'sha yo'llardan tanho Yaratguvchiga intilgan barcha-barchani tushunmoq, asramoq lozim. U goho devonavash ko'yga tushib, xos yo'l axtargan damlarida, boshqa bironing tushiga ham kirmaguvchi fikr- o'ylarni boshidan o'tkazadi. Qanday ibodat qilmoqning, deya osiyona fikrlarga beriladi u, ne ma'nosi bor-turibmi, o'tiribmi? Maqsad-Olloh va uning rahmatiga umidvorlik ekan, ibodatning shakli muhim emas-ku! Pok ruh, pok tan bo'lsa bas, axir! Yo Ollohim, men ijod qilganimda yoxud biron sevimli, nafli yumushimni bajarayotganimda bisyor ibodat qilayotgandek tuyulaveraman, nazdimda. Zero sidqidildan mehnat qilmoq ham ibodatku, yo Sohib

Adolat!.. Ne ba'd o'ylarni qiladurmen?! O'zing kechirgaysen, Ollohim!.. Muhtaram Arturni qattiq ranjitdim, men dilozor banda. Rindoniyni ijizat so'rash ma'nosidagi tomoq qirishi uning xayolini bo'ldi.

-Malikamizning kanizaklari huzuringizga kirmoqni tilaydur, xojam. -dedi Rindoniya ta'zim ila.

Xayyom yuz-ko'zini kafti ila bir-ikki ishqaladi va sergak tortganday bo'ldi. So'ng,

-Olib kiring.-deya amr etdi.

Oradan hech qancha muddat o'tmay, shoirning qoshida ta'zim ila go'zal bir kanizak turardi. U kanizaklar libosi bo'lmish yashil qaboda edi, boshidagi oq harir ro'yamol ustidan peshonaband taqqandi.

-Malikai oliyalari sizga noma yo'llamish. -U dumaloqlangan qog'ozni tavoze ila Xayyomga uzatdi.

Xayyom nomaga bir qur ko'z yugurtirib chiqdi-da, kanizakka "ma'qul" deganday bosh irg'adi va shu ila uning ketmog'iga ijizat ham berdi.

Kanizak tez-tez yurib, pastga-rasadxona hovlisiga tushib, bo'sag'aga yetganda Polvonni yetaklab kelayotgan Mikoilga ro'baro' bo'ldi. Ulkan mahluqni ko'rib, ham hayrat, ham qo'rquv og'ushida tosh yanglig' o'rnida qotdi.

-Qo'rqmangiz!-dedi Mikoil ayiqni ortiga olib. -Polvon sohibi jamollarga xuruj etmagay. -U ma'nodor jilmayish ila shunday degani zamono Polvon bir irillab qo'ydi. Bundan kanizak battar qo'rquvga tushdi, ammo Mikoilning muloyim boqib turgan, otashli nigohiga ko'zlari to'qnash kelib, xiyol xotirjam tortdi.

-Ismingizni so'raydur.-dedi mudom jilmayib, Polvonga ishora qilarkan. -Buning oti Polvon, meniki esa Mikoil.

Endi kanizak butunlay o'ziga kelib olgandi. Shul bois yigitga har ne dilni o'rtab yuborguvchi nozli nigoh ila bir qarash qildi-da, "Layli!" dedi va shahar tomon chopa ketdi...

To'qqizinchi bob

Kanizak keltirgan noma Sulton Malikshohning suyuqli zavjasi- Movarounnahr hukmdorlari Qoraxoniylar naslidan bo'lmish Zuhra (Turkon) Xotundan edi. Malika maktubida Xayyomni bisyor mutavozelik ila o'z saroyiga taklif etgandi. Nomani o'qidi-yu shoirning yuragini xijillik qamradi, ruhiyati xira tortdi. Malikaning ma'noli qarashlarini eslab, eski gumonlari kuchaydi, shuuriga mahzun bir xavotir soya soldi. Biroq malika baribir Malika edi, u ham sohibi farmon bo'lib, sultonniki kabi uning ham amri vojib edi. Shul bois aytilgan vaqtda uning huzurida qoyim bo'lmog'i shart.

Ertasi kuni choshgohga yaqin Mikoilni ergashtirib Turkon Xotunning qasri sari yo'l oldi. Mekoilni sherik qilmog'iga sabab-bir yo'la saroy kutubxonasiga kirib, anchadan buyon mutolaa etmoqni niyat qilgani kitoblarni olib qaytmoq ham edi. Qolaversa, Mikoilning busiz ham Xayyomga ergashmog'i tayin edi. Chunki vaziri a'zam shoirning Mikoilga bo'lgan mehrini va bu ayiqmonand ayiqbozning o'z xojasiga nisbatan samimiy muhabbatini tuyib, uni pinhona Xayyomning joniga posbon etib tayinlagandi. Lekin bu yumushni o'ta yashirin bajarmog'i lozim ediki, aks holda shoirning ranjida bo'lmog'i va qarshi turmog'i aniq edi.

Malikaning qasri sulton saroyiga tutash edi. Ta'bir joiz bo'lsa, Turkon Xotunning saroyi ham bezaklar borasida sultonning saroyidan qolishmasdi. Faqat malikaning saroyi bir qadar chog'roq bo'lib, chin saroyga muhtashamlikda yon berardi xolos. Biroq devoru shiftlardagi naqshlar beqiyos nafis bo'lib, ko'proq alvon ranglar ishlatilgandi va bu ko'zlarni qamashtirardi. Ul naqshlarga duru javohirlar, yoqutlar ham qadalgandi. Shiftdagi qandillar ham nihoyatda naqshin va mahobatli edi. Ularga o'rnatilgan shag'amlar mazkur qandillar uchun maxsus tayyorlangandi.

Malika saroyida ohista qadamlar ila yelib-yugurguvchi kanizaklar bisyor edilar. Xosxona bo'sag'asida ikki basavlat habash qul qo'llarini ko'ksida qovushtirib turardilar. Saroybeka Xayyom va Mikoilni kutib turmoqqa undab, o'zi malikaning iznini so'ramoq uchun ichkariga kirib ketdi. Oradan picha muddat o'tib, saroybeka chiqib keldi-da, tavoze ila Xayyomni ichkariga taklif etdi. Shoir Mekoilni o'sha yerda qoldirib, xosxonaga kirdi-yu xira alvoniy tusdan ko'zlari qamashib, bir lahza o'zini yo'qotdi. Bu joy huddi go'shangani eslatar, shuning uchun shoirning qalbi ham ilk bora o'z kelinchagiga yovuq kelayotgan kuyov misol dukirlab ketdi. Shundagina u bu maliikaning chin farog'atxonasi, ya'nikim ishratxonasi ekanligini fahmladi va shuning asnosida o'zini tutib olishga urindi. Nigohi ravshanlashib, ro'parasiga sinchkovroq razm soli: harir parda ortidagi taxtiravonda oppoq farqularga chulg'anib, malika o'ltirardi. Ikki yonidagi ikki kanizak yelpig'ich yelpib turar va undan paydo bo'lgan ojiz bir shaboda harir pardani bilinar-bilinmas to'lqinlantirardi.

Xayyom xiyol bosh egib, salom berdi.

-Xush kelibsiz, ey, shoirlar sultoni!-dedi malika tantanavor va shuningdek, titroq ovozdada. U bu xitobini aytarkan, halovatsiz bir ko'yda siltanib ham qo'ydi. Bu orada ikki yonida bosh egib turgan kanizaklarga ishorat qilgan edi, ular harir pardani ikki tomonga qayirib qo'ydilar.

Ana endi malika taxtiravonining butun hashamati va uning husnu jamoli bir varakay namoyon bo'lib, shoirning ko'zlari tindi. Qoraxoniylar naslidan bo'lmish bu navjuvon chindan-da sohibjamol edi. Uning oq pushti yuzi, qora qayrilma qoshlari, kishiga qattiq tikilguvchi va qorcho'g'lari chuqur-chuqur ko'ringan juhudiy ko'zlari rostdan ham jon olg'uvchi edi. Malika Buxoro-Movarounnahr hukmdori Shams ul Mulkning singlisi edi va shuning uchun ham uning butun jismu sa'yidan aslzoda xotinlarga xos kibru havo, g'urur hamda takabburlik yog'ilib turardi. Shul bois ham u o'zini saljuqiy sultonning boshqa xotinlaridan anchayin yuqori ko'rardi. Ayniqsa, saljuqiy malika Zubayda Xotunni orqavarotdan "zoti past" deya tahqir etardi. Uning sultonga nisbatan erkin muomalotda bo'lmog'ining sababi yana shunda ediki, ayni damda Movarounnahrning tasarrufini olib kelayotgan hoqon Shams ul Mulk sulton Malikshohning opasiga uylangan edi. Sultonning Buxoroga yurishi qoldirilganligi avvalo Bog'dod shayxulislomining aralashuvi va vaziri a'zam Nizom ul Mulk janoblarining tadbiri tufayli bo'lsa, shuningdek, malika Turkon Xotunning eriga ta'siriga ham bog'liq edi. Illo qarindoshlik rishtalari har ishda o'z hukmini imkon qadar o'tkazib kelardi. Shoir malikaning ishorati ila ro'baro'dagi naqshin orom kursiga omonat o'ltirdi. Kanizaklar oltin ayoqda salqin gulob tutdilar. Xayyom muzdek ayoqni tutgandan so'nggina butun vujudi olov yanglig' yonayotganligini fahmladi. Nafas olishini yengillatmoq uchun ko'ylagining yoqasini biroz bo'shatdi. Gulobdan xo'pladi. Yaxdek huzur bag'rini yoqimli siypalab o'tdi.

Nigohi ila shoirni tinimsiz ta'qib etayotgan malika uning ahvolidan boxabar edi. Shuning uchun uni battar iskanjaga olmoqni ixtiyor etdi:

-Nechukkim bizning holimizdin xabar olmoqdin qochadursiz, ey, yulduzlar hoqoni?-dedi malika ma'nodor tabassum ila.

Xayyom o'zini qo'lga ola boshladi.

-Malikam ixtiyor etsalar, biz kabi qullarini har daf'a oyoqlari ostida ko'rurlar.

Shoirning gapidan malika ayollarga xos yovvoyi bir huzurni his etdi, biroq bu kechmishini sir tutmoqqa urindi.

-Sizni chorlamoqdin murodimiz, sitamgar ko'ngullarimizni goho-goho she'r fayzi ila sarafroz etmog'ingizni o'tinmoqdir. Zero sizning hikmatu... -malika bir to'xtalib, ma'nodor tomoq qirib qo'ydi- ishq sehriga to'la ruboiylaringizga oshiqlik'imiz chindur. Nazmu musiqiy bazmlarimizga taklif etsak, raddingiz bo'lmasmu?

Shoir o'ng qo'li ko'ksida xiyol bosh egib, dedi:

-Malikamning ixtiyorlari biz uchun vojibdur, biroq buning uchun avvalo davlatpanohimizning farz ijozatlari joizdur. -Xayyom malikaning nozik joyidan tutdi va go'yo g'olib bo'lgandek tuydi o'zini.

Ammo Turkon Xotun uni zohiran so'zamolligi uchun tabassum ila olqishlagan bo'lsa-da, botinan bag'ridagi xusumatning qaro qasriga yana bir mustahkam tosh qo'ymoqda edi...

Bu mahal xosxonaning dahlizida xojasining chiqishiga intiq turgan Mikoil saroy yumushlari ila yelib-yugurayotgan kanizak Layliga ro'baro' keldi. U Mikoilni ko'rdi-yu ko'zlari chaqnagancha to'xtab qoldi. Ayni damda shodlikdanmi, qo'rquvdanmi va yoki ishqdanmi, qattiqroq dukurlay boshlagan yuragi basavlat yigit o'zining qismati ekanligini sezib turardi.

-Xush kelibsiz! -dedi qiz ko'zlarini olib qochib, bosh egarkan.

-Ollohning karamini qarang... -dedi Mikoil quvonchdan yayrab, -Polvon tuni bilan ismingizni takrorlab chiqdi, Layli!

Qiz gap ayiq haqida borayotganligini darrov fahmladi va yigitning haziligi huzurbaxsh bir erkalash ila javob berdi:

-Sizchi? Siz eslamadingizmi ismimni?

Yigit o'rtandi:

-Ismingizni jonimga naqsh etmishmen, Layli!.. Sizni ko'rmoqqa imkon...

Layli uning gapini bo'ldi:

-Sizning bu yerga kelmog'ingiz xavfli. Imkon yetgach, o'zim sizni topurmen!..

Qiz uni tark etdi.

Shu payt halloslagancha bir mulozim paydo bo'ldi.

-Umar Xayyom hazratlari shundamilar?-deya so'radi u Mikoilga boqib. U Mikoilning Xayyomga dohil ekanligini bilarmidi yoki shoshib qolganidan unga murojaat etdimi, anglash mushkul edi.

-Malikamizning huzuridalar. -taskinlovchi ohangda javob berdi Mikoil.

Mulozim Xayyomning zudlik bilan Nizom ul Mulk huzuriga bormog'i lozimligini xabar qilgani kelgandi. Yaxshiki, shoir malikaning huzurida uzoq qolmadi. U yerdan chiqdi-yu Mikoilni ergashtirib, vaziri a'zamning qasri sari yugurdi. Chunki sohib devonning chopari bir jiddiy hodisot ro'y berganligiga ishorat etgan edi. Filhaqiqat, Xayyom vaziri a'zamning oshyoni sari kirib kelganida u rangpar bir ahvolda cho'zilib yotar, tinmay ko'ksini ishqalab, oh urar va o'qchirdi. Yonida bir chuhrasi idish tutib, cho'nqayib o'tirar, uch mulozim esa (tabiblar shekilli), vazir shunday amr etganidanmi, beriroqda yuzlarida xavotir ila tik turishardi.

Xayyom shoshilinch bir shahd ila vaziri a'zamning yoniga cho'nqayib, uning bilagidan tutib, tomiriga barmoq bosdi.

-Ne bo'ldi, hazratim?!-deya so'radi titroq ovozda va uning rangi qochgan yuziga sarasof soldi.

Vazirning ko'zlari yumuq, mislsiz bir og'riqmi yoxud otashdanmi manglayidagi tirishlar qalinlashgan, og'zining ikki cheti ko'piklashganday edi. U Xayyomning ovozini eshitib, ko'zlarini qiya ochdi va unga umidvor nazar tashladi. "Xayriyat" dedi ojiz sas ila va og'ir bir o'rtanib, ko'zlarini qayta yumdi. Chamasi, u Xayyomni intiq kutgan va yonidagilarga ishonchsizlik bildirgani bois ular boyagidek alpozda turardilar.

Xayyom vazirning zaharlanganligini darrov fahmladi va o'z egnidagi yengil chakmonini yechib tashlab, tezlikda muolajaga kirishdi. Yonidagilarga aniq-aniiq buyruqlar berib, chor tarafga yugurtirdi. Bir pasda iliq suv, dorivor giyohlar va tayyor dorular keltirildi. Xayyom vazirni parda ortiga olib, tabiblardan birining ko'magida uni xuqna qilishga kirishdi. Avvalo oshqozonni hamda ichaklarni yuvmoq lozim, so'ngra qonni tozalashga kirishilsa ham bo'ladi. Ollohning karami bois og'u hali butun vujudga tarqab ulgurmagani ko'rinadi, chunki vaziri a'zam hamma narsani idrok etib turardi. Biroq to'lg'ona-to'lg'ona o'qchir, qon aralash ko'kimtir nimarsa qusardi. Nihoyat huqna yakunlanganda uni sovuq ter bosdi, ko'zlari ag'darilib, dir-dir titray boshladi. Borki tabiblik hunarini shuuriga jamlagan Xayyom endi vazirga qonni tozalamoq uchun xapdori va ketidan raddiog'u ichirdi. Shu asno uning yuz-ko'zlaridagi terni ham artardi. Lekin vaziri a'zam zir qaqshab qaltirayotganidan bir muddat sarosimalanib, qo'rqdi.

Oradan vahmaga yo'g'rilgan ma'lum fursat o'tgach, bemorning titrog'i mayinlashib, nafas olishi tekislashdi.

Xayyom o'ziga kelib, qaddini rosladi va "Ollohga shukur!" dedi ho'rsinib. Shundagina o'zi ham jiqqa terga botganligini sezdi va yengi ila manglayini artdi. Chindan ham xavf chekinib, xastaning ahvoli umid baxsh eta boshlagandi. Xayyom o'rnidan turib, yonidagi kishilarga yuzlandi.

-Ne voqea ro'y berdi?-deya so'roqqa tutdi ularni.

Tabiblar va keyinroq kirib kelgan vazirning nadimlari bir-birlariga boqib, ko'z urishtirib oldilar.

Ibn Bahmanyor janoblari kelib edi... -deya sas berdi vanihoyat ulardan biri.

Ibn Bahmanyor deganlari devonning nufuzli mansabdorlaridan edi. Shundanmi, Xayyom fojeani fahmlaganday bo'ldi-da, darhol sulton hazratlariga xabarchi yo'lladi va soqchiboshiga Ibn Bahmanyorni tutib, hibsga olmoq haqida farmon berdi.

Xayyom biroz tin olgach, peshin namozini hali o'qimagan yodiga tushdi. Vaqt asrga yaqinlashib qolgan, namozni qazo qilmasdan ado etib olmoq lozim edi. Ro'baro'sida xizmatga shay turgan nadimlardan biriga vaziri a'zamni topshirdi-da, tahorat olmoqqa shoshildi.

Nomi butun Xurosonu Movarounnahrda yoyilgan vaziri a'zam Abu Ali Hasan ibn Ali at Tusiy Nizom ul Mulk hazratlari hozir o'jiz bir suratda chalqancha yotar, endi uning yuzidagi ayanch, aziyat izlari chekingan, xotirjam ko'z yumib, orom olardi. Umr bo'yi ilm-ma'rifatga, davlat ishlarini takomillashtirmoqqa intilib yashagan bu zot chinakam donishmand, sohibi hikmat odam edi. Bu uning yuz-ko'zida shundoqqina zohir etib turar, unda kishilarni o'ziga tortuvchi bir xislat, ilohiy in'om mujassam edi. U ellik besh yoshlarni qoralab, umr shomi sari borar, buning ustiga toat-ibodat va ilmning fayzidanmi yoxud qalbidagi nurning aksidanmi, ancha nuroniy ko'rinardi. O'z zamonasi uchun ancha mukammal davlat idorasini yaratgan, "Siyosatnoma"dek tarixiy kitob yozgan, hatto Nizomiya madrasasida tolibi ilmlarga saboq bergan vazirning bolaligi anchayin muhtojlikda kechgandi...

Vaziri a'zamning padari buzrukvori qadim Tusning oliynasab kishilaridan bo'lib, taqdirning yozig'i bois kambag'allikka yuz tutgan edi. U uzoq yillar Xurosonning G'aznaviy hukmdori dargohida xizmat qilgandi. Saroyda o'rta bo'g'indagi mansabdor bo'lganligidan topgan-tutgani oilasini ta'min etmoqqa zo'r-bazo'r yetardi. Volidasi u hali sut emdi bo'lgan paytdayoq olamdan o'tgan, sho'rlik bolakay faqatgina ota mehri qanoat qilmoqqa mahkum edi. Biroq Olloh taoloning karami beqiyos, hikmati mo'l, ya'ni u mehrga tashna bu norasidaga ilohiy bir iste'dod, nodir quvvai hofiza ato etgan edi. Shuning uchun u ilmga juda erta cheksiz

mehr qo'ydi. Arabu fors tilini mukammal o'rgandi, eng nodir kitoblarni mutolaa qildi. Ayniqsa, fikr va hadis ilmlarida beqiyos bir darajotga musharraf bo'ldi. Unga omad eshiklari ketma-ket ochilib, taqdiri tabassum ila boqa boshladi. Xuroson shaharlarini kezar ekan, ittifoqo G'aznaga kelib qoldi. Bu yerda bir zodagon ila tanishgach, u tufayli Balx hokimi Muhammad Dovudning dargohiga yetib, uning omili (oliq-soliq ishlari bilan shug'ullanuvchi mansabdor) ixtiyorida xizmat qila boshladi. Muhammad Dovud keyinchalik caljuqiylar sultoniga aylangan Alp Arslonning padari edi. Bu dargohda u o'z ilmu salohiyati ila nazarga tushdi, valine'matining ishonchini qozondi va moddiy ahvoli yaxshilana boshladi. Asli ilmu ma'rifatni suygan omil umr adog'ida sadoqatli xodimini shahzoda Alp Arslon xizmatiga tavsiya qildi. Keksa omilning sadoqatiga inongan Alp Arslon o'z yumushlarining tasarrufini Nizom ul Mulkka topshirdi. So'ngroq esa uni o'z vaziri etib tayinladi. Alp Arslonning amakisi sulton To'g'rulbek olamdan ko'z yumgach, Alp Arslon taxtga o'tirdi va sultonlik tojini kiydi. Nizom ul mulkni esa vaziri a'zam darajasiga ko'tardi. Kun yetib, sulton Alp Arslonning ham qazosi yetgach, u o'g'li Malikshohga sultonlikni vasiyat qildi va o'g'lining taqdirini donishmand vaziriga topshirdi. Shu-shu saljuqiylar sulolasining ma'rifatparvarligi va kekxa vazirning ilmu tadbirkorligi bois bu turkiy saltanat kun sayin yashnab, kuch-qudratga to'lib bormoqda. Lekin...

Mana, endi u ojizu notavon bir ahvolda to'shakka mixlanib yotibdi. Bir necha soat davom etgan jon talvasasi uni toliqtirdi, yiqitdi. Avvalo Olloh taboraka taoloning mehribonchiligi va so'ngra shoiru tabib Umar ibn Ibrohimning sidqidil tadbiri ila omon qoldi. Ayni damda u jon taloshida boy bergan tan quvvatini tiklaguvchi uyquda. Hozir hech narsani o'ylamaydi va o'ylamoqqa imkoni ham yo'q. Lekin hali o'ziga kelib, shuuri tiniqlashgach, iztirobli bir xayolga tushmog'i anig': yo, alhazar! Bani bashar yovlashmoqdin, bir-biriga xusumat etmoqdin qachon tolarkin, tinarkin-a?! Butun umrini mana shu odamlarning tinch va to'kin yashamog'i, kentlarning obod bo'lmog'i uchun sarf etayotgan buningdek ezgulik talab bandaning ham shunchalikka borguvchi g'animi bo'lsa-ya! Ibn Bahmanyorning badniyat ekanligini hufiyalar orqali hur tugul bilardi. Biroq bunchalikka borar deb o'ylamagandi. Sultonning inisi Muhammad Takash va shoirlar amiri Qazviniy ila bul kimsaning pinhona majlislari bo'lib turmog'idin ham boxabar edi. Lekin buni hasadning azaliy g'imirlashlari, oddiy fisqu fujur-da, deb o'yildi. Endi esa yanglishganiga aqli yetib turibdi. -Ha, hammasiga sabab-sulton Malikshoh ila yaqinligi, olampanohning uning so'ziga ko'pda yon bosmog'i. Bu odam bolasining fe'lida bor-ikki oqil birlashsa, chin ishonch ila bahamjihat ish olib bormoqqa kirisha, ularga qarshi qora ko'ngil kimsalarning bir necha jamoatlari paydo bo'ladi. Shunday ekan, sulton ila vazirning samimiy do'stligini ko'rolmaganlar necha-nechalab bo'lmoqlari mumkin axir! Vaziri a'zam qanchalar dono bo'lmasin, baribir u ham oddiy banda edi va shuning uchun bu adovatlariga ikki vilyatdagi hokim o'g'illari ham bois ekanligini xayoliga keltirmasdi. Bandaga xos bo'lgan bu xudbinlik uningdek dono zotni ham chalg'itmog'da edi. Filhaqiqat, uning jami o'n ikki nafar o'g'li bo'lib, ularning ikkisi ikki viloyatda hokim, qolganlari ham saroydagi nufuzli mansablarni egallagan edilar.

Ibn Bahmanyor ertalab vaziri a'zamning huzuriga kirmoqqa ijozat so'radi. Balxda hokimlik qilayotgan to'ng'ich o'g'liga dohil gapi borligini ro'kach qildi. Ibn Bahmanyor huzuriga kirib, o'ltirgach, sohib devon kun issiq bo'lganidan muzdek sharbat keltirmoqni buyurdi. Endi bilsa, bu ishi Ibn Bahmanyor uchun ayni muddao bo'lgan ekan. Aslida-ku og'uni u solganligini ko'rgani yo'q, bu shunchaki qalb sezgisi, aniqrog'i, gumon edi xolos. Ibn Bahmanyor chiqib ketgach... U o'g'li haqida nimalar dedi?! Biron narsa dedimi o'zi?! Hech narsa aytgani yo'q, muddaosi hosil bo'lgach, qochib qoldi chog'i. Keyin esa... Yo'q, hali u battol chiqib ketmasidan avval vujudi o'lovlan boshladi. Yo falak! Bu g'addor xusumat deganlari qachon charxing ostida qolib, yakson bo'larkin?!

Xayyom namozni ado etib qaytganida vaziri a'zam mudom osoyishta uyquda edi.

-Qo'zg'olmadilarmi?-so'radi uni ko'rib o'rnidan qo'pgan nadimdan va bemorning yoniga cho'kib, manglayiga kaftini bosdi. Sulton Malikshoh oshkora xavotir ila shoshib kirib kelganida Xayyom hamon hasta vazirning yonida o'ltirardi. Sultonning ortidan inisi Muhammad Takash ham ko'zlarida sarosima ila ergashib kelgandi. Olampanohni ko'rib Xayyom o'rnidan qo'pdi va o'zini chetga olib, qo'l qovushtirdi. Tashrifi muborakni sezgan vazir ham ko'zini ochdi va o'rnidan turmoqqa urindi. Sulton epchillik ila uning yoniga cho'kib, yelkasidan asta bosdi.

-Aziyat chekmangiz, ustoz!-Sultonning mehri tovlanganidan ovozi titrab ketdi. -Ahvolingiz durustmi?.. -dedi u beixtiyor donishmand vazirining rangi qochgan yuziga boqarkan, so'zini yo'qotib.

Vazirning quruqshagan lablari tamshanib, ojiz va xorg'in ovozi eshitildi:

-Shukur, olampanoh!.. -U so'zini davom ettirmadi-da, yuzi ayanchli tirishib, tabassum yasashga urindi.

Sulton savolli nazar ila Xayyomga boqdi.

-Vaziri a'zam janoblarini og'ulashibdi, olampanoh. Kelganim hamono zarur tadbirlarni qo'lladik. Inshoolloh, xavf chekindi.

Og'uning asli nabototdin ekani boismi, xavf osonroq daf bo'ldi. Chunki g'iyohdin olingan og'u zaif bo'lur. Xudo xohlarsa, bir-ikki kunda oyoqqa turg'aylar... -Xayyom bor gapni sultonga tezroq yetkazmoq uchun muxtasar so'zladi.

Olampanoh ko'zlarini yumib olgan vazirga yana bir bor nazar tashladi-da, otilmoqqa shaylangan g'azab o'tini bosmoq uchun tishlari orasidan dedi:

-Kim?!.. Og'uni kim solibdur?!..

Xayyom Sultonning so'rog'iga uning ovozigga aksil o'laroq vazminlik ila javob qildi:

-Ozgina fursat burun huzurlariga Ibn Bahmanyor kirgan ekan...

-Tutdilar mu?!.. -sulton shoirning gapini bo'lib.

Xayyom bunga tayyor edi, shul bois esankiramadi:

-Soqchiboshiga tutmoqqa farmon berdim.

Sulton vaziri a'zamning ustidagi guldor choyshabni mehribonlik ila tuzatgan bo'lib, shahd o'rnidan turdi. Yosh saljuqiyzoda sultonning qoni chinakamiga ko'pirmoqda ediki, ko'zlari g'azabdan yonib, tishlari g'ijirlab ketdi. Filhaqiqat, ayni damda navjuvon hukmdorga yoshlik o'z hukmini o'tkazar va u vazminlikni faromush etmoqda edi. G'azabdan hayqirmog'iga hasta vazirning oromini buzmaslik istagi monelik qilardi xolos.

-Zudlikda bosh tabibni bunga chorlang'iz! U boshliq barcha tabiblar shunda ogoh tursinlar. Vaziri a'zamning sihatidagi har ne o'zgarishdin meni xabardor etsinlar!-deya amr etdi sulton.

Shu payt shahdam sarboziy odimlar ila soqchiboshi kirib keldi va sulton qoshida tiz cho'kib, bosh egdi .

-So'yla!-dedi sulton shoshib, uning ijazatsiz bir so'z aytmaligini bilganidan.

-Farmonga binoan Ibn Bahmanyorni bandi etdik, olampanoh!

Sulton Xayyomga qayrilidb.

-Narigi xonaga o'taylik!

Ular vaziri a'zamning ko'rinishxonasiga (qabulxonasiga) o'tganlari hamonoq chuhralar sulton uchun oromkursi hozirladilar. Hukmdor ham aynan shuni xohlagandi-aqlga erk bermoq uchun ne qilib bo'lsa-da, g'azabini sindirmog'i lozim edi. Buning mashoyixlar e'tirof etgan birlamchi tadbiri esa o'ltirgan bo'lsang qG'pmoq, turgan bo'lsang o'ltirmoq va kalimai ilohiy ila la'inga xayr bermoqdir. Oromkursiga o'ltirib, ishorat etgach, miqti jussali Ibn Bahmanyorni olib kirdilar. Uning dumaloq ko'zlari olazarak boqar, biroq ular da qo'rquv sezilmasdi.

-Ne nomaqbul nimarsani tanavvul etding, sakbachcha?! -g'azabnok bir ovozda so'radi sulton.

Qo'llarini qovushtirib, itoatkorona bosh eggan Ibn Bahmanyor yer ostidan g'o'ldiradi:

-Muborak so'zlaringizni anglamoqdin o'jizmen, oftobi olam.

-Mug'ombirlik nafsiz. Qilmishing ayyon. Vaziri a'zamda ne xusumat bor edi shuni bilmoq istaydurmen.

Ibn Bahmanyor jim turaverdi.

-Gapir, nojins!.. -deya hayqirdi sulton.

Ibn Bahmanyor yana jim.

-Uning boshiga sakning kunini soling'iz, toki xiyonatini bo'ynig'a olib, g'alamis sheriklarining' nomlarini ham oshkor etsun! Olib chiqing'!..

O'ninchi bob

1

Sulton bu tunni har vaslida uni lazzat va shuningdek, tushuniksiz bir vahmga oshno etguvchi malika- ko'hna Buxoro go'zali Zuhra Xotun og'ushida o'tkazdi. Malika chindan ham husnu latofat, nozu karashma va hatto navqiron sultonni olov-otash bag'riga solmish shahvat, ya'ni ishq o'yinlari borasida ham benazir edi. Bu albattaki tojkor hazratlarini befarq qoldirmas, ko'pincha oqshomlarini uning to'shagida o'tkazmoqqa oshiqardi. Biroq sulton yosh bo'lishiga qaramay o'z haddini ham bilardi, ya'ni izmu ixtiyorini o'jizlar ilki berib qo'ymoqlikdan saqlanardi. Bu borada otasi vasiyat qilgan ustoz Nizom ul Mulkning nasihatlariga amal qilmoqqa urinardi. Chunki butun umrini ilmga, obodlik va ezgulikka sarf etayotgan vazir har bir yumushga kirishmoqdan ilgari uzoq o'ylar, mashoyihlar aytganlaridek-etti o'lchab bir kesardi. Shul boismi, kamdan-kam adashuvga, xatolikka yo'l qo'yar va sulton ham uning yo'rig'iga yurib, hali shu damgacha afsus-nadomat chekmagan. Qolaversa, vaziri a'zamning yuz-ko'zida, so'zida va umuman butun xatti-harakatlarida ajib bir ilqlik, kishini o'ziga tortguvchi, ehtimolki, o'ziga ishontiruvchi, oxir oqibat o'z ortidan ergashtiruvchi tajalliymi yoxud sehrmi mavjud edi. Ayni shu sehrmi va yoxud boshqa nimarsami, uning g'animlariga yoqmasdi, hatto undan qo'rquv oldilar. Sultonni sehrmi jodu ila o'ziga bandi etib olgan, yo'rig'iga solgan, deya yozg'irardilar.

Sultonning sohib devonga nisbatan ota meros samimiy mehrini, hurmatini va ikkisining oralaridagi do'stlikni tushunmoqqa ular qodir emasdilar. Chunki bu ko'hna dunyo shunday yaralgan. Unda iymon ahlining birlashmog'i, yakdil bo'lmog'i azal-azaldan mushkul, jamiki yaxshilikpeshalar yakka-yakka holda iztirob og'ushidalar. Ha, azali shunday. Aksincha, shaytoni la'in qavmidan bo'lmish iymonsiz kimsalar esa juda-juda oson eshlashadilar, bir lahzada boshlari birikib, til ham topishib oladilar. Yosh sulton mana shu jumboqni yechmoqqa o'jiz, xuddi shu savdoning iztirobidan dog'da. Adovatning qo'llari uzun, tirnoqlari o'tkir, bir zum ehtiyotni unutsang, vujudingni tilka-pora qiladi. Uning qoshida tojkorlarning haybatu viqori ham hechdir. Agar aksi bo'lganida, ul xusumat ahli sultonning eng yaqin kishisiga, pinhona piri murshidim deb qo'l bergani donishmand zotga tish qayrarmidilar?! Nadomatkim, ularning bu qilmishlari birinchi bora ham emasdiki, hukmdor uni hamisha his qilib yashardi. Vo darig'! Axir na uning, na vaziri a'zamning boshqalarga, aniqrog'i, a'yonlarga aslo yomonligi yo'q-ku. Nahotki do'stlikning, chin birodarlikning, yaxshilik quvvatlanmog'ining siylovi shu bo'lsa?!..

Sulton Malikshoh go'daklik chog'laridanoq padari buzruvori Alp Arslon hazratlarining va u kishining xohish irodasiga binoan Nizom ul Mulk janoblarining nazoratida bo'ldi. Ha, u saljuqi sulton buyuk Alp Arslonning zabardast bilaklari, keskir qilichi soyasida hamda buyuk Nizom ul Mulkning tafakkuri, ilmi donishi ta'siri ostida ulg'aydi. Aynan shunday! Ehtimol u ham shamshir kuchiga zo'r berib, tafakkur nuridan bebahra bo'lganida bu adovatlar bo'lmasmidi. Chunki qattiqqo'l otasi bu kabi pinhoni so'g'ishlarga mutlaqo yo'l bermasdi, har ne bo'lsa qilich ila bostirardi. Balki u ilmga hurmati bois yumshoq ko'ngil bo'lib va shuning uchun ham g'alamis kimsalar g'imirlab qolgandirlar? Ne qilsin, u ham barcha mushkulotlarni qilich ila hal etsinmi? Unda qurayotgani bu rasadxona, bu masjid madrasalar qonga botmaydimi? Bir qarashda juda oddiy tuyulgan bu o'ylar, hal qilinishi, ayniqsa, hukmdor uchun, oson ko'ringan bu mushkullar kishini chindan-da azoblovchi edi.

Malikaning vaslidan xushnud qaytgan sulton miyasiga tuyqus urilgan bu xayollardan so'ng taqi tundlashdi. Malika haqiqatan sultonning ko'nglini ovlashga urindi, bu safar ham qiyossiz lazzat og'ushiga g'arq etdi. U ikki o'g'lini yoshiga yetmay tuproqqa topshirgach, yurak oldirib qo'ygandi. Besh yoshga to'lgan yakka-yu yolg'iz o'g'li-shahzoda Mahmud uning tanho umid yulduzi edi va u mana shu umid yulduzining so'nmasligi, samo uzra baralla nur sochmog'i eriga-sulton Malikshohga bog'liq ekanligini juda yaxshi bilardi. Go'zal malikaning sulton ko'ngliga yo'l izlamog'iga, uning ishonchini qozonmoqqa urinmog'iga bois yuksak ma'volarni ko'zlagan onaning matlubi (orzu qilgan narsasi) edi. U yolg'iz o'g'lining saljuqi malika Zubayda Xotundan tug'ilmish shahzodalardan avval taxtga o'ltirishini, sulton uni birinchi merosxo'r etib tanlashini istardi. Aslida bu baxtga eng avvalo saljuqi malikadan tug'ilmish shahzodalardan haqli edilar. Buni Zuhra Xotun ham juda yaxshi bilar va shul boisdan ham sultonning ko'ngliga yo'l axtarardi. Botinan erini sahroyi avbosh (bebosh) deya kamsatir, o'zining ko'hna Buxoro malikasi ekanligidan fahru iftixor etardi, kibr havosida uchardi. Biroq sulton Malikshoh ayol zotining makru xiylasidan ogoh edi va shuning uchun ham kallasidagi o'ylarini birovga, ayniqsa, o'jizlarga oshkor etmasdi. Uning kuchi ham aslida shunda edi. Ayollarning davlat ishlariga aralashmog'iga yo'l qo'yamaslikni vaziri a'zam o'rgatgandi. U bu borada ko'plab hikoyat va rivoyatlar ham aytib bergandi. Aynan o'sha hikoyat va rivoyatlar uning "Siyosatnoma" o'tlig' kitobiga ham kiritilgandi. Ayollar ila maslahatlashmoq aslida sultonning Olloh bergan fe'liga ham begona edi.

Sultonning qalbi xush bir suhbatni sog'indi. Peshin namozidan so'ng kishi yuborib, vaziri a'zamning ahvolidan ogoh bo'lgach, Umar Xayyomni chaqirtirdi. O'z bog'ida shoir ila suhbat qurib, ko'ngil xijilligini yozmoqni ixtiyor etdi.

Sulton bog' sari o'tmog'i arafasida yana bir noxush xabarni eshitdi: to'rt kundan beri zindonda bo'lgan Ibn Bahmanyor qo'qqisidan qazo qilbdi. Xabar berishlaricha, hali unchalik og'ir qiynoqlarga solinmagan xiyonatkorning birdan jon taslim qilishi shubhali edi. Har tugul uni o'lar darajada azoblashmagan va sultonning ijozati bo'lmagach, qatl etmoqqa ham jur'atlari yetmasligi aniq edi. Nahotki xiyonatchi kaslarning ildizlari zindongacha yetgan bo'lsa-ya? Bandi o'z sheriklarini fosh etguvchi biron bir gap aytib ulgurmagandigan bilmoq mumkinki, uni o'ldirishgani chin... Sulton o'ychan va parishon qiyofada ulkan bog'ning naqshinkor shiyponiga yetib borganda ortidagi Xayyomni payqadi. Ko'rishdilar. Ibn Bahmanyorning vafoti haqida Xayyom ham eshitgandi,

shuning uchun sultonning yuzida zuhur etgan tashvish ma'nosini tushunganday bo'ldi. Bu esa hukmdor to fikrlarini jamlab olgunga qadar jim turmog'i lozimligini anglatdi.

O'ltirdilar...

Bog' bisyor ko'rkam edi. Hov narida turfa xil mevalar barq urib yashnagan, oftob nuriga yo'g'rilgan yashillik ko'zni qamashtiradi. Berida, ya'ni shiypon tevaragida esa xar xil tusdagi gullar qiyg'os ochilib yotibdi. Gulzorning umumrangida muzaffarlikka erishgan qizillik betakror bir go'zal manzara kashf etgandiki, kishi qalbiga ehtiros, tug'yon solmog'i ayon edi. Gulzor yoqasida qad rostlagan qator sarvlar esa gul uzmoqqa shaylangan suluv qizlarga monand. Gul va mevalarning oralariga tosh yotqizilib, tekis yo'laklar qurilgan. Bog'u gulzor bag'ridan har turfa qushlarning sayrashlari eshitiladi.

Shiypon juda so'lim edi. Ayniqsa, uning tomidan har tarafga bir maromda shildirab oqib turgan suv tarovati jonga orom bag'ishlaydi. Bu suv korizlar (er osti ariqlari) orqali oqib kelib, shiypon tomiga ko'tarilardi va tom uzra yoyilardi. Go'yo shiyponning to'rt tomoniga yaltiroq harir parda tortilganday... Tabiatning fusunkor manzarasi g'ashlangan ko'ngullarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi-sulton xiyol yengil tortdi. Shay turgan go'zal kanizaklar uning ishorasi ila xizmatga kirishdilar. Keng xontaxta ustidagi shohona dasturxon ko'zni qamashtirardi. Eng avvalo kanizaklar tutgan yaxna sharbatdan totindilar. Vujudlariga huzur indi.

-Bu gal shatranj ila boshingizni tanglamoqchi emasmen, shoir. -deya jilmaydi sulton, -Illo bizni ham she'ru yulduzlarga oshno etmog'ingizni istaydurmiz.

Sultonning lutfidan shoirning ham yuzida tabassum balqdi.

-Bosh ustiga, olampanoh.-dedi qo'lini ko'ksiga qo'yib.

-Ko'nglingiz daryo bo'lib oqsun, shoir. Biz esa unda g'arq bo'laylik.

Xayyom sultonning qoshida o'ltirganini unutmadi, zero u hukmdorlar huzurida muvozanatni tutmoq lozimligini juda yaxshi anglardi. Shohlar Quyosh yanglig'-bisyor yovuqlashsang, kuyib qolasan, oncha uzoqlashsang, yaxlab to'nasan, degan hikmatni o'qigan, uqqan edi. Shul bois hamdu sano uchun tiliga erk berdi:

-Sizning shonu shavkatingiz taqi saxovatingiz ummoni oldida biz bir jilg'amiz, hazratim. Siz bahri muhitsu.

Shoirning gapi xush yoqib, sulton mamnun jilmaydi, ko'zlari quvlik ila qisilib, bo'rtgan turkona yonoqlari yaltiradi.

-Bir she'r aytingiz, shoir!

-Mening shoirlik da'vom yo'qdir, vale bir-ikki mashq etganim bor. Hozir esa... -Xayyom bir qo'zg'olib oldida, qo'lini ko'ksiga qo'yib, yengil ta'zim qildi.- Rudakiy hazratlaridan bir bitik aytgum:

Dilim, tokay "o'zim" deysan, parishon,

Temirni urma ko'p behuda, ey jon.

Dilim bir donu ishq esa tog',

Nechun bir donga bu tog'dek tegirmon?

Kelib ko'r Rudakiyni, sen agarda

Ko'ray dersan tirik tanniki bejon.

Xayyom she'rni o'ktam bir ovozda, yoqimli ohangda o'qidi. Ko'zlarini yumib, she'r ohangiga monand tebrangan sulton biroz sukut ortidan "Ofarin!" dedi va chuqur xo'sinib qo'ydi.

-Filhaqiqat, bu kajraftor falak odam bolasining uvoqdek boshiga tog' yanglig' balolarni yog'dirg'usi ekan!

Xayyom o'z quloqlariga ishonmadi-mana shu ro'baro'sida o'ltirgan odam dunyoni zir titratgan o'shal buyuk saljuqiy sulton

Malikshohmi yoxud o'z'gami? Bunchalar xorg'in va zabun ko'rinmasa u?!

Biroq sultonning bu holati lahzalik edi, oniy bir insoniy ojizlik, olam sho'rishlaridan xorg'inlik uni shu lahzalar ichra mahf etgandi.

Mana u yana mag'rur angorga kirdi, qoshlari chimirilib, o'ychan bir holatda dedi:

-Ibn Bahmanyorni o'ldiribdurlar! Taqi xiyonat!..

Xayyomning fe'lida tezlik va xiyol badgumonlik bor edi. Yuragi seskanib, "nahotki mendan shubha qilayotgan bo'lsa?", deya o'yladi. To sulton unga nazar tashlaguncha qoni ham, o'yi ham tinib, o'zini o'nglab oldi.

-Eshitding'izmi?-so'radi sulton yarim qahrli ovozda yana tilida o'g'izona shevasi paydo bo'lib.

-Eshitdim, olampanoh.

-Bung'a ne deysiz?

-Bir nima demoqqa ojizmen, sultonim.

-Bu kimning' ilkidur?-sulton bu gapni o'ziga o'zi gapirayotganday o'ychan qiyofada aytdi.

Bu orada kanizaklar muzdek maviz (mayiz) musallasidan keltirdilar va ayoqlarga quyib, hamsuhbatlarga tutdilar. Mezbonlik hurmatidanmi yoki rostdan ham Xayyom ila xush suhbat qurmoq istagidamidi, sultonning yuziga yana tabassum yugurdi.

-Bul haqda she'ringiz bisyor turar, janob?-dedi Malikshoh barmog'i ila bodali oltin ayoqni chertarkan, mug'ombirona jilmayib.

Shoir ham tabassum qildi va tagdor so'z aytdi:

-Tojdorning amri vojib.

Xurramlik kitobin o'qimoq kerak,

Dilda g'am ko'kati o'smasin andak.

May ichib, istaging o'rinlat doim,

Ma'lumki, tez kelur o'limdan darak.

Bu sultonning ko'ngliga qarab aytilgan she'r edi.

-O'lmag'aysiz, shoir! Qani!-qadahga ishora qildi hukmdor.

Ichdilar.

Bu orada xush bo'yi dimog'larni qitiqlagan suyuq taom tortildi.

Taomlandilar.

-Janoblari osmon ilmi ila ham mashg'ullar. Yulduzlar asroridan ham so'ylasunlar.-Sultonning nafs o'rom topib, musallas tufayli qoni qiziganidanmi, endi muloyim so'zlardi.- Ularning insonlar taqdiridan so'z aytmog'i chinmi? Axir Ummul Kitobda...-gapini so'ngiga yetkazmadi, zero fikrini shoir tushunganligini payqadi.

-Haq gap, sultonim.-deya gap boshladi Xayyom so'z ohangiga oz bo'lsa-da dag'allik singmog'idan ehtiyotlanib. -Filhaqiqat, Olohd taboraka taolo Qur'oni karimda yulduzlarga qarab fol ochmoqni, taqdirlardan bashorat qilmoqni ta'qiq etgan. Zero bu majusiylarga xos bir ilatdurki, u bilan mashg'ul bo'lmoq musulmon ummatiga chandon ofatlar yog'dirmog'i ham tayin... - Shu yerga yetganda shoir chaynalib, o'z fikrini sultonga to'la aytmoqdan xavfsirayotganligini oshkor etib qo'ydi.

-Tortinmay so'zlayvering, ey, Ibrohimning o'g'li! -deya xitob qildi sulton arab lisonida va jilmayib qo'shib qo'ydi, -Ijzat.

Shoir dadillashdi:

-Biroq ilmi nujum o'z nomi ila ilmdur. U ila shug'ullanmoq olam mo'jizalarini anglab, Olohning kuchu qudratini tuymoqqa imkon beradi. Demak, jamiki mahluqotni anglamoq mumkin bo'ladi. Bu esa o'zni anglamoqdur. O'zlikni anlamog' o'z davomiyligi ila Olohd vasliga musharraf etadi. Illo Hazrati risolatpanoh sallallohu alayhi vasallam "Beshikdan to qabrgacha ilm izlang", deya bejiz marhamat qilmaganlar.

Sulton kuldi:

-Demak, olamni anglash yo'lida kufr ketmog' ham joiz ekan-da?

-Fikri ojizimcha, unday emas, olampanoh. Ehtimolki, sarvari olam payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam "Dinda chuqur ketmanglar" deganlarida shu narsani nazarda tutgandirlar.

Bu ayni topib aytilgan gap edi. Jim qoldilar.

Nihoyat yana sulton tilga kirdi:

-Nahotki ular chindan ham odam bolasining taqdiriga ta'sir eta olsalar?

Xayyom hukmdorning izat-nafsini himoyalagan holda ohista javob berdi:

-Aynan shunday, hazratim. Illo Olohd taoloning mo'jizasi-yu asrori behisob. Yulduzlar ham ana o'sha asrordan biridir. Falakning aylanishi bois tun va kun almashib turadi. Yulduzlarning taqdirlarga ta'siri ham falakning o'sha aylanishi asosiga qurilgan. Ya'ni o'n ikkita burj bo'lib, ularning har birida ma'lum yulduzlar turkumi jam bo'lganlar. Ular yulduzlarning xonadonlari hisoblanadilar.

Burjlarning nomlarini sultonim ham biladilar, albatta.

-Adashmadingiz, shoir. Vale bu sirning ostiga mudom yetolmayotirmen,-dedi sulton borki diqqatini jamlab Xayyomga tikilarkan.

Xayyom ham endi suhbatga berilib ketgandi.

-Insonning ruhi va shuuri samo toqiga uzviyligi shubhasiz. Axir Odam safiyullohd ko'kdan-jannatdan quvilmaganmidilar.

Qolaversa, ruh bizning aqlimizdan necha chandon taraqqiy etgan bir asrordir. Bu haqda Olohd taboraka taolo ham xabar bergan.

Balki qodiri Olohd o'z sirini o'sha yulduzlarga pinhon etgandir. Sayyoralarning o'shal burjlardagi yulduzlarga munosabati inson taqdiridan mujdalar beradi.

Kanizaklar navbatdagi taomni keltirdilar.

-So'zlayvering, shoir!-dedi sulton shoshib, qiziq bu suhbatdan ayrilib qolishdan cho'chiganday.

-Olohd bu burjlarni to'rt xususiyat ila yaratdi. Buni bilmoq ham juda muhimdir. Ya'niki ularning uchtasi o'tga, uchtasi tuproqqa, uchtasi havoga, uchtasi suvga mansubdir. Zero Olohd Odamni mana shu unsurlarning uyg'unligidan bino etgan-bu sir emas.

Demak, har birimizning vujudimizda ana o'sha unsurlar mujassam va ularni ruh idora etadi hamda samo ila bog'lab turadi.

-Subhonolloh!.. -Sultonning ko'zlari chaqnab ketdi,-Demakki, butun mahluqot-nabototu hayvonot, barcha-barchamiz bir butun ekanmiz-da?

Xayyom ta'zim qilarkan, dedi:

-Sultonim haq gapni aytdilar. Bir butunligimiz shunda ham aks etadiki, agar odam jazm etsa, o't-o'lanu daraxtlar, parranda-yu darranda va jamiki mahluqotning tilini tushunmog'i mumkin. Bundayin xislat payg'ambari mursalinlarga va ba'zi valiylulohlarga ham ato etilganligi buning isbotidir.

-Ha-a, -bu gaplardan ta'sirlandi sulton,- Olohd taboraka taoloning hikmati mo'!..

Shoirning mabodo gap samo xususida borguday bo'lsa, berilib ketganidan goho fikr ummoniga g'arq bo'lmoq odati mavjud edi.

-Basharning butkul hayoti osmon ila hamrishtadir. Oldingi qavmlarning halokatga yuz tutishini, osmondan tosh yog'ilishini eslang, olampanoh. Hatto yerga keladigan ofatlar ham samodan kutiladi. Chunki unda yerga ancha yaqin bo'lgan mayda olov yulduzlar suzib yuradi. Mabodo ular zamanga urilguday bo'lsalar bormi... Faqat Olohgina bu oftlardan saqlab turibdi.

Xayyomning qulog'iga ulug' bir sukunat kelib urildi-da, barcha tovushlar nari qochdilar va u o'zini yuhoday bo'shliq qa'riga tushib qolganday his qildi. Qarshisida o'ychan o'ltirgan sulton ham ko'z o'ngidan uzoq-uzoqlarga ketib borardi. U chap yoniga xiyol o'girilishi hamono ko'z ostida xira qoramtir parda hosil bo'lib, tobora chor atrofni qamrab olayotganga mengzadi. Bu holat unga tanish edi, shul sabab ko'nglida istig'for aytdi. "Yo Olohd!.. Bu nechuk sinoat?!.. " Orqa tomonidagi gulzor bag'ridan bulbulning ovozi eshitildi. Bu ovoz shu qadar tiniq, zavqli va mastona ediki, hatto bundayin xonishlarni necha bor tinglagan hamda bunga ko'nikib ulgargan sulton Malikshohning ham e'tiborini tortdi. Shoir hukmdorning nigohida aks etgan shavq va qiziquvchanlikka uyg'un bir alpozda asta ortiga o'girildi. Nadomatki, shiyponcha tomidan oqib turgan suv pardasi nariroqni kuzatmoqqa monelik qildi. Sultonga ergashib u ham o'rnidan turdi, ikkisi shiyponcha bo'sag'asiga chiqdilar. Ikki mastona ko'ngil-jahongir shoh hamda benazir olim va shoir nigohlari ila sohibi navoni, qalbilariga mislsiz otash solgan hofizni izlay boshladilar. U hamon sayrardi, ovozi va kuyi tobora jo'shib borardi. Javzo adog'ida qoni junbushga kelgan qush ularni uzoq intizor qilmadi, avval chaman chetidagi gulning pastki shoxida paydo bo'ldi-da, so'ng yerga tushdi. Ovozi esa tobora balandlab, tobora nolakor bo'lib borardi. U o'ziga hayrat ila boqib turgan shoh va shoirga ancha yaqin kelib qolgandi.

Lolu hayratda qolgan sulton bulbul xonishini uzoq tingladi. So'ng:

-Navosozlar shohi poyingizdadir, shoir!-dedi ovozdagi ehtiros ta'sirini yashirolmay. -Shuncha yurt kezib, yurt so'rab, hali bunaqasini ko'rmagan, eshitmagan erdim. Bulbul inson qoshida tiz cho'kib, xonish qildi-ya! Bu ham bo'lsa, sizning sharofatingizdandur va u buyuk istiqbolingizdin bashorat qiladur.

Xayyom ham qattiq mutaassir bo'lgan va u ham ehtirosini yashirmoqdin ojiz edi. Buning ustiga, olamni titratgan tojdor unga chin dildan ehtiros ko'rsatib turardi. Shuning uchun bosh egib, sultonga ta'zim qildi.

-Sultonim bizning ta'rifda mubolag'a etdilar. Navosozning bu alpozi olampanohning ulug'ligi hamda qudratining haybatidandur.- dedi lutfi oliyga javob lutf etib va sarxush bir ovoz ila she'r o'qidi:

-Bu kun bulbul o'qir dostonu doston,
Mayni qo'ldan-qo'yima mastonu maston.
Turib gulzorga chiq, uch-to'rt kun bo'lsin
Hurramlik manziling bo'stonu bo'ston.

Shoir ko'z o'ngidagi boyagi xira parda ko'tarilganday, o'ng yonidan yorug' taralib, borliqni ishg'ol etganday tuyuldi...

2

Xayyom rasadxonaga o'shanday ahvolda, turfa tuyg'ular og'ushida qaytdi. Mikoilga ijozat berib, yuqoriga-oshyonasi tomon ko'tarilarkan, yuragida allanechuk iztirobli otash tug'yon urib, o'rtana boshladi. Eshikdan kirdi-yu uning sharpasini payqab, peshvoz chiqqan Parmudaga ro'baro' bo'ldi. Unga o'z kechmishini sezdirmaslik uchun bilinar-bilinmas ishorat ila ijozat berdi va xonasi sari o'tdi. Boshidagi sallasini olib, devorga ildi, jubbasini yecharkan, uning sidrilib oyog'i ostiga tushganini ham payqamadi. U o'zini bu ko'yga solayotgan tuyg'uni she'r dardi deb o'yladi va xato qildi. Chunki xontaxta ustiga kelib, davot uzra enkayishi hamono bo'g'ziga nimadir tiqildi va sapchib qaddini rostladi. Nazdida, bag'ri kuyib borayotgandek tuyuldi-da, ko'ksini kafti ila yutoqib ishqaladi, barmoqlari ila tirnab tashlagisi keldi. Biroq butun tanasi qzib, kipriklarining osti achishmoqqa tushdi. "Yo Oллоh, bu ne asror?!" deb yubordi chiyillab. Keyin quloqlari goh shovqin-suronga to'lib, shang'illadi, goh qiyossiz bir sukunat ila o'ranib, vang bo'ldi. Bo'g'zidagi nimarsa tashqariga otila boshladi, kipriklari ostida cho'g' paydo bo'lganday yonib, uchqunlar sachratdi. Na turolmas, na o'ltirolmas va na yotolmas, o'zini u yondan-bu yonga urardi. Goh u devorga, goh bu devorga musht tushirar, tinmay "I-ii!.. Vah-h!.. Uxxuxuxu-uu!" deya tovush chiqarar, "Menga ne bo'ldi?" deb o'zini o'zi savolga tutar va bu so'roqqa hozir javob topgulik holda emasdi. Ko'zlaridan yosh otilib ketdi. "Yo-o-o'qq!.." dedi u taqi bir bora devorni mushtlab. Ammo na bu xitob, na vujudidagi g'ururu or va na devorga urilgan mushtlari uning jolalarini tutib qola olmadilar. U yig'ini tan olmay yig'layverdi, ko'z yoshlari oqaverdilar va shu asno butun xona uzra oppoq nur yoyilaverdi.

-Yo Qodir Oллоh!.. -deya o'rtandi u.

Uning borlig'ini nur qamrab oldi. Ayni damda vaqt o'lchamsiz edi go'yo...

Shu payt shiftdan o'z ipiga osilib asta pastlayotgan ankabutga (o'rgimchakka) ko'zi tushdi. Unga andarmon bo'lib, o'rtanishlari to'xtadi. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamning haloskori (Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamni mushriklar quvganda, tuyqus g'orga yashirinadilar. O'shanda Oллоhning irodasi ila o'rgamchaklar tezlikda g'or og'ziga o'z to'rlarini to'qib g'o'yadilar. Mushriklar g'or og'zidagi o'rgimchak to'rini ko'rib, u yerga hech kim kirmagan, deb o'ylaydilar va payg'ambarimiz omon qoladilar. Bu yerda shu voqeaga ishora qilinmoqda.) qavmidan bo'lmishni kaftiga oldi. Ankabut tek qotdi. Shoir bu seroyoq qora jonzotni ko'zlariga yaqinroq olib kelib, tikildi. Yo Rab, bu mahluq tengsiz bir san'at mahsuli bo'lgan naqsh yanglig' buyuk Musavvirning bemisl ijodini ko'z-ko'z etib turardi. Uning tug'yonlari butkul tindi, otashlari so'ndi. Ankabutni kaftida tutib, daricha oldiga bordi-da, tashqariga chiqarib tashladi. Chuqur bir ho'rsinqg' ila vujudini yengillashtirib, davot sari qaytdi. O'ltirdi. Ilkiga xomani olib, yoza boshladi:

Sukut va faqirlik emasdir bekor,
Dunyo talabiga hadsiz ofat bor.
Ikki ko'z, til, quloq omon chog'ida
Ko'zu til, quloqsiz bo'lmoqlik darkor.

To'rt satrni bir nafasda yozib bitgach, qog'ozni qo'lga olib, yozuviga biroz tikilib turdi va she'rni ovoz chiqarib o'qidi. So'ng mamnun jilmayib, yengil tin oldi. Ayni damda shuurida ushbu fikr aylandi: "Parmudani sohibi devonning haramiga qaytarmog'im durust bo'lur, chog'i?.." va buning ortidan ko'z oldida Maryamning go'zal chehrasi namoyon bo'ldi.

O'n birinchi bob

1

Mikoil Laylini shahar qopqasida kutmoqda edi. Darvozabonlarga berilgan kumush tanga qizga tashlanadigan savollarning umriga zomin bo'ldi. Oqshom fayzidan va visol tug'yonidan mastu masrur ikkovlon ildam qadamlar ila daryo tomon bordilar. Tun oydin edi. Ko'k toqida g'uj bo'lib jamlangan yulduzlar har tarafga sochilib borayotganday siyraklasha boradilar. To'lin oy misoli shamchirog'u uning tevaragida miltiragan yulduzlar parvonalar yanglig'. Ularning ojiz nurlari to'lqin-to'lqin bo'lib oqayotgan daryo suvida jilvalanadi. Termulib turgan odamning ko'ziga goho suv ham nur taratayotganday tuyuladi.

Mikoil ham rasadxonaga kelib, Xayyomdek yulduzlar ilmining sultoni ila muloqotda bo'lib, har kuni samo saltanati ahli haqida gaplar eshitavergach, beixtiyor tarzda o'zida yulduzlarga qiziquvchanlik seza boshlagandi. Hozir ham sohildagi quyuq maysa ustiga yonma-yon o'ltiradilar u osmonga tikilib, bir entikib qo'ydi. Ehtimolki, vujudidagi g'alayonni bosib, tez-tez urayotgan yuragini sovutmoqchi bo'ldimi, anchagacha so'zsiz o'ltirdi. U-ku er kishi, ayni damda qiz ham huddi shu ahvolda edi, entikib-entikib nafas olardi.

-Haram bekasi o'z xobgohiga kirib ketgach, pinhona qocha qoldim. Durust qilibmanmi?...-dedi qiqirlab qiz.

Yigit uning bu rag'batidan so'ng xiyol dadillashdi:

-Soz qilibsiz, Layli, juda soz!-deya o'rtandi u butun jismi ila qizga talpinib,-shukurki, maktubimni olgan ekansiz.

-Olgandim...-dedi qiz ehtiros og'ushida ovozi titrab,-Shundan beri jonimda halovat yo'q. Hali shu choqqacha bundayin kechmish menga begona edi... Kecha tun bo'yi yig'ladim!- qizning ko'zlarida yosh yiltiradi.

-Nechuk, Layli?!-Mikoil qizning so'l ilkini kaftlari orasiga oldi,-Nechuk yig'ladingiz, jonim?!

Bu olovli so'zdan qiz bir seskanib tushdi va uning ta'sirida bir muddat so'zsiz o'ltirdi.

-Hali go'daklik chog'imdayoq meni Movarounnahr hukmdorining qizi, buxoro malikasi Zuhra Xotunga in'om qilganlar. Na ota-onamni, na qarindosh-urug'larimni eslay olaman. Bir umr shirin so'zga, dildan qilinguvchi samimiy muomalaga zor bo'lib yashadim. Axir!.. -Qizning bo'g'ziga yig'i tiqilib, gapirolmay qoldi.-Axir kishida oila bo'lmog'i kerak-ku, shunday emasmi?! Oila Oллоh va uning payg'ambari tomonidan ham sharaflanadi-ku!..

O'z Vatanidan, yaqinlaridan butunlay yiroq tushgan Mikoilning ham bu gapdan yurak-bag'ri ezilib ketdi, qizga dil-dilidan achindi. Uning barmoqlarini ohista silab, ovutmoqqa urindi.

Qiz o'zini hiyla bosib oldi, yigitning samimiy mehrini tuyib, shuuri tiniqlashdi.

-Malikamizni sultonga uzatishgach, bizni ham oliyamizning sep-sidrasini ila Isfahonga yo'lladilar. Endi mening birdan-bir orzuim, tunu kun Ollohdan tilagan zorim bor-bu shirin bir oila qurmoq, vayrona bo'lsa-da o'z uyimga erishmoq!.. -Qiz xo'rsindi, bir-ikki hiqqillab yuz-ko'zlaridagi yoshni artdi.-Sizni ko'rdimu, ko'zlarigizdagi samimiyatni his etdimu, orzuim ushalmog'iga ishona boshladim. -U yigitning Oy ziyosida aniq ko'rinib turgan ko'zlariga qattiq tikilib, nola qildi.-Orzuim ushaladi,a?! Siz bunga sa'y etasiz-a?!

Mikoil qizni bag'riga tortib, yuz-ko'zlarini siladi. Butun vujudidan balog'at ufurib turgan yorining xushbo'y hidini simirdi.

-Ha, jonim, ha! Xojam Umar Xayyom hazratlaridan o'tinamen. U kishi bizlarga albatta shafqat ilkini uzatgaylar!

Yigit qizni qattiqroq quchib, tamshangan lablariga lab bosdi. Ular chandon totli edilar...

2

Mikoil rasadxonaning yuqori qismidagi xosxonaga kirib kelganda usturlab yonidagi tarxu chizmalar tevaragida Vositiy, Isfazariy, Artur rohib va Rindoniylar qizg'in suhbat og'ushida edilar. Uning miyasiga eng avvalo "xojam ko'rinnmaydilaru" degan fikr urildi.

-Assalomu alaykum.-dedi negadir davraga yaqinlashmaslikka urinib v tokchada turgan idishdagi suvdan simirmoqqa tutindi.

-Vaalaykum assalom.-derkan Ifazariy odati bo'yicha jilmayib, Mikoilga ikki og'iz so'z aytib qo'yimoqni lozim topdi.-Sizni Polvonni sayrga olib ketgan desak, o'zingiz ketavergan ekansiz-da. Buyoqda Polvon bechora bir bo'zlaydi-bir bo'zlaydi.- endi u o'z so'zini mutoyibaga yo'g'irdi. -Sohibi ersa, daryo og'ushida g'arqlar.

Mikoil bir sarosimalandi, "sezib qolishdimikin-a?" degan hadikda zimdan hammaga bir-bir qarab chiqdi. Filhaqiqat, faqatgina rohib atrofga va ayniqsa, unga beparvo o'ltirar, qolganlar esa birovi sezdirib, birovi pinhona nazar tashlab qo'yidilar. Mikoil daryoda cho'milgani bois kechki salqinda xiyol junjikib turar va buning ustiga o'rtanganidan muzdek suvni simirgani badaniga battarroq sovuq taratdi. Soqol-mo'ylovi, tanasi moychiroqning xira qizg'ish nurida yaltirab ko'rindi.

Uning xijolatda qolganligini sezgan Rindoniylar e'tiborni boshqa yoqqa burmoqqa urindi:

-Hay, sizlar yulduzlarining kovlashtiringlar bo'lmasa. Men ham o'z yumushlarimni qilay. -U shunday deya kuchanib o'rnidan turdi.

Taqi Isfazariyning so'zamolligi tutdi:

-Yulduzlarga aytaringiz yo'qmidur, Rindoniylar bobo?

-Yulduzlar ila siz so'zlashursiz, siz xezlashursiz, mullo yigit. Biz ersa zaminda yurib turg'onimizdan shodmiz.

Rindoniylarning quvnoq, biroq tagdor gapidan so'ng davrada yengil kulgu qo'pdi.

-Ustoz qanilar?-so'radi Mikoil "meni so'roqlamadimi ishqilib" degan savol ohangida.

-Ustoz tafakkur ila bandlar chog'i, hanuz chiqmadilar. Shomdan avval oshyonasiga kirib ketib edilar.-dedi Vositiy ham savolga javob berib, ham o'z fikrlarini bildirmoq ma'nosida.

Mikoil xotirjam qiyofaga kirib, bir chetga o'ltirdi. Ayni damda davradagilar ham uning ahvoliga befarq qolgandilar.

-Nazarimda, hisob-kitoblarimiz taxt bo'ldi.-dedi Artur do'rillagan ovoz ila o'ychan qiyofada.- tarxu chizmalarimiz ham tayyor.

Xayyom janoblari bir nazar qilsalar bas.

-Ustozning ajab fe'li bor-da,-deya yana tilga kirdi Isfazariy,-Bir ulug' ishni boshlaydilaru taqi boshqa nimarsani rejalab boradilar.

Mana, shamsiy taqvim ishlari nihoyalab, "Solnomai Malikiy" nomini olmoqda hamki ul zot o'zga o'ylar ila bandlar. Kim biladi hozir...

Xosxonaning burchagida o'z ishlari ila mashg'ul bo'lgan Rindoniylar ilkida eski latta tutgan ko'yi taqi davraga yaqinlashdi.

-Xojamiz buyuk qalb sohibidirlar. Har sohada hurlikni qadrlaguvchilar.-deya gap boshladi rohibning yonboshiga o'ltirarkan. -

Basiyri a'loning (Ollohning) haqqi-hurmati hech kishini hech bir fikr va yoxud amali uchun ta'qibu taqiq etmagaylar. Ollohni ham har kim o'z bilganicha taniydir deyidilar. Aslinda ham ana shunisi haqdur. Birovning aqli ila topilgan nimarsa, filhol birovniki dur...

-Devonaning devona falsafasi tutdi.-deya shipshidi tirjayib Isfazariy Vositiyning qulog'iga.

-Har ilmida qalbgaga ham, aqlga ham erk bermoq darkor. Xojamiz shuning uchun ham buyuklarki, ko'ngul hurligini tarannum etadilar. Ul zot Ollohning erka bir qulidirlarki, bu erkaligi barchaga xush ham yoqadi. U Ollohga huddi bola onasiga erkalagani yanglig' devona bir yo'sinda ko'ngul yoradi... -Rindoniylar so'zlashdan to'xtab, go'yo nafasi qaytib ketayotganday u yon-bu yoniga to'lg'ondi va "Eh, sizlar baribir tushunmaysizlar-da", deganday siltanib qo'ydi.

-Ishqilib Bobo Rindoniylar hazratlarimizni Adam Shayxga murid qilib olib borib bermasalar bas.-dedi Isfazariy hazilini mudom davom ettirarkan.

Biroq endi hech kim kulmadi va aksincha, "etar endi", deganday ketma-ket zardali tomoq qirib qo'yidilar. Shundagina Isfazariy ham yoshligiga borib oshirib yuborganini fahmladi. Axir ancha-muncha odamni emas, shuhrati yetti iqlimga ketgan ko'hna Isfahonning eng katta shayxul mashoyixi, karomatgo'y pir Adam Shayxning nomini tilga oldi-ya! Ulug'larning nomini kalaka qilmog'lik nafaqat Islom odobiga monand kelmasdi, shuningdek, bu ulug' shayxni butun boshkent ahli e'zozlashini, unga ixlos qilmog'ini inobatga olganda ham ul zot haqida bepisdandlik ila aytilgan yuqoridagi gap beodoblik va fahmsizlikdan o'zga narsa emasdi. Ayni damda bu borada barchaning fikru o'yi uyg'un edi.

O'rtada vujudga kelgan noqulay vaziyatga taqi Rindoniylar barham berdi:

-Bir rivoyat eshitgan edim. Biz omiy odammiz, mabodo rivoyatimiz ham omiycha bo'lsa, aybga sanamaysizlar. -Bu cholning xokisorlik ila aytgan so'zi edi, aslida u ancha-muncha ilmlardan boxabar, kitob ko'rgan odam edi.

Hamrohlar Rindoniylardan qiziq va hikmatli gaplarni juda ko'p eshitguvchi edilar, shul sabab barchalari uning og'ziga tikildilar.

Ayniqsa, umrining keyingi o'n yilcha muddatini musulmonlar ichra yashab, o'zi uchun ko'p yangiliklarni kashf etib, hayotida keskin o'zgarish va yoxud evrilish paydo bo'layotganligini his qilayotgan rohib Artur unga alohida e'tibor ila quloq tutib turardi.

-Olloh taboraka taoloning hikmatli kunlarining birida hazrati Muso alayhissalom yo'lda ketayotib, qo'y boqayotgan cho'bon (cho'pon)ga ro'baro' kelibdi. Mundoq sarasof solsa, ul qo'ycho'bon Olloh ila so'zlashur emish. Dermishki, "ey, Xudoyim, choriqlaring bo'lsa, ber, tikib beray, sochlaringni tarab qo'yay. Mabodo qo'ylaring bo'lsa, ayt, boqib, semirtirib beray, Xudojon!.." Nazdida, g'ofil bo'lgan cho'bonning so'zlaridan hazrati Musoning jahli chiqibdi.

-Ey, omiy cho'bon, sen nelar deyursan?! Olloh taoloda choriq, soch ne qilar? Vallohu a'lam dunyodagi barcha qo'ylarning sohibi ul zot emasmi?-deya qattiq tanbeh beribdi.

Cho'bon darrov tavba qilibdi.

Muso alayhissalomga esa o'sha kecha vahiy nozil bo'libdi:

-Ey, Muso, -debdi Holiqi olam,-bizni sidqi dildan sevguvchi bir habibimizdan mahrum etdingiz. O'shal cho'bonning aytgan so'zlari chin va samimiy edi, siz uni ranjittingiz. Biz bandalarning so'ziga qarab emas, qalbiga nazar tashlab baholaymiz!

Endi hazrati Muso aylayhissalom istig'for aytibdi...

Huddi shu kabi Xayyom hazratlari ham Oллоhga arzu munojotda hur va samimiy bo'lmoqlikni yoqlaydilar.

Bu gap barchaga yoqib tushdi va hammalari bundayin fikr o'z shuurlarida azaldan bor bo'lganligini, lekin bu qadar sodda hamda ta'sirchan tarzda o'ylab ko'rmaganliklarini, lozim bo'lsa, bundayin sodda yo'sinda ifoda etolmasliklarini ham tan oldilar. Shuning uchun suhbatdoshlarning bari mamnun bir qiyofada, suhbatning nihoyasidan rozi bo'lib, yengil tin oldilar.

-Chizmalarni ertaga ko'rib chiqamiz chog'?"-dedi Vositiy "tursak ham bo'lar", degan ohangda.

Bu mahal Mikoilni ogoh etib, Polvon ham ayanchli o'kirib qo'ydi.

Birin-ketin qo'zg'oldilar. Keng xontaxta ustida esa tarxu chizmalar yozig'liq ko'yi qoldi.

Xayyom boshchiligida bunyod etilayotgan "Faxriy sudsi" qurilishi nihoyalangan va unda amalga oshirilgan hisob-kitoblarga binoan shamsiy taqvim yaratilib bo'lingandi. Endigi ish Xayyomning so'nggi xulosasi-yu "Solnomai Malikiy", ya'ni yangi taqvimni olampanoh hazratlariga taqdim etishdagina qolgandi xolos. Rasadxona ahli xosining shoirmi intiq kutganligining boisi ham shunda edi.

Ramollar (astronomlar)ning yozishlaricha, Quyoshning yillik aylanishi uch yuz oltmish besh kecha-kunduz va bir kecha-kunduzning to'rtidan bir ulushiga teng (ya'ni 365 kecha-kunduz 5 soatu 48 daqiqa, 45 1/4 soniya). U o'zining yillik aylanishida o'n ikki burjdan har birini bir oylik muddatda bosib o'tadi. Quyoshning Hamal burjiga kirishi bahorgi e'tidolga, ya'ni tun bilan kunning teng bo'lgan vaqtiga to'g'ri keladi. Uning mazkur aylana yo'li 360 darajaga bo'lingan bo'lib, har bir burji 30 darajani egallaydi. Har bir darajaning oltmishdan biri "daqiqa" deb ataladi.

Shunday qilib, Xayyom ana o'sha suds yordamida yil, oy, kun, soat, daqiqa muddatlarini aniq va ravshan hisoblab chiqib, mukammal bir solnoma tuzdi. Ayni damda butun Eron, Xuroson va Movarounnahr xalqlari Yazdijard yil hisobidan foydalanar edilar. Bu yil hisobi sasoniyar davlatining podshohi (632-681) Yazdijard uchinchi tomonidan joriy etilgan edi. Nihoyat endi bu taqvim "Solnomai Malikiy" bilan almashtiriladigan bo'ldi.

(Umar Xayom yaratgan taqvim hozirgi kunda butun olamda foydalaniladigan Grigoryan taqvimidan ham aniqroqdir. Amaldagi taqvim bo'yicha yilning o'rtacha davomiyligi 365, 2425 kecha-kunduzga teng, ya'ni aniq hisobdagi yil hisobiga nisbatan bo'lgan farq 0,0003 kecha-kunduzni tashkil etadi. Demak, bundan har 3333 yilda 1 kunlik farq vujudga kelishi ma'lum bo'ladi. Jo'nroq qilib aytsek, har 3333 yilda bir ortiqcha kun kelib chiqadi.

Xayyomning taqvimida esa kabisa yillar 4, 8, 17, 16, 20, 24, 28 va 33-yillarga to'g'ri kelib, 33 yil muddatli oddiy hisob yaratiladi. Unda bir yilning davomiyligi 365, 2424 kecha-kunduzga teng bo'lib, farq 0,0002 kecha-kunduzga to'g'ri keladi. Ya'ni bir kunlik farq har 5000 yilda paydo bo'ladi.

Umar Xayyom dahosidagi buyuklikni shu oddiygina misoldan ham anglash mumkin.)

3

Xayyom davot uzra o'ttirar, ko'zlari bir nuqtaga qadalgan ko'yi xayol ummonida suzmoqda edi. Bu ummon esa tizginsiz-goh sokin bir ko'yda cheksiz-chegarasiz saltanatini ko'z-ko'z aylasa, goh to'fon bag'rida to'lg'onib, boshini ko'k toqiga urguday bo'ladi. Xotira uning kemasi. Yaxshiki xotira bor, yaxshiki inson yodi bor. Aks holda bashariy tuyg'ularga g'orat kelmasmidi. Unda onaizorini, qadrdon xonadonini sog'ingan shoir ne qilardi, bu olovni qay suv ila so'ndirardi?

Volidasi juda muloyim ayol, chin ma'nodagi musulima. Uni ne umidlar ila panohlab ulg'aytirdi. Erta tili chiqqanidan, erta kitob tutganidan quvondi. Yolg'izim deb suydi, mahramim deb sevindi, tobutkashim deb ardoqladi. U esa o'n oltiga to'lib-to'lmay ilm ishqida va endi o'zini o'zi g'adablamog'iga sabab bo'lgan shon-shuhrat talabida uyini tark etdi. Hatto qiblagohining janozasida tobut boshida turmadi, uni o'z ilki ila mahram suviga (er kishini o'g'illari, ayolni qizlari vafotidan so'ng g'assol kelgunicha mahram suviga olib, tanini poklab, toza liboslarini kiydirib qo'yishlari lozim) ololmadi, so'nggi so'zini tinglab, vasiyatini eshitolmadi. Ibrohim chodirdo'zning o'ksik tanini lahada o'zgalar qo'ydi, uning yolg'iz o'g'liga bog'lagan umidlari zavol topdi, o'g'illik burchiga vafosizlik ayladi. Voh, falak! Bu ne ko'rgulikki, ikki jigarpora so'nggi damda bir-birlarining diydorlariga yetolmasalar! Sho'rlik otasi ne armonlarda jon taslim etdi ekan? Bu sarkash farzandidan norizo ketgan bo'lsa, nahotki oxiratda endi uning ahvoli tang bo'lg'ay?! Astag'furilloh!..

Xayyom bilardi-uning vujudidagi nur, ziyo volidasidan o'tgan. Chunki onasi chindan ham Tangri yarlaqagan nurposh ayol, hamisha yaxshilikka esh, uning uchun g'ayriegulikning o'zi yo'qdek. Ustaxonada Umarning xushi og'gan hov o'sha kunda ham sho'rlik onasi ne ko'yga tushgandi, tanhoginasining alfozidan qo'rquvga tushgan ayol aqlidan mosuvo bo'lib, savdoyi holiga kelayozgandi... Volidai zorini, singiljonini qanchalar sog'indi-ya. Bu foni duniyoda qondosh jigarlarning ham o'z o'rni, o'z hikmatli ma'nosi bor ekan. Odam bolasi goho qarindoshlari ila hasratlashgisi kelar, hech yo'q diydorlashib, bir dasturxon tevaragida o'ltirmoqni qo'msab ham qolar ekan. Illo xiyonatdan yiroq, ta'masiz suyanch hamisha zarur va u kishiga bemisl bir quvvat ham ato etguvchidir.

Xayyom avvaliga bir qism aqcha ila kishi yo'llab, onasi va singlisini Isfahonga chorladi. Biroq ildizlari ko'hna Nishopurning hikmat to'la tufrog'iga chirmashib ketgan beva onasi uning chorloviga rad javobini berdi, "padaringning xoki muboragini qoldirib, xushnud yashamoqlik, ul kishining arvochini tentiratmoqlik oxiratimning zavolidir, bolajonim", deya uning ham qalbini larzaga soldi. Endi esa, mana, jigarlariga atab Isfahondan bir hovli sotib oldi va taqi Nishopurga kishi jo'natdi. Bir hamyon aqchaga zor-zor qaqqash bitgan nomasini qo'shib yo'lladi. Oллоh nasib etsa, hademay nomasiga javob olmog'i yoki onasi va singlisining diydoriga to'ymog'i tayin.

Xayyom qo'lidagi xomani barmoqlari orasida aylantirib, qalbu shuurini qamragan sog'inchni quvmoqqa va qayta ilm ila mashg'ul bo'lmoqqa urindi. Shu bois xayolini chalg'itmoq ilinjida nigohini taqi davotga burdi, fikrini jam etib, yozayotgani falsafiy asarining adog'ini esladi. Umuman Xayyomning fe'lu tabiati shundog' ediki, asli u kam bitar, aksariyat hollarda mutolaa ila band bo'lardi. Mabodo biron risola bitmoqni ixtiyor etsa, uzoq o'ylab yurar, so'ng yozmoqqa kirishardi. O'sha asarini bita turib, shuurida boshqa biron reja tug'ilib, uni ham yozmoq uchun ilhomi jo'sh ursa, paysallamoq unga begona edi. U ikki xil mavzudagi ikki asarni birvarakay qog'ozga tushirmoqqa imkonli edi va bundan o'zi chinakamiga huzurlanardi. Goho qalbida she'r ishq yonsa, bir zamon jununvash Umar Xayyom qoyimga kelsa, bitayotgan risolalarining hoshiyalariga to'rt satr nazm to'kmoq odati ham bor edi.

Ayni damda ham birvarakayiga ikki risola bitmoqda edi: ularning biri falsafaga oid bo'lib, "Risolai fil vujud", ya'ni "Borliq haqida risola" deb atalardi. Ikkinchi asarini esa "Uqlidus risolasiga kirish mushkulliklariga izohlar" deb nomlagandi va u Xayyomga bolalagidanoq oshno bo'lib kelayotgan Uqlidusning o'sha mashhur beshinchi qoidasiga, ya'niki yondosh chiziq'larga bag'ishlagandi. Shu kunlarda u mazkur risolasini nihoyasiga yetkazmoq arafasida turardi. U risolaning ilk satrlarini esladi: "Ilm o'rganmoq va uning ko'magida haqiqiy isbotu dalillarga erishmoq oxirat azobidan omon qolmoqni, abadiy halovatga yetishmoqni ixtiyor etganlar uchun muhimdir. Xususan, u boqiy dunyo, ruh mavjudligi va uning abadiyligi, Mutlaq zotning boqiy va ulug'ligi, unga eltuvchi sifat'larni bunyod etish, farishtalar, payg'ambarlar sayyidining hamda ul zot keltirgan xabarning haqligi haqidagi umumiy tushuncha va qonunlarga ham dahldordir..." Xayyom xuddi shu fikrlarini barcha- ulamo ham, fuzalo-yu fuqaro ham va hatto olampanoh ham bilmog'ini, anglamog'ini istardi. Filhaqiqat, har qanday ilm Ollohga eltuvchi eng ishonchli va sobit yo'ldir. Zero dunyoni, olamni anglab borgan, shunga qodir bo'lgan odamgina Yaratganning borligini, ulug'ligini to'la his eta oladi. Barcha ulum (ilmlar) ham aslida Ollohniki, demak, u o'zini anglatish, tanitish, qolaversa, basharning mushkulini oson qilmoq uchun o'z ilmlarini yaratgan. Bundan anglanadiki, ularni o'rganmoq shart, aksincha, ularni inkor etguvchilar esa shakkok va osiydirlar. Chunki ularning bu sa'ylari Ollohni tanimoqdan bosh tortmoqlik ila barobardir. Xayyom kecha shogirdlariga ham shunga uyg'un gap aytganligini esladi. Yangi taqvimning nihoyasiga yetayotganligidan g'ururlangan Abul Muzaffar kibr bo'yi anqigan so'zlarni tizdi:

-Bu qadar aniq hisob-kitobni moziy ko'rmagan, ustoz. Har bir daqiqa va hatto soniyaning nechadan bir ulushi ham qutlug' nazaringizdan pinhon qoladi. Bizlar ham shundayin bir ulug' kashfiyotga dahldor...

Xayyom shogirdining gapini keskin bo'ldi-da, go'zal qiroat ila bir oyat o'qidi:

-"Albatta Ollohning nazdida oylarning sanog'i-Olloh osmonlarni va yerni yaratgan kunida belgilab qo'yganidek, o'n ikki oydir, ulardan to'rttasi (urush) harom qilingan oylardir. Ana shu to'g'ri dindir (ya'ni haq hukmdir). Bas, u oylarda (urush qilib) o'zlaringizga zulm qilmangizlar!" (Qur'on, "Tavba" surasi, 36-oyat, Alovuddin Mansur tarjimasi.) -U Abul Muzaffarga muloyim ta'nali nazar ila biroz qarab turgach, yosh shogirdi xijolat tortib, ko'zlarini olib qochdi. -Yo, ahli ilm, unutmangiz! Biz Olloh taoloning buyuk ilmi tufayli yaratib qo'yilgan narsalarni aqli ojizimiz yetganicha o'rganib, o'z foydamiz uchun kashf etamiz xolos!..

Bu narsalarni hamma to'g'ri tushunmasdi. Hatto koinotni, yulduzlarni o'rganish kufrdir deguvchi g'ofillar ham to'lib yotibdi. Ular, ayniqsa, saroyga, devonga yovuq ersalar juda xavfli-sultonni, vaziri a'zamni chalg'itishib, ularni ilm kishilariga g'ayri qilib qo'yishlari mumkin. Bu esa ko'p yaxshi ishlarga putur yetkazadi. Xayyom mana shundan qo'rqardi, xavf tuyardi.

U esini tanibdiki, Olloh va odam haqida fikr etadi. Bolaligida Yaratganning taqdiri azali borasida o'ylarkan, nahotki uni o'zgartirib bo'lmasa, deya ishtibohga borar va goho o'z xayolidan qo'rqib ketib, darrov istig'for aytardi. Biroq haligi o'y yana qayta kelaverardi. Balki shaytoni la'in huruji deganlari shudir? Nima bo'lganda ham bu taqdir deganlari o'ylashga, fikr etishga arzigulik narsa edi. Kimdir oltinu kumushga ko'milib, to'kin-sochin yashab o'tadi, boshqa birov esa bir burda nonga zor. Axir o'sha sho'rlik, "meni ham boy qilib yaratsang, namoz o'qib, yaxshi amallar ila yashab o'tardim", deya arz etmog'i ham mumkin va u bunga haqli ham emasmi?! Yoshligini eslarkan, Buxoro madrasasida saboq mahali ro'y bergan bir voqeot yodiga tushdi. O'shanda sho'xroq saboqdoshlaridan biri mudarrisga shunday savol qilgandi:

-Uch og'a-ini bor ekan. Ularning biri taqvo ila umr kechirib, olamdan o'tibdi. Biri gunohkor, osiy bo'lib, boshqasi esa go'dakligidayoq qog'ozga yuz tutibdi. Aytingchi, ustoz, ular oxiratda ne ajra sazovor bo'lurlar?

Mudarris gapini birov ikki qila olmasligini bilgan kishi ohangida javob berdi:

-Bu kun kabi ravshandur. Parhezkor taqvodor bo'lgani behishtga, gunohkori esa jahannamga yuz tutgaylar. Go'dak esa nomai a'molida hech narsa yo'qligi bois na u yoqqa, na buyoqqa ham tushmas, arosat ma'vosida makon topg'ay.

Tolib darhol ikkinchi so'rog'ini yo'lladi:

-Unda go'daklikdayoq qazog'a yuz tutgan banda Olloh taologa arz etsachi?

-Ne deb?-deya so'radi shoshib, shogirdining ko'zlari g'alati chaqnashidan hayratlangan mudarris.

-Menga ham umr ato etib, savob amallar qilib, behishtga tushmog'imga nechun imkon bermading axir, desa, Xoliqi mutlaq ne deb javob aylagay?

Mudarris ta'nali jilmaydi.

-Barchaga ayonki, Olloh taboraka taolo mehribon va rahimli zot. U bandalariga faqat va faqat yaxshilikni istaydi. Shunday ekan, u haligi bandaga, "Sen ulg'ayganingda sergunoh va zolim bo'lib, o'zingni jahannam oloviga giriftor etarding, shuning uchun ham joningni ertaroq olib, azoblardan xalos etdim", deya javob qiladi.

Tolib xuddi jazavaga tushganday alpozda taqi savol etdi:

-U holda duzahiy bo'lgan og'asi, "Ey Olloh, nega mening jonimni ham go'dakligimdayoq olib qo'ya qolmay, gunohkor va zolim bo'lishimga yo'l qo'yding, nega?"-deya hayqirsachi?! Unda Yaratganning javobi ne bo'lur?

Mudarris shoshib qoldi va xiyol sukutdan so'ng zardali bir ohangda g'udrandi:

-Astag'furilloh! So'zlaringdan la'inning bad bo'yi ufuradur!..

O'shanda Abul Fath Umarning saboqdoshi o'z g'alabasidan oshkora tarzda huzurlangandi, odobsizlarcha muzaffariyat tantanasini namoyish etgandi. Uning fikrlarida o'shal zamon Buxoroda dinga isloh kiritmoqchi bo'lib, turfa va'zlar aytayotgan va ko'plab hukmdorlarning quvg'iniga uchrayotgan mutazalliyarning ta'siri sezilardi. Ularning ko'pchiligi dunyoviy va uhroviy ilmlarni egallagan fozil odamlar edilar. Ular Ollohning borligi va birligini tan olgan holda, taqdirni, oxirat hamda unda hisob-kitob bo'lmog'ini inkor etardilar. Xayyomning g'oyibona ustoz Ibn Sino ham ana shunday qarashlarning sohibi edi. Mutazalliyalar hamma narsada va hatto ibodatda ham erkinlik tarafdori edilar. Ular oliy bir hurlikni yoqlar va tarannum etardilar.

Xayyom ham avvaliga boyagi saboqdoshining fikrlariga qo'shilgandi va uning aqliga, mantiqiy mushohadalariga qoyil qolgandi. Ammo keyin uning so'zlarida xato, kibru havo borligini payqadi. Shunga qaramay, shuurining qaysidir puchmog'ida, qalbining tub-tubida o'sha fikrlarga xayrixoh bir mayl mudom yashaydi. Bu uning o'zi ham sezmagani holda she'rlarida aks etadi. Ehtimol bu undagi o'zidan qoniqmaslik tuyg'usi tafaylidir, balki barcha narsani anglamoqqa, dunyoni mukammal ko'rmoqqa uringanligidandir. Har holda mudom o'sha osiyona mushohadalar zamiridan kelib chiquvchi o'ylar girdobida yashaydi. Mudom Ollohni, dunyoni, o'z qalbini, ularning o'zaro uzviyligini va bir-birlariga nisbatlarini anglashga intiladi. Goho o'zicha ba'zi fikrlarga ham kelib, xulosalar yasaydi. Shu xulosalari asnosida ustoz Uqlidusning beshinchi qoidasiga monand o'zgarimas, isbot talab etmaydigan qoidalar, ba'zan falsafiy nizomlar ham yaratadi. Masalan, uning eng so'nggi kashfiyotlaridan biri quyidagicha: "Olloh dunyoning ibtidosida va intihosida mavjud, oraliqda mavjud emas, ya'ni oraliqdagi hayotga aralashmaydi"...

This is not registered version of TotalDocConverter

U yondoshlikni saqlashda bosh qalangan, taq'bi oqilona fikrga ham kelgandi. So'zlayotgan odam,-derdi Xayyom ikki chiziq aro barmog'ini qo'yib,- hamisha bir yoqlamalikka mahkum. U hech qachon ikki tomonda ham bo'la olmaydi. Demak, sukut saqlamoqlik Haqqa yovuqroqdir, ya'ni oraliqdir.

Xayyom hamon o'ychan, xomani barmoqlarida aylantirib o'ltirarkan, keskin bir sa'y ila oq qog'ozni oldiga surib, ikkita yondosh chiziq'larni chizdi. Taqi Uqlidusning fikrlarini esladi. U shu kungacha Uqlidusning ko'plab asarlarini o'rganib, uning besh qoidasi haqida risola ham yozib ulgurgandi. Shuningdek, bu olimning ba'zi fikrlarini, ilmiy kashfiyotlarini inkor etuvchi xulosalarga ham kelgandi. Bu borada unga ustoz kubro Arastuning ilmiy qarashlari ham qo'l kelgandi. Misol uchun uning fikrlarini qunt bilan o'rgangan Xayyom o'z xulosasiga ham kelib, yangi bir fikrni ilgari surmoqda edi: "Ikki to'qnashuvchi to'g'ri had (chiziq)lar kesishadi va ikki to'qnashuvchi to'g'ri hadlar to'qnashish yo'nalishida bir-birlaridan ajralmog'i mumkin emas". Bu uning so'nggi kashfiyoti edi. U endi ikki hadni kesishgan holatda chizdi-da, uning yoniga to'rt satr she'r yozib qo'ydi.

Bizni aylantirgan bu charxi falak,
Uni fonus deya xayol qil andak;
Quyosh chirog'i-yu olam fonusi,
Ikki o'rtada biz hayronu halak.

Ertasi kuni ahli rasadxona taqvim borasidagi ishlarni yakunlab, jamladilar va Xayyom uni, ya'nikim "Solnomai Malikiy"ni huzuri muborakka eltib, sulton Malikshoh ibn Alp Arslon hazratlariga taqdim etdi.

Avvalgil- qismB Keyingi

Б† Ruboiylar Shoislom Shomammedov tarjimasida berildi.